XADICHA MUXITDINOVA

O‘ZBEK TILI

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan 4- nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2019

скачано с сайта www.idum.uz

UO‘K: 811.512.133
KBK 81.2
M93

Aziz o‘quvchi! Siz mustaqil O‘zbekiston farzandisiz. O‘zbekiston ko‘p millatli diyor. Bu yurtda turli millatlar ahil, inoq yashaydilar. O‘zbekiston barchamizning muqaddas Vatanimizdir. Ona yurtimizning kelajagi Sizning qo‘lingizda. Shuning uchun barcha fanlardan chuqur bilim olishingiz, kelajakda Vatanimiz sharafini hamisha himoya qilishingiz kerak. Bu yo‘lda Sizga omad tilaymiz!

Taqrizchilar: **Y. Avlakulov** – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f. f. n.
S. Maxsumova – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f. f. n.
M. Isrofilova – Sirg‘ali tumanidagi 301-maktab o‘qituvchisi.
F. Aydarova – Sirg‘ali tumanidagi 6- maktab o‘qituvchisi.
N. O‘tasheva – Sirg‘ali tumanidagi 300- maktab o‘qituvchisi.

Shartli belgilar

 – Bilib oling!

 – Uyga vazifa

 – Savollar

 – Adabiy o‘qish

 – Suhbatlashing!

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

© X. Muxitdinova
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2019

ISBN 978-9943-22-370-7

скачано с сайта www.idum.uz

I MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON

(Fe’l nisbatlari. Aniq nisbatdagi fe’llar)

1-DARS



1-topshiriq. Berilgan tayanch so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing va tuzgan gaplaringiz ishtirokida suhbatlashing.

Tayanch so‘z birikmalari: *Mustaqillik bayrami, Mustaqillik maydoni, Ezgulik arkasi, ozodlik timsollari, katta globus, yer shari, O‘zbekiston xaritasi, „Baxtiyor ona“ monumenti.*

1-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan birikmalarni ko‘chirib yozing.

Mustaqillik maydoni

O‘zbekiston – bizning Vatanimiz. 1991-yil 31-avgustda **O‘zbekiston Respublikasi** o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Shundan beri har yili 1-sentabr sanasi **Mustaqillik bayrami** sifatida nishonlanadi. **Poytaxtimizning bosh maydoni** esa Mustaqillik maydoni deb atala boshlandi. Mustaqillik maydoniga kiraverishda **Ezgulik arkasi** bor. Uning ustidagi oppoq laylaklar **ozodlik timsollari** hisoblanadi. Maydon o‘rtasiga o‘rnatilgan obida **„Mustaqillik va ezgulik monumenti“** deb ataladi. Unda **O‘zbekiston xaritasi** tasviri tushirilgan **yer shari** aks et-

скачано с сайта www.idum.uz

tirilgan. Bu **jahon xaritasida** mustaqil O‘zbekiston davlati mustahkam o‘rin olganining ramziy ifodasidir.

2-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



– Kel, tanishamiz. Mening ismim Bobur. Sening isming nima?
– Mening ismim Oleg. Sen qayerliksan?
– Men toshkentlikman. Sen-chi?
– Men Navoiy shahridan kelganman. Bu qanday bino?
– Bu Xalqaro anjumanlar saroyi. Bu yerda katta tantanalar o‘tkaziladi.
– Juda chiroyli ekan.
– Ha, poytaxtimizda bunday chiroyli binolar ko‘p. Hozir respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida ulkan bunyodkorlik ishlari ketyapti. Vatanimiz kundan kunga obod va go‘zal bo‘lib bormoqda. …

2-mashq. Matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib yozing.

O‘zbekiston Respublikasi … joylashgan. O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va … viloyat bor. Respublikamizning poytaxti – … shahri. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari jahonning … shaharlari hisoblanadi. Bu shaharlarni ko‘rgani har yili turli mamlakatlardan … sayyohlar kelishadi. Farg‘ona vodiysi esa O‘zbekistonning … deb ataladi. Andijon shahri sanoat, Namangan esa … shahri hisoblanadi. Biz o‘z Vatanimiz bilan faxrlanamiz.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: *o‘n ikkita, Toshkent, Markaziy Osiyoda, minglab, gullar, eng qadimiy, yashil vodiysi.*

3-topshiriq. Berilgan so‘zlarni mazmunan bog‘lab, 4 ta maqol tuzing.

chaman	sevmoq	vatan	boshlanmoq	ona
bulbul	ostona	imon	omon	somon
inson	yurt	bo‘lmoq	rang-ro‘yi	sevmoq

Uyga vazifa. „Ozod Vatan farzandimiz“ mavzusida matn tuzing.

2-DARS

4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va suhbatni davom ettiring.



– Bobur, sen Samarqand shahriga borganmisan?

– Ha, ta’til kunlari o‘qituvchimiz boshchiligida sinfimiz bilan borgan edik.

– Biz esa yozda oilamiz bilan Samarqand va Buxoro shaharlariga bordik. U yerdagi qadimiy obidalar juda ham chiroyli-a?! Ayniqsa, Registon maydoni. Bunday chiroyli maydon jahonda yagona bo‘lsa kerak.

– Menga Go‘ri Amir maqbarasi juda yoqdi. Qara, bobolarimiz qanchalik buyuk shaxslar bo‘lishgan! Biz ham ularga munosib avlod bo‘lishimiz, ishlarini davom ettirishimiz kerak. ...

Bilib oling!

Ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat fe’l nisbatlari orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida 5 xil nisbat bor. Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat-holatni bildirgan fe’l shakli **aniq nisbat** deyiladi. Bunday fe’llarda fe’l nisbatlarini ko‘rsatuvchi qo‘shimcha bo‘lmaydi. ***Masalan***: *Respublikamizda katta yangilanishlar yuz bermoqda.*

aniq nisbat	o‘zlik nisbati	majhul nisbat	birgalik nisbati	orttirma nisbat
ko‘rdi	*ko‘rindi*	*ko‘rildi*	*ko‘rishdi*	*ko‘rsatdi*

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib yozing.

1991-yil 31-avgust kuni Vatanimiz tarixida ... boshlandi. Mustaqillikka erishgach, mamlakatimizning ... rivojlandi, ... tiklandi. ... ... ham juda katta yangiliklar ro‘y berdi. Jahondagi ko‘p mamlakatlar

bilan ... o‘rnatildi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning eng yirik ... va ...ga aylandi. Bugungi kunda respublikamiz ... maydoniga aylangan.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: *iqtisodi, yangi davr, ma’naviy qadriyatlari, sport sohasida, hamkorlik aloqalari, ilm-fan, madaniyat markazi, ulkan qurilishlar.*

5-topshiriq. Berilgan javoblarga mos savollar qo‘ying va o‘zaro suhbatlashing.

– ... ?

– Poytaxtimiz markazida „Toshkent City“ majmuasi qurilishi boshlangan.

– ... ?

– „Toshkent City“ majmuasi eng zamonaviy baland uylar, katta savdo markazlaridan iborat bo‘ladi.


– ... ?

– Ushbu majmuadagi uylarning balandligi 20 – 40 qavatdan iborat bo‘ladi.

– ... ?

– Hozirgi kunda respublikamizning barcha shahar va tumanlarida bunyodkorlik ishlari olib borilyapti.


6-topshiriq. **„KLASTER“** usuli yordamidan foydalanib, shahar yoki tumanlarimizdagi yangi inshootlar, ishga tushirilgan korxonalar haqida ma’lumot bering.



Uyga vazifa. „O‘zbekiston – kelajagi porloq yurt“ mavzusida matn tuzing.

3-DARS





7-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Aniq nisbatdagi fe’llarni ko‘rsating.

Toshkent metrosi

Toshkent metrosi Markaziy Osiyoda yagona metrodir. Poytaxtimizda metro qurilishi 1970-yilda boshlangan. 1977-yilda metroning birinchi – Chilonzor yo‘nalishi ishga tushdi. 1980-yilda Beruniy bekatidan Chkalov bekatigacha bo‘lgan ikkinchi O‘zbekiston yo‘nalishining qurilishi tugatildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga tuhfa qilish maqsadida quruvchilar metroning uchinchi – Yunusobod yo‘nalishini ishga tushirdilar. Hozirgi kunda Toshkent metrosining Sirg‘ali tumanini Yunusobod tumani bilan bog‘lagan to‘rtinchi yo‘nalishi qurilmoqda. Toshkent metrosi o‘zining betakrorligi, milliy bezaklari bilan barchani hayratga soladi. Toshkent metrosining har bir bekati muhtasham saroyga o‘xshaydi. Bekatlarni bezashda qadimiy Sharq va zamonaviy G‘arb uslublaridan foydalanilgan. Biz o‘z metromiz bilan faxrlanamiz.

5-mashq. Matndan foydalanib, gaplarni davom ettiring.

1. Markaziy Osiyoda metro faqat ... .
2. 1977-yilda metroning ... yo‘nalishini ... .
3. 1980-yilda metroning Beruniydan Chkalovgacha bo‘lgan ... .
4. Hozirgi kunda metroning ... .
5. Toshkent metrosining har bir bekati ... .
6. Menga, ayniqsa, ...

8-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Metro boshqa transport vositalaridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
2. Toshkent metrosida zamonaviylik va milliylikni nimalarda ko‘rish mumkin?
3. Siz Toshkent metrosining qaysi yo‘lidan ko‘p foydalanasiz?
4. Metroda yurish qoidalari haqida so‘zlab bering.



Adabiy o‘qish

O‘ZBEKISTON

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda.
Chappar urib gullagan bog‘in,
O‘par edim Vatan tuprog‘in.
Daryolardan kuylab o‘tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo
O‘xshashini topmasdim aslo.

Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston,
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

Hamid Olimjon



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi kunda respublikamizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida so‘zlab bering.
2. O‘zbekistonning ertangi kunini qanday tasavvur qilasiz?
3. Fe’l nisbatlari va ularning turlari haqida so‘zlab bering.
4. **„BBB“** texnologiyasi asosida mavzu orqali nimalarni bilib olganingizni jadvalda ifodalang.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilib olmoqchiman

II MAVZU: ONA YURT MANZARALARI

(Fe'lning o'zlik va majhul nisbati, ularning yasalishi va qo'llanishi)

1-DARS



1-topshiriq. Berilgan rasm va she'r mazmuni asosida kuz faslini tasvirlang.

BARGCHALAR

Kuz kelganda bargchalar
Qanot qoqib ucharlar.
Yo shoxlarda zerikib,
Yerlargami tusharlar.
Eshitilar ba'zida
Barglar shivir-shiviri,
Bargchalarni silarmi
Mayin shamol g'ir-g'iri.
Yellar bilan o'ynashib,
O'yin qursa bargchalar.
Shoxda qolganlari-chi,
Tepada chapak chalar.
Ba'zi o'yinqarog'i,
Sakrab-sakrab ucharlar.
Go'yo ular sevinib
Kuz raqsiga tusharlar.

Po'lat Mo'min

2-topshiriq. O'lmas Umarbekov xotiralaridan berilgan parchada kuz qanday tasvirlanganini ayting.

Har yili kuzda xazonrezgi paytida daraxtzorlarni aylanib yuraman. Bugun ham shunday bo'ldi, uyimiz ro'parasidagi daraxtzorga o'tdim.

Kech kuz bo‘lsa ham, havo ochiq edi. Quyosh charaqlab turardi. Birdan tevarak-atrof qorong‘ilashdi, osmonni parcha-parcha qora bulutlar qoplay boshladi. Ko‘p o‘tmay yomg‘ir yog‘a boshladi. Kuzda ob-havo shu tarzda: dam ochilib, dam yomg‘ir yog‘ib yuboradi.

Bilib oling!

Bajaruvchisi o‘zi ustida amalga oshiradigan harakat yoki holatni bildirgan fe’l shakli **o‘zlik nisbati** deyiladi. O‘zlik nisbati shakli fe’l asosiga ***-n, -in, -l, -il*** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi. ***Masalan:*** *kiydi – kiyindi.*

-n, -l qo‘shimchasi unlidan keyin qo‘shiladi	**-in, -il qo‘shimchasi undoshdan keyin qo‘shiladi**
tarandi, ajraldi	*yuvindi, qoqildi*

1- mashq. Berilgan fe’llarni ***-n, -l, -in, -il*** qo‘shimchasining qo‘shilishiga ko‘ra 2 guruhga ajratib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kiymoq, yuvmoq, maqtamoq, ko‘rmoq, bezamoq, boshlamoq.

2- mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Nurga to‘ldi dara, to‘ldi soy,
   Nur yog‘...*(-in, -l, -il)*di qorong‘i jarga.
2. Yaltiraydi, doim tovla...*(-n, -l, -in)*ar,
   Oy nuriga cho‘miluvchi tosh.
3. Dalalarda boshla...*(-n, -in, -l)*adi ish,
   Boshla...*(-n, -in, -l)*adi ijod va tashvish.

3- topshiriq. Guruhlarga bo‘lining. Matnlarni davom ettiring.

1. Daraxtlarning yaproqlari to‘kilib, novdalar yalang‘ochlangan. Agar barglar daraxtlar uchidan boshlab to‘kilsa, qish qattiq keladi, deydilar...

2. Kuzda kunlar qisqarib, borgan sari sovib boradi. Tez-tez yomg‘ir yog‘ishi kuzatiladi. Ba’zan yomg‘ir ketidan qor yog‘ishi ham mumkin...

3. Kuchli shamoldan daraxtlarning shoxi sinib ketguday silkinadi. Osmon qoramtir bulutlar bilan qoplanadi, ba'zan chaqmoq chaqib, sharros yomg'ir quyadi...

4-topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

Siz suv ustida uchib yurgan tumshug'i oq, qanotlari jigarrang qushchani ko'rgan bo'lsangiz kerak. Bu suv chumchug'idir. Bu qushcha suv ustida to'satdan paydo bo'lib, oqimga qarshi suza boshlaydi. So'ng birdan yo'q bo'lib qoladi. Bu payt u suv ostida ham suzib borayotgan bo'ladi. Qushcha suv ostida oqimga qarshi suzadi va o'ziga yemish qidiradi. Ham suvda suzadigan, ham osmonda ucha oladigan qushlar tabiat mo'jizasi, albatta.

Savollar:

1. Siz tabiat hodisalarini, qushlarning uchishi, sayrashini kuzatganmisiz?
2. „Zoologiya" fanida qushlarning hayoti haqida nimalarni o'rganganingiz haqida so'zlab bering.

Uyga vazifa. Tabiat hodisalarini kuzating va „Kuz taassurotlari" mavzusida matn tuzing.

2-DARS





3-mashq. Matnni o‘qing va berilgan jadvalni to‘ldirib yozing.

Kuz ne’matlari

Kuzning birinchi oyi. Mevalar, sabzavot mahsulotlari, qovun-tarvuzlar g‘arq pishgan payt. Quyosh chiqishi bilan uning zarrin nurlari dalalarga yoyilib, barglardagi shudringlar rango-rang bo‘lib tovlanadi. Ishkomlardagi oltindek uzumlarni, olma-yu anorlarni ko‘rib havasingiz keladi. Polizlardagi qovun-tarvuzlarni aytmaysizmi? Bularning barchasi saxovatli kuz ne’matlaridir. Dalalarda hosil yig‘im-terimi boshlanadi. Yig‘ilgan hosil bozorlarga yuboriladi. Bozorlarimiz kartoshka, piyoz, sholg‘om, turp, pomidor kabi sabzavotlar bilan to‘lib ketadi. Kuz faslida O‘zbekistonga kelgan sayyohlar bu to‘kin-sochinlikni ko‘rib hayratlanadilar.

Qayerda?	Nimalar?	Nima qiladi?

Bilib oling!

Bajaruvchisi noma’lum bo‘lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe’l shakli **majhul nisbat** deyiladi. Majhul nisbat shakli ham o‘zlik nisbati kabi fe’l asosiga ***-n, -in, -l, -il*** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi. ***Qiyoslang:*** *Bola qoqildi* (o‘zlik nisbati), *tut qoqildi* (majhul nisbat). Majhul nisbatda bajaruvchi noaniq bo‘ladi va u gap tarkibida to‘ldiruvchi vazifasini bajarib keladi.

4-mashq. Juftlab berilgan gaplarni o‘qing. Fe’lning aniq va majhul nisbat shakllarining yasalishi va ma’nolarini qiyoslang.

1. Darsdan keyin xonalarni tozalaymiz. – Darsdan keyin xonalar tozalanadi.
2. Biz partaga ikkitadan o‘tirdik. – Partalarga ikkitadan o‘tirildi.
3. Bolalar gullarga suv quydilar. – Gullarga suv quyildi.
4. Terimchilar paxtalarni terdilar. – Paxtalar terildi.
5. Navbatchi qo‘ng‘iroqni chaldi. – Qo‘ng‘iroq chalindi.

5-mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarni ikkinchi ustundagi so‘zlar bilan bog‘lang va berilgan savollarga mos gaplar tuzib, javob yozing.

***Namuna**: Yetishtirilgan hosil dehqonlar tomonidan yig‘ib olinadi.*

Kimlar tomonidan?	***Nimalar?***	***Nima qilinadi?***
bog‘bonlar	mevalar	…
dehqonlar	hosil	…
sohibkorlar	uzumlar	…
sabzavotkorlar	sabzavot	…
hasharchilar	poliz ekinlari	…

Uyga vazifa. Kuzda bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatgan holda „Iqlim va tabiat“ mavzusida kichik matn tuzing.

3-DARS

5- topshiriq. Matnni o‘qing. Kuz manzaralari tasvirlangan jumlalarni izohlang.

Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib terilgan, yer yuzi o‘zining qishki sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralganligi soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolgan gilos yog‘ochlari ham bu kunning tungi qora sovug‘iga chidolmay yelning ozgina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da kesgan edi.

Abdulla Qodiriy

6- mashq. Berilgan yig‘iq gaplarni yoyiq gaplarga aylantirib yozing. Fe’llar qaysi nisbatda qo‘llanganini ayting.

1. Uylar qurildi. 2. Topshiriq bajarildi. 3. Ko‘priklar qurildi. 4. Kanallar qazildi. 5. Suv chiqarildi. 6. Qazilma boyliklari qazib olindi. 7. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. 8. Hosil yig‘ib olindi.

7- mashq. Berilgan so‘zlarni o‘zaro bog‘lab, gaplar tuzing.

1. Havo, sovib, bormoq, kundan kunga, kuzda.
2. Hosil, dalalarda, va, yetishtirilgan, mo‘l, yig‘ib olmoq, polizlarda, dehqonlarimiz tomonidan.
3. Bozor, kuz, rastalari, to‘lib-toshib, ne’mat, tomonidan, ketadi.
4. Yetishtirilgan, O‘zbekistonda, sevib, mevalarni, butun, xalqlari, dunyo, iste’mol qilmoq.

Adabiy o‘qish

ERINCHOQ VA KUZ

Kuzda yomg‘ir tomchilab,
Erinchoqni qamchilab:
Yugur! – deydi, – darsingga.
– Ulgur! – deydi, – darsingga.
Seni ko‘rsam kuyaman,
Ustingdan sel quyaman.
Ivitaman chigitday,
Chaqqonroq bo‘l yigitday!
Bosib kiy-da shapkani,
G‘ijimla-da papkani.
Qanday yursa oldinlar,
Shu alfozda odimlar...
Kuzning g‘ashi keladi,
Unga qarshi keladi.
Yomg‘ir purkab betiga,
Nish sanchadi etiga.
Oyoq-qo‘li zirqirab,
Chopib qolar chirqirab.
Bu bir bo‘lib o‘tgan gap,
Erinchoqqa kuz ham chap.

Qudrat Hikmat

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. She’r mazmuni asosida erinchoq va tartibsiz o‘quvchilarga o‘z munosabatingizni bildiring.
2. Kuzdagi ob-havo va tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida so‘zlab bering.
3.  **„VENN“** diagrammasi yordamida fe’lning aniq, o‘zlik va majhul nisbat shakllari bildiradigan ma’nolarni qiyoslab tushuntiring.

Uyga vazifa. Ona tili va adabiyot fanlaridan olgan bilimlaringizdan foydalanib, kuz tasvirini o‘xshatish va jonlantirish asosida ifodalang.

III MAVZU: HOSIL BAYRAMI

(Fe'lning birgalik nisbati, uning yasalishi va qo'llanishi)

1-DARS





1-topshiriq. Berilgan rasmlar va tayanch so'z birikmalari ishtirokida o'zaro suhbatlashing.

Tayanch so'z birikmalari: *saxovatli kuz, mevalar g'arq pishgan, mo'l hosil, to'kin-sochinlik ramzi, bozorlardagi rastalar, hosil yig'imterimi, dasturxonlarimiz ko'rki.*

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarning shakliga e'tibor bering va qaysi nisbatda qo'llanganini ayting.

Hosil bayramida

O'quvchilar yakshanba kuni „Hosil bayrami" ko'rgazmasiga **borishdi.** Hosil bayramida chet ellik tadbirkor mehmonlar ham **ishtirok etishdi.** Ular rastalarga terib qo'yilgan turli meva va sabzavotlarni ko'rib **hayratlanishdi.** Darhaqiqat, dehqonlarimiz tomonidan **yetishtirilgan** oltindek uzumlar, shaftoli, olma, anorlar-u noyob noklarni ko'rib ko'zingiz **qamashadi.** Bir chekkaga uyib qo'yilgan qovuntarvuzlardan **taralayotgan** hid dimog'ga yoqimli **uriladi**. Barcha mehmonlar ularga tasannolar **aytishib**, zavq bilan mevalardan **tatib ko'rishdi.** Biz Vatanimizda shunday ne'matlar borligidan **faxrlandik.**

Bilib oling!

Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l shakli **birgalik nisbati** deyiladi. Birgalik nisbati fe'l asosiga ***-sh, -ish*** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi va ***-lar*** ko'plik qo'shimchasi bilan ma'nodosh bo'lib keladi. ***Qiyoslang:*** kel**ish**di – *keldi**lar**, teri**sh**di – terdi**lar**, joylas**h**di – joyladi**lar**.*

-sh qo'shimchasi unlidan keyin qo'shiladi	**-ish qo'shimchasi undoshdan keyin qo'shiladi**
*boshlamoq – boshlas**h**di*	*o'tkazmoq – o'tkazi**sh**di*

2-mashq. Berilgan fe'l asoslaridan savollarga mos nisbat shakllarini hosil qiling, yasalishi va ma'nolarini qiyoslang.

Nima qildi?	**Nima qilindi?**	**Nima qilishdi?**
terdi	ter**il**di	ter**ish**di

Ter, ishla, to'pla, ko'r, bor, ayt, yubor, ko'tar, yoz, yodla.

2-topshiriq. Berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashing. Fe'llar qaysi nisbat shaklida qo'llanayotganini tushuntiring.

– Dam olish kuni o'quvchilar qayerga borishdi?

– … .

– U yerga yana kimlar kelishdi?

– … .

– Chet ellik mehmonlar nimalardan hayratga tushishdi?

– … .

– Ular nimalarni tatib ko'rishdi?

– … .

3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Berilgan savollarga javob bering.

BIZNING KUZ



Kuzimizning go'zalligin,
Og'aynilar, ko'rganmisiz?
Tokdan husayni, yerdan qirqma,
Shoxdan behi uzganmisiz?
Uzum uzib, sharbat suzib,
Shinniga o't yoqqanmisiz?
Gala-gala, shoda-shoda,
Duv-duv yong'oq qoqqanmisiz?

Quddus Muhammadiy

4-topshiriq. Matnni o'qing. Matnda berilgan savolga o'ylab javob bering.

Bizni bozorlardagi to'kin-sochinlik, dasturxonimizdagi qut-baraka nihoyatda quvontiradi. Biroq bularning orqasida qanday mashaqqatli mehnat turganini, qancha kasb egalarining xizmati tufayli bunga erishganimizni barchamiz ham bilmaymiz. Bitta mevali daraxt necha yilda hosilga kirishini, uni ekish va parvarishlab o'stirish uchun bog'bon necha yil mehnat qilishini bilasizmi? Yoki poliz mahsulotlarini yetishtirish uchun dehqon jazirama yozda va sovuq izg'irinli kunlarda qanday ter to'kishini-chi?

Ana shu mehnatlarni tasavvur qilish, his qilish, bu ne'matlarni qadrlashni, uvol qilmay ishlatishni ham o'rgatadi.

5-topshiriq. „Botanika" fanidan olgan bilimlaringizni eslang va quyidagi jadvalni to'ldiring. So'ngra ushbu mevalarning foydali xususiyatlari haqida ma'lumot to'plab, jadvalni to'ldiring.

Mevali daraxtlar	olma daraxti	gilos daraxti	anor daraxti	shaftoli daraxti	xurmo daraxti
Necha yilda hosilga kiradi?					

Uyga vazifa. Hosil bayrami haqidagi taassurotlaringiz asosida „Kuz ne'matlari" mavzusida matn tuzing.

2-DARS

3- mashq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Fe’llarni yozing va qaysi nisbatda qo‘llanganini ko‘rsating.

Hosil bayrami

O‘zbekistonda yoz oxiri – kuz boshi baxmal mavsum hisoblanib, bayram va sayillarga boy bo‘ladi. Bu mavsumda, ayniqsa, Hosil bayrami tantanali nishonlanib, unga bog‘ sayli, qovun sayli, uzum sayli, anor sayli kabi sayillar qo‘shilib ketadi. Kuz faslida, shuningdek, Mehrjon bayrami, Xirmon to‘yi kabi bayramlar ham o‘tkaziladi. Poliz mahsulotlari yarmarkalari ham tashkil etiladi.

Hosil bayrami barcha viloyatlarda keng nishonlanadi. Bayram dehqonlarning mehnatlari kamaygan paytda – hosil yig‘im-terimidan so‘ng o‘tkaziladi. Ayniqsa, qovun sayillari juda keng tarqalgan bo‘lib, bunda eng yaxshi qovun navlarini yetishtirgan dehqonlarni taqdirlashadi.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovunlarning dovrug‘i butun dunyoga tarqalgan. Farg‘ona vodiysi, Mirzacho‘l dalalarida obinovvot, bosvoldi, bo‘rikalla, shakarpalak, qizilurug‘ kabi navlari yetishtiriladi. Viloyatlarda hosil bayramida poyga, ko‘pkari, tosh ko‘tarish, arqon tortish, kurash kabi musobaqalarni tashkil etishadi. Bu bayram barchaga yaxshi kayfiyat ulashadi.

(„O‘zbek xalq bayramlari“ kitobidan)

6- topshiriq. Matn asosida quyidagilar haqida ma’lumot bering.

Kuz mavsumida o‘tkaziladigan bayramlar va sayillar.	—	… .
O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovunlarning navlari.	—	… .
Hosil bayramida o‘tkaziladigan musobaqalar.	—	… .

4- mashq. Qavs ichida berilgan fe’llarni mos kelgan nisbat shaklida qo‘llab, matnni ko‘chiring.

Qadim zamonlarda odamlar meva sharbatiga muz, qor aralashtirib *(iste'mol qilmoq)*. Bu ichimlikni Iskandar Zulqarnayn ham *(yaxshi ko'rmoq)*. Unga tog' cho'qqilaridan maxsus muz *(keltirmoq)*. XIII asrda sayyoh Marko Polo Sharq mamlakatlaridan muzqaymoq tayyorlashni *(o'rganib ketmoq)*. Muzqaymoq tez orada Italiyada saroy a'yonlarining sevimli taomiga *(aylanmoq)*. Ammo muzqaymoq tayyorlash usulini *(sir saqlamoq)* va uni tayyorlagan kishini o'lim jazosiga *(hukm qilmoq)*. Oradan 400 yil o'tgach, 1660-yilda muzqaymoq tayyorlash sirini fransuzlar, 1794-yilda esa ruslar *(bilib olmoq)*.

5-mashq. Berilgan so'zlarni bir-biri bilan bog'lab, gaplar tuzing.

1. Yetishtirilgan, o'lkamizda, mevalar va sabzavotlar, juda shirin.
2. Hosil, hasharchilar, ham, kuzda, yordam bermoq, yig'im-terimiga.
3. Dalalardagi, yig'ishtirmoq, olmoq, so'ng, haydamoq, hosil, yerlarni.
4. Qilmoq, yil bo'yi, daromad, dehqonlarga, mehnat, keltirmoq, katta.

7-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlang.

CHO'PON TARVUZ

Antiqa tarvuz ko'rdim,
Shunday tarvuzni, qarang.
O'zi cho'l-u sahroda
Yetilib pishgan tarang.
O'sgan yantoq shoxida,
Payvandi tarvuz ekan.
Cho'pon bobom xizmati,
Sohibkorlik san'ati,
Bittasini qirq bola
Yeb, yana ortib qoldi.
Urug'ini talashib,
Hammamiz bo'lib oldik.
Xuddi Yer sharidek ulkan,
Osmondek, go'zal, ko'rkam.
Yesangiz-chi, mazasi
Asaldan ham o'tadi.
Ming kishi yesa, agar
Hammasiga yetadi.
Nashvoti, shinni tarvuz,
Deb dalaga ekamiz.
Boshqalarga ham berib,
Urug'in tarqatamiz.
Bobomlar yetishtirgan
Tarvuzi deb aytamiz.

Quddus Muhammadiy

8-topshiriq. Chap ustunda berilgan gaplarni o‘ng ustunda berilgan gaplarga bog‘lab, maqollarni tuzing.

Birni birov beradi,	qand-u asal totganing.
Bir qo‘llab eksang,	kuz haydamasang, yuz hayda.
Yer boylikning onasi bo‘lsa,	ko‘pni mehnat.
Mehnat qilib topganing,	ikki qo‘llab yig‘asan.
Yer haydasang, kuz hayda,	otasi mehnat.



Adabiy o‘qish

Qovun sayli

Tog‘am bir kun mashinada keldi-da:

– Yuringlar, qovun sayliga boramiz! – dedi.

Men, Hasan-Husan, Fotima-Zuhralar tog‘am bilan birga ketdik. Paxtazorlarni aylanib o‘tib, qovun poliziga kirdik. Biram katta dalaki, chek-chegarasini ko‘rib bo‘lmaydi. Ko‘m-ko‘k palaklar ichida sarg‘ayib qovunlar ko‘rinadi. Biram ko‘pki!

Poliz oralab bejirim chaylaga kirdik. Chaylada yangi uzilgan umrboqi, ko‘kcha, doniyor qovunlari, qo‘zivoy tarvuzlari dumalab yotibdi. Tog‘am qovunlarni chertib, hidlab ko‘rdi-da, sarasini tanlab so‘ydi. Birpasda to‘rtta kosa qilib, oldimizga qo‘ydi.

– Qani olinglar!

Bir karjini olib og‘zimga solgandim – shundoqqina eridi-ketdi, biram shirin ekanki, tilni yoray deydi.

Topshiriq: Hikoya mazmunini so‘zlab bering.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Kuzda qanday sayillar o‘tkaziladi?
2. Fe’lning birgalik nisbati ***-lar*** qo‘shimchasi bilan ma’nodoshligini misollar yordamida tushuntiring.



Uyga vazifa. Bog‘ va poliz ekinlarining shifobaxsh xususiyati haqida ma’lumotlar to‘plang va jadvalni to‘ldiring.

Bog‘ ekinlari	Poliz ekinlari
Anor qonni ko‘paytiradi.	*Sabzi bo‘y o‘stiradi.*

IV MAVZU: BUG‘DOY – RIZQ-RO‘ZIMIZ

(Fe’lning orttirma nisbati, uning yasalishi va imlosi)

1-DARS



1-topshiriq. Berilgan tayanch so‘z birikmalaridan foydalanib, rasmni tasvirlang.

Tayanch so‘z birikmalari: *keng bug‘doyzor, bug‘doy boshoqlari, bug‘doy uni, hosilni yig‘ishtirish, zamonaviy texnika.*

1-mashq. Matnni o‘qing, berilgan savollarga javob bering. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarga e’tibor bering.

Bug‘doy – rizq-ro‘zimiz

Yer yuzida hayot paydo bo‘lgan kundan barcha jonzotlar yashab qolish uchun oziq-ovqat **qidirishgan.** Shunda odam bug‘doyni tanlagan va yillar davomida bug‘doyning hosildorligini, mazasi va to‘yimliligini **oshirib borgan**. Bug‘doyning non sifatida shakllanganiga 25–30 ming yil bo‘lgan. O‘rta Osiyo xalqlari g‘alla **yetishtirish,** uni xushta’m va to‘yimlilik darajasini oshirib iste’mol qilishni qadimdan yaxshi **o‘zlashtirganlar.** Qadimgi Afrosiyob, Qashqar va Surxon vohalaridan topilgan arxeologik qazilmalarga asoslansak, eramizdan ming yillar ilgari Marokandda, O‘rta Osiyo va qadimiy yunonlarda nonning 24 xili ma’lum bo‘lgan ekan. Pazanda novvoylarimiz hozirgi kunda ham bu an’anani **davom ettirmoqdalar.** Nonlarimizning to‘yimliligi va xilma-xilligi buning isbotidir.



Savollar:

1. Nima uchun inson oziqa sifatida bug‘doyni tanlagan?
2. Qachondan boshlab bug‘doydan non yopila boshlangan?
3. Xalqimiz g‘alla yetishtirish, undan non tayyorlashni qachon o‘zlashtirgan?
4. Qadimda nonning necha xil turi ma’lum bo‘lgan?



Bilib oling!

Fe’lning orttirma nisbatida ish-harakatning biror boshqa vosita orqali bajarilganligi anglashiladi. Fe’lning orttirma nisbati fe’l asosiga ***-t, -dir(-tir), -giz(-kiz, -qiz, -g‘iz), -gaz(-kaz, -qaz), -ir, -iz, -sat*** kabi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan yasaladi. ***Masalan:*** *ishlatmoq, kiydirmoq, o‘stirmoq, yurgizmoq, tekkizmoq, o‘tqizmoq, yurg‘izmoq, o‘tkazmoq, oshirmoq, oqizmoq, ko‘rsatmoq.*

Nima qildi?	Nima qilindi?	Nima qildirdi?
o‘qidi	*o‘qildi*	*o‘qitdi*

2-mashq. Berilgan fe’l asoslaridan orttirma nisbat shaklini hosil qiling va ular ishtirokida bir nechta gap tuzing.

Namuna: *O‘qi – o‘qit: Ukamga she’rni ifodali o‘qitdim.*

O‘qi, yoz, ishla, chiz, quvon, yur, ter, tayyorla, ayt, yubor, kiy, ko‘tar, yodla, yech, hisobla, kul, tuz.

3-mashq. Namunadan foydalanib, berilgan gaplarni orttirma nisbat shaklida davom ettiring.

Namuna: *Men o‘zim cho‘mildim. – Ukamni onam cho‘miltirdi.*

1. O‘quvchi o‘qidi. – O‘qituvchi o‘quvchini ... .
2. Ukam kiyindi. – Singlim ukamni ... .
3. Ozoda dasturxon tuzadi. – Onasi Ozodaga dasturxon ... .
4. O‘quvchilar rasm chizdilar. – Darsda o‘quvchilarga rasm ... .
5. Mashina sekin yurdi. – Haydovchi mashinani sekin ... .

4- mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni zarur nisbat shaklida yozib, matnni to'ldiring.

Eng to'yimli taom

Non eng to'yimli, foydali taomdir. Har kuni nonushtaga non *(kelmoq)*. O'zbek dasturxoniga, avvalo, non *(qo'ymoq)*. Non novvoylar tomonidan tandirlarda *(yopmoq)*. Tandirdan chiqqan issiq nonning hididan ishtahangiz *(ochmoq)*. Yurtimizdagi turli viloyatlarda o'nlab turdagi nonlar *(tayyorlamoq)*. Toshkent patirlari, Samarqand nonlari, Namanganning qatlama nonlari, obinon, kulchanon, shirmoy nonlar, hatto chet ellik mehmonlar tomonidan ham sevib *(xarid qilmoq)*. Non faqat taom emas, insonlar tomonidan *(yaratmoq)* mo'jiza hamdir. Shuning uchun bizda non juda *(e'zozlamoq)*, uning uvog'i ham yerga *(tushirmoq)*. Uzoq safarga ketayotgan yigitlarga rizqi o'z uyida qolsin, deb non *(tishlamoq)*. Keksalar yoshlarni ***„Nondek aziz bo'ling", „Uyingiz bug'doyga to'lsin",*** deb *(duo qilmoq)*.

2- topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

BUG'DOY – RIZQ-RO'ZIMIZ

Maysa edi ona oftob
Boshidan nur to'kardi.
Yuvar edi yomg'irlar goh,
Yellar silab o'tardi.
O'sib kamol topdi durkun,
Rosa pishib yetildi.
Sinovlardan o'tkazmoq-chun
Bir kun olib ketildi.
Avval, bilmoq lozim
Chidam-u bardoshini,
Yuritdilar boshidan zil
Tegirmonning toshini.
Endi uning pokligin ham
Bir tekshirmoq kerak-da,
Mayin, oppoq un bo'lsa-da,
O'tkazdilar elakdan.





Suv quydilar, mushtladilar,
Ming bir kuyga soldilar.
Qizib turgan tandirga ham
Bir kiritib oldilar.
Non bo‘lgach, u sabr qilib,
Bor sinov-otashlarga.
E’zoz qilib, ko‘zga surib,
Ko‘tardilar boshlarga.



Dilshod Rajab

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

2-DARS

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Fe’llarning nisbat shakllarini ayting. Oxirgi jumlaning ma’nosini tushuntirib bering.

Nonushta

Tonggi nonushta uchun dasturxonga oq qand, novvotdan tortib husayni uzumdan bir bosh, har birimizga gulli sopol piyolada qaymoq, chiroyli piyolalarda tog‘ asali-yu behi murabbosidan qo‘yilgan, biroq eng zarur narsa – non hali dasturxonga qo‘yilganicha yo‘q.

– Hoy, bolam, savatdagi nonni ola ket.

Tandirdan non uzayotgan onamlarning ovozlari biram yoqimli eshitildi. Nonni keltirib, dasturxonga qo‘ydim. Otam nonni ushatgancha, to‘kin dasturxonga:

– Qani, olinglar, kechroq oshibdi-da, xamir. Non kelmaganiga indamay o‘tirgan edik. Nonning o‘rni bir boshqacha-da. Shuncha shirin narsalarning bittasi ham nonning o‘rnini bosmaydi-ya! – dedilar.

G‘ani Abdullayev

Bilib oling!

-dir orttirma nisbat qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan fe’l asoslariga, ***-tir*** qo‘shimchasi, asosan, jarangsiz

undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, ***-ir, -iz*** qo'shimchalari esa bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi. ***Masalan:*** *oldirmoq, qiziqtirmoq, ichirmoq, oqizmoq.*

- tir qo'shiladi	**- dir** qo'shiladi	**- ir, - iz** qo'shiladi
ektirmoq, tuzattirmoq	*kuldirmoq, yedirmoq*	*ichirmoq, oqizmoq*

5- mashq. Berilgan fe'l asoslariga ***-dir, -tir, -ir, -iz*** qo'shimchalarini imlo qoidasiga muvofiq qo'shib, orttirma nisbatdagi fe'llarni yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yozmoq, kulmoq, ortmoq, shoshmoq, ochmoq, boqmoq, eshitmoq.

6- mashq. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.

1. Hashar vaqtida hovli va ko'chalar tozalat...iladi. 2. Maktabimiz hovlisida xilma-xil gullar o's....iladi. 3. Olgan bilimlarimizni sinash uchun qo'shni sinflar bilan musobaqa uyush...dik. 4. Ukam dadamga futbol koptogi ol...di. 5. O'rtoqlari Behzodni shosh...dilar. 6. Bola ariqda oqayotgan suvda kemachasini oq...di. 7. O'qituvchi doskada qoidaga mos misollarni yoz...di.

4- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Kunlardan bir kun Mirzo Ulug'bek o'z amaldorlari bilan safarga ketayotgan ekan. Yo'l yoqasida yotgan bir burda nonni ko'rib qolibdi va darrov otdan tushib, nonni qo'liga olibdi. Vaziri: „Nega bizga buyurmay, o'zingiz otdan tushdingiz?" – deb so'rabdi. Shunda Mirzo Ulug'bek: „Nonni dastlab men ko'rdim, uni yerdan olishni birovga buyurish nonga nisbatan hurmatsizlik bo'ladi", – deb javob beribdi.

5- topshiriq. Berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

– Xalqimizning nonga bo'lgan munosabati qanday?

– ... .

– Nonni nima qilish mumkin emas?

– ... .

– Nonni qadrlash haqida qanday hikmatli so‘zlar, maqollarni bilasiz?

– … .

– Unga kim qanday rioya qiladi?

– … .

6-topshiriq. **„KLASTER“** usulidan foydalanib, nonning o‘zingiz bilgan turlarini yozing.

Uyga vazifa. Siz yashayotgan hududdagi non turi va uning tayyorlanish jarayoni haqida ma’lumot yozing.

3-DARS

7-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va har bir kasbga munosabatingizni bildiring.

Eng kerakli kasb

Bir kuni dehqon, tegirmonchi va novvoy tortishib qolishdi.

Novvoy dedi: – Men shu mazali va chiroyli nonlarni pishirmasam, siz nima yer edingiz?

Tegirmonchi dedi: – Men bug‘doyni tegirmonimda yanchib, un qilmasam, sen bu mazali nonni nimadan pishirarding?

Dehqon aytdi: – Agar men bug‘doyni ekib ko‘kartirmasam, sen tegirmonda nimani yancharding?

Ular uzoq tortishib, donishmand ota yoniga kelishdi.

Donishmand bir gap bilan ularning bahsiga yakun yasadi:

– Uchovingizning ham kasbingiz kerakli, dehqon, tegirmonchi va novvoyning kasbi eng zarur kasbdir, – dedi.

(*„Sehrli daraxtlar“ kitobidan)*

8-topshiriq. **„IKKI QISMLI KUNDALIK“** texnologiyasi asosida non tayyorlash jarayonida dehqon va novvoy qanday mehnat qilishini yozing.

Bilib oling!

-giz, -g‘iz, -gaz, -g‘az qo‘shimchalari jarangli tovushlardan so‘ng, ***-kaz, -qaz, -kiz, -qiz*** qo‘shimchalari jarangsiz tovushlardan so‘ng qo‘shiladi. ***Masalan:*** *o‘tkazmoq, yurg‘izmoq, ketqizmoq, kirg‘izmoq.*

7-mashq. Juftlab berilgan gaplarni o‘qing. Orttirma nisbat qo‘shimchalarini qo‘llanilishini yozing.

1. Ko‘chadan o‘tdi. – Ko‘chadan o‘tkazdi.
2. Mashina yurdi. – Haydovchi mashinani yurgizdi.
3. Qariya o‘rnidan turdi. – Qariyani o‘rnidan turg‘azishdi.
4. Sportchi musobaqada yutdi. – Sportchi musobaqada yutqazdi.
5. Ertalab barvaqt turdim. – Oyim meni barvaqt turg‘azdi.

Adabiy o‘qish

NON – TINCHLIK RAMZI



Bu odat qadimiydir,
Yashnasin deya ellar.
Do‘stlik hamda tinchlikning
Timsolidir yagona.
Uzoq yurt-o‘lkalardan
Azaldan kelsa mehmon.
Non tutamiz, avvalo,
Mehmon olar qo‘ldan non,
Bog‘lansin deya dillar.
Do‘stlik bilan doimo
Bobolardan nishona.

Non bor ekan o‘rtada
Non-la tinchlik mustahkam.
Shu-chun ko‘zday asraymiz,
Doimo tuz-u nonni.
Unutmaymiz hech qachon
Ulug‘ bobodehqonni.

Bahri Umarov

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. „Bug‘doy – rizq-ro‘zimiz“, deyilishining sababini tushuntiring.
2. Non bilan bog‘liq qanday urf-odatlarni bilasiz?
3. Fe’llarning nisbat shakllari, ularning ma’nosi va ifodalanishini misollar yordamida so‘zlab bering.

Uyga vazifa. „Non – tinchlik ramzi“ she’rini yod oling.

V MAVZU: BUYUK ALLOMALAR

(Nisbat qo‘shimchalarining birdan ortiq qo‘llanishi, ularning imlosi va talaffuzi)

1-DARS



1- mashq. Matnni o‘qing va savolga javob bering. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarning nisbat shakllarini izohlang.

Allomalar kimlar?

Olimlar tabiat va jamiyat bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganadigan, ulardan xulosa chiqaradigan va qonuniyatlarni aniqlab, o‘zidan keyingi avlodlarga **yetkazadigan** insonlardir. Ularning mehnati tufayli bebaho fikrlar xazinasi bo‘lmish kitoblar dunyoga **keltirilgan.** Qadimgi vaqtda olimlar donishmandlar deb atalib, ular ko‘p sohalar bilan shug‘ullanganlar. Shuning uchun ular allomalar, ya’ni qomusiy olimlar deb **ataladi.** Qomusiy olimlar, ayniqsa, Sharqda juda ko‘p bo‘lgan va ular jahon ilm-fanining asoslarini **yaratib ketishgan.** IX – XI asrlarda Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniylar tomonidan **yaratilgan** asarlar jahon ilm xazinasining poydevorlari **hisoblanadi**. Barcha kashfiyotlar, insoniyat erishgan yutuqlar va hozirgi taraqqiyot olimlarning mehnati natijasidir.

Siz ham olim bo‘lishni va insoniyat rivojiga o‘z hissangizni qo‘shishni istasangiz, bilimli bo‘ling.

1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



– Rustam, ayt-chi, kimlarni allomalar deb atashgan?
– Allomalar ko‘p sohalar bilan shug‘ullangan qomusiy olimlar bo‘lishgan. Bizning diyorimizdan ham ko‘p allomalar yetishib chiqqan.
– Qaysi davr „Beruniy asri“ deb ataladi?
– IX – XI asrlar „Beruniy asri“ deyiladi. Bu davrda Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sinolar yashab ijod etishgan. ...

Bilib oling!

Fe’l nisbatlarini yasovchi qo‘shimchalar fe’l asosiga birdan ortiq qo‘shilib kelishi mumkin. ***Masalan:*** *yasanmoq* – aniq nisbatda, *yasa+**n**+**tir**+moq* – orttirma nisbatda, *yasa+**n**+**tir**+**il**+moq* – majhul nisbatda.

2-mashq. Juftlab berilgan fe’llarni namunadagidek nisbat shaklini ko‘rsatib yozing.

Namuna: *Yuvmoq (aniq nisbat) – yuvdirmoq (orttirma nisbat) – yuvdirilmoq (majhul nisbat).*

Yuvmoq – yuvdirmoq – yuvdirilmoq; yuvinmoq – yuvintirmoq; ko‘rmoq – ko‘rinmoq – ko‘rintirmoq; ishlamoq – ishlatmoq – ishlattirilmoq; yashirmoq – yashirinmoq – yashirintirmoq; yozmoq – yozdirmoq – yozdirilmoq; yopmoq – yopinmoq – yopintirmoq – yopintirilmoq.

2-topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Buyuk olimlar maktabi

VIII asrning 60-yillarida Bag‘dodda katta kutubxona tashkil etilgan. Eng yirik olimlar poytaxtga jalb qilinib, ushbu kutubxona „Bayt ul-hikma“ – ilmlar markaziga aylantirilgan. Ma’mun akademiyasi o‘sha davrda fanlar akademiyasi vazifasini bajargan. Al-Ma’mun akade-

miyasining astronom olimlari Yer atrofi va meridian uzunligini graduslar bo‘yicha o‘lchaganlar, osmondagi yulduzlar harakatini kuzatganlar.

Shunday akademiya 1004 – 1017-yillarda Xorazmshohlar poytaxti Gurganj shahrida tashkil etilib, u ham „Bayt ul-hikma“ deb atalgan. Mazkur akademiyada Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Masihiy, Ibn Iroq, Al-Xo‘jandiy, Jurjoniy kabi jahonda dovruq taratgan buyuk olimlar faoliyat yuritganlar. Ular o‘z g‘oyalari va yaratgan asarlari bilan jahon ilm-u fani taraqqiyotini 500 yil oldinga ilgarilatdilar.

Savollar:

1. Ma’mun akademiyasi qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?
2. „Bayt ul-hikma“ – ilmlar markazida kimlar faoliyat yuritganlar?
3. Xuddi shunday akademiya yana qayerda tashkil etilgan?
4. Ma’mun akademiyasining faoliyati ilm-fan taraqqiyotini necha yil oldinga ilgarilatdi?

Uyga vazifa. Ma’mun akademiyasi haqida so‘zlab bering.

2-DARS

3-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Ajratib ko‘rsatilgan fe’llarda nisbat qo‘shimchalarining qo‘llanilishini tushuntiring.

Movarounnahr – buyuk allomalar yurti

IX – XI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma’rifat yuqori cho‘qqiga chiqqan. Sharqda yaratilgan nodir asarlarni o‘z kutubxonasiga to‘plagan Aleksandr Makedonskiy yunon faylasuflarining asarlarini arab tiliga, arab tilida yozilgan asarlarni esa yunon va lotin tillariga **tarjima qildirtirgan.** Shu tariqa Sharq va G‘arb ilmi bir-biriga ta’sir etgan va bir-birini **boyitishgan.** Bu davrda jahon ilmiga beqiyos hissa qo‘shgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy kabi qomusiy olimlar yashab **ijod qilishgan.** Ular turli fanlarga oid ulkan kashfiyotlari bilan G‘arbda Uyg‘onish davri yuzaga kelishiga **zamin yaratishgan.** Sharqda Uyg‘onish davri Yevropadan uch asr avval yuz bergan. O‘sha davrda ko‘p allomalar **yetishib** chiqqani uchun O‘rta Osiyo dunyo ilmlarining beshigi hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan **yaratilgan** falsafa,

tarix, matematika, tibbiyot, geologiya, geodeziya va astronomiya fanlariga oid asarlar jahonning eng bebaho xazinasi sifatida **e'tirof etiladi.**



Bilib oling!

Fe'lning **orttirma nisbat** shakli qo'shimchalari bir fe'l asosiga birdan ortiq qo'shilib kelishi ham mumkin. Bunday hollarda ushbu qo'shimchalar ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. ***Qiyoslang:*** *ishlatdi – ishlat**tir**di, yasatdi – yasat**tir**di, kestirdi – kes**tirtir**di.*

Nima qildirmoq?	Nima qildirtirmoq?
*o's**tir**moq, yurg**iz**moq, tek**kiz**moq, o'tk**az**moq, osh**ir**moq, oq**iz**moq*	*o'q**ittir**moq, ko'rs**attir**moq, yodl**attir**moq, ishl**attir**moq*

3-mashq. Juftlab berilgan fe'llardan gaplar tuzing va ma'nolaridagi farqlarni tushuntiring.

Namuna: Mashqni daftarga ko'chirib yozdi. O'qituvchimiz mashqni daftarga ko'chirtirdi.

Yozmoq – yozdirmoq, yasamoq – yasatmoq, ishlatmoq – ishlattirmoq, o'qimoq – o'qitmoq, chizmoq – chizdirmoq, sanamoq – sanatmoq.

4-mashq. Gaplarni o'qing. Birdan ortiq qo'shilib kelgan orttirma nisbat shakli qo'llangan fe'llarni yozing.

1. Ma'lumotlarni hisobchiga qayta tekshirtirdik. 2. Bemorga man etilgan taomlarni aslo yedirtirmang. 3. Tashkilotchi kechani o'z vaqtida boshlattirdi. 4. Tadbir yakunida mehmonlarni ham so'zga chiqartirdi. 5. Juda quvnoq yigit ekan, barchani kuldirtirib o'tirdi. 6. Qiyin bo'lsa ham, o'z vaqtida bitkazdiraman. 7. Uni bu yerga boshqa keltirtirmang.

5-mashq. Savollarga javob yozing. Fe'llarning qaysi nisbat shakllarini qo'llaganingizni ayting.

– IX – XI asrlarda Movarounnahrda qaysi buyuk insonlar yashab, ijod qilishgan?

– … .

– Sharq va G‘arb ilmi bir-biriga qanday ta’sir etgan va bir-birini qay tarzda boyitgan?

– … .

– O‘rta Osiyo nima uchun dunyo ilmlarining beshigi hisoblanadi?


– … .

– Qaysi fanlarga oid asarlar jahonning eng bebaho xazinasi sifatida e’tirof etiladi?

– … .

4-topshiriq. She’riy dramadan keltirilgan parchani rollarga bo‘lib o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

UCHRASHUV



Go‘ri Mirdan chiqmish alp Sohibqiron
Dushmanlar ishidan g‘azabga to‘lib.
Keldi el boshiga ish tushgan zamon,
Yurtboshi yonida turmoqchi bo‘lib.

Amir Temur:
– Bolam, hayron bo‘lma g‘anim o‘qiga
Hamisha sultonlar ko‘ksi nishondir.
O‘z xalqi, diniga, diyor, yoriga,
Mard sulton qalqondir, yov ham nishondir.

Yurtboshi:
Rahmat Sohibqiron, qulluq hazratim,
Tashvishli onimda zo‘r madad uchun!

Amir Temur:
Olloh madadkoring, imon – qudrating,
O‘zi seni berdi mamlakat uchun.
Salkam olti yuz yil ko‘z tutib yotib,
Maqsadimga yetdim sening siymongda.
Tarixning g‘ubori changiga botib,
Unut bo‘lar ekan-da dinda, imonda...
Yurtimni qutqarding shumqadamlardan,
„Kuch – adolatda“, deb yozding qonunda.

Yurtboshi:
Saboq olib sizday mard odamlardan,
Hurlik tuyg‘usini quydim qonimga.

Habib Sa’dulla

Uyga vazifa. Ushbu she’riy matn asosida kichik matn tuzing.

3-DARS





5-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.

– Kimlarni allomalar deb atash mumkin?
– Allomalar har biri o‘z maktabini yaratgan buyuk olimlardir. Ular jahon ilm-fanini rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shishgan.
– Ular haqida yana nimalarni bilasiz?
– Raqam – IX asrda yashagan Al-Xorazmiy nomi bilan bog‘liq. Ibn Sino – Avitsennaning „Al-Qonun“ asarida juda ko‘p kasalliklarning paydo bo‘lish sabablari, 790 dan ziyod dori-darmonlarning ro‘yxati keltirilgan.

Adabiy o‘qish

Qiziquvchan bola

(Rivoyat)

Bu voqeaning bo‘lib o‘tganiga ming yildan oshdi. Sakkiz yoshli do‘mboqqina bola har kuni ertalab Amu sohili bo‘ylab aylanib yurar, har xil o‘t, giyoh, gullarni, shuningdek, har xil meva, don va mayda

toshlarni yig‘ishga oshiqardi. Kunlarning birida yig‘gan giyohlarini ko‘tarib, mahalla tabibiga keltirdi va: „Bobo, bu o‘tlarning oti nedur?“ – deb so‘radi. Tabib jilmaydi, bolaning qiziqishidan xursand bo‘lib: „Barakalla, bo‘tam, juda yaxshi ish qilibsan. Bular dorivor o‘tlar – giyohlar-ku“, – dedi. Shu tariqa bola har kuni giyohlarni yig‘ib kelar, tabib esa bolaga ushbu giyohlarning nomini, foydali tomonlarini aytib, bolaning tabiatga qiziqishini yanada oshirardi. Bu bolakay bo‘lajak ulug‘ olim Abu Rayhon Beruniy edi.

Abu Rayhon ota-onasidan erta yetim qolgan bo‘lsa ham yaxshi odamlarning qo‘lida tarbiyalandi. Yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Qadimgi xorazm tilini, turkiy, forsiy va arab tillarini mukammal egalladi. Matematika, astronomiya, geografiya, tarix va tibbiyot fanlariga doir ko‘p kitoblarni o‘qib chiqdi. Yulduzlarni kuzatdi, daryo oqimini o‘lchadi, tabiat sirlari bilan qiziqdi. Kuzatishlar olib borish maqsadida o‘zi ko‘pgina tajriba asboblarini ixtiro qildi. Keyinchalik Beruniy o‘zi shu fanlardan kitoblar yozib, dunyoga mashhur olim bo‘lib yetishdi.

Topshiriq: Beruniy bolaligida qanday bola bo‘lganligi haqida so‘zlab bering. Siz nimalarga qiziqasiz?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. IX – XI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma’rifat qanday rivojlangan?
2. Nima uchun Movarounnahr „Buyuk allomalar yurti“ deb ataladi?
3. Kimlarning buyuk kashfiyotlari G‘arbda Uyg‘onish davri yuzaga kelishiga zamin yaratgan?

Uyga vazifa. Fanlardan egallagan bilimlaringiz asosida buyuk allomalar haqida ma’lumot yozing.

Abu Rayhon Beruniy	*Xorazmda tug‘ilgan, geografiya, astronomiya, tarixga oid asarlar yozgan, birinchi bo‘lib Yerning dumaloqligini, okean ortida qit’a borligini aytgan.*
...	...

VI MAVZU: O‘ZBEK YOZUVCHILARI

(Fe’lning vazifaviy shakllari. Harakat nomi, uning yasalishi va qo‘llanishi)

1-DARS



1-topshiriq. Haykallarda kimlar tasvirlangan? Ular haqida nimalarni bilasiz? Shu haqda suhbatlashing.

1-mashq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering va ajratib ko‘rsatilgan fe’l shakllariga e’tibor bering.

O‘zbek yozuvchilari

O‘zbek adabiyotining eng qadimgi namunalari xalq og‘zaki ijodiga mansubdir. Unda ertaklar, rivoyatlar, dostonlar alohida o‘rin **egallaydi.** Dostonlar, ko‘pincha, she’riy tarzda **yozilgan bo‘lib,** Sharqda nasriy asarlarga qaraganda she’riy usulda **yozish** keng **tarqalgan edi.** Mumtoz adabiyotimizda nasriy **yozilgan** asarlarga Alisher Navoiyning „Muhokamat-ul lug‘atayn“, „Majolis un-nafois“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“, Muhammad Sharif Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asarlarini **kiritish** mumkin. Nasriy usulda **yozish** o‘zbek adabiyotiga XX asrning boshlarida kirib keldi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning dramatik asarlari, Abdulla Qodiriyning mashhur tarixiy romanlari bu janrda **yaratilgan** ilk asarlar edi. O‘tgan asr o‘rtalarida Oybek, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O‘lmas Umarbekov, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik kabi yetuk yozuvchilar **yetishib chiqdi.** Ular

tomonidan **yaratilgan** roman, qissa, hikoyalar, dramatik asarlar o‘zbek adabiyotining oltin fondi **hisoblanadi**.



Bilib oling!

Fe’llar gapda kesim vazifasini bajaruvchi so‘zlardir. Fe’lning kesim vazifasini bajarib keluvchi shakli **sof fe’l** shakli hisoblanadi. Fe’llarning boshqa vazifalarni bajarishga xoslangan shakllari ham mavjud bo‘lib, ular **vazifaviy shakllar** deyiladi. Fe’lning vazifaviy shakllariga **harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh** shakllari kiradi.

Sof fe’l shakli	Harakat nomi	Sifatdosh	Ravishdosh
o‘qidi, yozadi	*o‘qish, yozuv*	*o‘qigan, yozar*	*o‘qib, yozgach*

2- mashq. 1-mashqda ajratib ko‘rsatilgan fe’llarni sof fe’l shakli va vazifaviy shakllarga ajratib yozing.

3- mashq. Gaplarni yozing. Sof fe’llar va vazifaviy shakllarni aniqlab, gapda bajarayotgan vazifalariga izoh bering.

O‘n to‘rt yoshida Afg‘oniston va Hindistonni zabt etib, buyuk imperiya barpo etgan Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ memuari o‘sha davr haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi nodir asar hisoblanadi. Ushbu asarda u bosib o‘tgan yo‘llarini, o‘sha davr hayotiga oid tarixiy lavhalarni yoritgan. Shu bilan birga, O‘rta Osiyodagi shahar va qishloqlarga oid geografik ma’lumotlar, turli xalqlarning urf-odatlari, tili, san’ati va adabiyotiga doir ko‘pgina ma’lumotlar aks ettirilgan.

4- mashq. Qavs ichida berilgan fe’l shakllaridan foydalanib, savollarga yozma javob bering.

1. Alisher Navoiy qanday inson bo‘lgan? (bag‘ishlagan, saqlashga harakat qilgan, rivojlantirgan, ko‘targan, homiylik qilgan, yetishtirgan)
2. „Boburnoma“ memuar asarini kim yozgan? (zabt etgan, barpo etgan, bosib o‘tgan)
3. Nima uchun „Boburnoma“ nodir asar hisoblanadi? (bergani, yoritilgani, aks ettirilgani uchun)

2-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

– Qayerdan kelyapsan? Qo‘lingdagi qanday kitob?

– Oybek haqida berilgan topshiriq bo‘yicha kutubxonaga borgan edim. Oybekning „Bolalik“ qissasini ham oldim.

– Kutubxonada yana qanday asarlar bor?

– Oybekning „Navoiy“ romani ham bor ekan. Men qissani o‘qib bo‘lgach, shu romanni olib o‘qimoqchiman.

– Men ham kutubxonadan Oybekning kitoblarini olib o‘qimoqchiman. ...

Siz o‘zbek yozuvchilarining qaysi asarlarini o‘qigansiz?

3-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini tushuntiring.

BOLAGA KITOB BERING!



Osmonlarda yurganlar,
Oltin saroy qurganlar,
„Ne beray?“ – deb turganlar,
Bolaga kitob bering!

Bola oqqush, oq kaptar,
Dunyolardan bexabar.
Yovuzlik topmay xabar,
Bolaga kitob bering!

Ko‘krak kerib yurganlar,
Ko‘rkam saroy qurganlar,
„Ne beray?“ – deb turganlar,
Bolaga kitob bering!

Keskir qilich bo‘lsin u,
Kitobga o‘ch bo‘lsin u,
Yengilmas kuch bo‘lsin u,
Bolaga kitob bering!

Ko‘zlarni ochish kerak,
G‘aflatdan qochish kerak,
Qanot chiqarish kerak,
Bolaga kitob bering!

Xazinayi jahon u,
Kichik Abu Rayhon u,
Sizga qarab hayron u,
Bolaga kitob bering!

Navoiydek bo‘lsin u,
Yoningizga kelsin u,
Baxtli bola bo‘lsin u,
Bolaga kitob bering!

Zulfiya Mo‘minova

Uyga vazifa. Sevib o‘qigan asarlaringizdan birini tanlang va quyidagi ma’lumotnomani to‘ldiring.

Asar va muallifning nomi	Asar g‘oyasi	Ijobiy qahramonlar	Salbiy qahramonlar

2-DARS

4-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Yozuvchilar uyi

Men bu maftunkor bog‘da ko‘p bo‘lganman, gullardan bahra olganman, atirgullarning anvoyi hidlarini simirganman. Chorpoyamisol baland qilib qurilgan ayvon-so‘riga necha marta chiqib o‘tirganman. Kunduzlari bu bog‘ o‘zining rang-barang gullari bilan maftun etsa, kechalari charaqlab turadigan chiroqlar daraxtlarning bargi orasiga ustalik bilan yashirinib, xuddi ertaklardagi yog‘dudek kishini asir qiladi. Oqshomlari harorat ajoyib, huzurbaxsh salqinlik tushadi. Bunday paytlarda hamma narsa haqida o‘y surish, so‘zlashish qanday maroqli!

5-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Ko‘chiring va ajratib ko‘rsatilgan fe’l shakllarining nomini ayting.

1. Kitob **o‘qish** bolalarning eng sevimli mashg‘ulotiga **aylanishi** kerak. 2. Kitob – hayot darsligi, uni nafaqat **o‘qish**, sinchiklab **uqish** ham kerak. 3. Kitob evaziga hech narsa talab qilmay, o‘zidagi barcha narsani beradi. 4. **Ilm olish** va **ijod qilishdan** zavqliroq va foydaliroq narsa yo‘q. 5. Kitob nondek aziz: uni **yirtish**, yerga **tashlash**, yoqish jaholatdir.

Bilib oling!

Fe’lning otga xoslangan shakli **harakat nomi** deb ataladi. Harakat nomi fe’l asosiga ***-sh(-ish), -v(-uv), -moq*** qo‘shimchalarini qo‘shib yasaladi. ***Masalan:*** *o‘**qish**, yo**zish**, bo**ruv**, yarat**moq***. Bunda **a** yoki **i** tovushi bilan tugagan fe’l

asoslariga ***-v*** qo‘shimchasi qo‘shilganda, ***a*** unlisi ***o*** ga, ***i*** unlisi ***u*** ga aylanadi. ***Masalan:*** *qara – qarov, o‘qi – o‘quv.*

Harakat nomi ot kabi egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan birga keladi va gapda otga xos vazifalarni bajaradi. ***Masalan:*** *Olmoqning bermog‘i bor.*

6-mashq. Berilgan fe’llardan sof fe’l va harakat nomi shakllarini yasang va savollar asosida ikki guruhga ajratib yozing. Tovush o‘zgarishlari yuz bergan so‘zlarga izoh bering.

Nima qildi?	Nima qilish?
sanadi	*sanash*

O‘yla, qara, ijod qil, yarat, yoz, sot, chiq, chaq, sayla, o‘qi.

7-mashq. Nuqtalar o‘rniga ***-sh(-ish), -moq*** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Harakat nomi shakliga so‘roq bering va gapdagi vazifasini ayting.

1. Chiroyli yoz... san’at asari kabi qadrlanadi. 2. Chiroyli yoz....ni o‘rgan. 3. Aytmagan joyga bor... yo‘q, aytgan joydan qol... yo‘q. 4. Bilim takrorla... orqali mustahkamlanadi. 5. Biror xalqning axloqini bil... ni istasang, uning adabiyoti bilan tanish. 6. Borish-kel... qilmaysiz, kimdan qoldi ko‘nglingiz. 7. Ko‘p gapir... obro‘ni ketkazadi, eshit... ulug‘laydi. 8. Qisqa tanish...dan so‘ng maqsadga o‘tildi. 9. Vatanni sev... iymondandir.

5-topshiriq. O‘zingizni tekshiring. Berilgan asarlar o‘zbek adiblarining qaysi biri tomonidan yozilganligini toping?

1.	„O‘tkan kunlar“	A.	O‘tkir Hoshimov
2.	„Navoiy“	B.	O‘lmas Umarbekov
3.	„Ikki eshik orasi“	C.	Tohir Malik
4.	„Odam bo‘lish qiyin“	D.	Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek
5.	„Shaytanat“	E.	Pirimqul Qodirov
6.	„Yulduzli tunlar“	F.	Abdulla Qodiriy

Adabiy o‘qish

Abdulla Qahhor



Abdulla Qahhorning ish kunlari ertalab soat 8 dan boshlanardi. Nonushtadan so‘ng soat 12 gacha ishlar, bu vaqt ichida hech kim ularni bezovta qilmas edi.

Bir yarim-ikki sahifa ijod qilish uchun 4–5 soat o‘tirar, biror so‘zni o‘zgartirish kerak bo‘lsa, o‘sha sahifani yana qayta ko‘chirib chiqar edilar. Ikkita yon daftar tutar, biriga ayrim so‘zlar, iboralar, tasvirlar, turli-tuman voqea-hodisalarni, ikkinchisiga adabiyot haqidagi o‘ylarni yozardilar. Yangi asar boshlanganda shundan foydalanar edilar.

Abdulla Qahhor adabiyotning chinakam jonkuyari, yosh qalamkashlarning haqiqiy murabbiysi edi. Biron yozuvchi ularning nazaridan chetda qolmas, nima chop etilsa, darhol o‘qib chiqar, fikr-mulohazalarini muallifga yozib yuborar edilar. Qahhor yoshlar bilan o‘zi o‘rtasida to‘siq qo‘ymasdi, ular bilan suhbatlashganda o‘zi ham yasharib ketardi. Yoshlar bilan aloqasi mustahkam edi, ularni umumiy maqsad – yaxshi ijod qilish maqsadi bog‘lab turar edi.

(Kibriyo Qahhorova. „Chorak asr hamnafas“ kitobidan)

Siz ham kundalik tutasizmi? Unga nimalarni yozib borasiz?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Abdulla Qahhorning ish uslubidagi o‘ziga xoslik nimadan iborat?
2. „Yozuvchilar uyi“ matnidagi fe’llarni sof fe’l va vazifaviy fe’l shakllariga ajratib yozing, farqli jihatlarini ayting.
3. O‘zbek yozuvchilarining qaysi asarlarini o‘qiganingiz yoki o‘qimoqchiligingizni ayting.

Uyga vazifa. Sevgan asaringizdan olgan taassurotlaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Asar va muallifning nomi	Ijobiy qahramonlardan nimalarni o‘rgandingiz?	Salbiy qahramonlardan qanday saboqlar oldingiz?
...	...	...

VII MAVZU: MEN SEVGAN ASAR

(Ravishdosh, uning yasalishi va imlosi)

1-DARS





1-topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Intilganga tole yor

Aziz bolajonlar! Siz kattalarga, atrofdagilarga ergashib, ularga taqlid qilib ulg‘aymoqdasiz. Kasb tanlashda ham, biror fanga mehr qo‘yishingizda ham sevgan ustozlaringizning o‘rni bor. Ota-onalaringiz, hurmatga sazovor insonlar sizga namuna bo‘lishadi. Bulardan tashqari siz o‘qiydigan kitoblar, sevib tomosha qiladigan filmlar, bolaligingizda buvilaringiz, onalaringizdan eshitgan ertak qahramonlari ham sizga katta ta’sir qiladi. Salbiy qahramonlardan nafratlanasiz, ijobiy qahramonlarga esa, hatto yordam bergingiz keladi. Hayotda ijobiy qahramonlardek kuchli, mard, jasur, go‘zal va aqlli bo‘lishga intilasiz. Shuni bilingki, kimga yoki nimagadir qattiq havas qilgan inson unga, albatta, erishadi. „Intilganga tole yor“, deb bejiz aytilmaydi. Ko‘p kitob o‘qisangiz, fikringiz tiniqlashadi, dunyoqarashingiz kengayadi. Kam o‘qisangiz, bilimlarni chuqur egallamasangiz, mening qahramonim Hoshimjondek bir kun afsus qilasiz. Barcha bilimlarning kaliti kitobda. Buni sira unutmang.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Savollar:

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev haqida nimalarni bilasiz?
2. Adib asar qahramonlari haqida qanday fikr bildiradi?
3. O‘zingiz yoqtirgan ijobiy qahramonlarga o‘xshash uchun nimalar qilish kerak?
4. Hoshimjon qaysi asar qahramoni? Siz bu asarni o‘qiganmisiz?

Bilib oling!

Ravishdosh fe’lning ravishga xoslangan shakli bo‘lib, fe’l asosiga ***-b(-ib), -a(-y), -gach(-kach, -qach), -guncha(-kuncha, -quncha), -gani(-kani, -qani)*** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi. Ravishdoshlar gapda ravish kabi harakat-holatning belgisini bildirib kelib, ***qay tarzda?, qanday qilib?, qachon?, nima maqsadda?*** kabi so‘roqlarga javob beradi. ***Masalan: shoshilib*** *keldi,* ***kula-kula*** *so‘zladi,* ***kelguncha*** *kutdik,* ***ko‘rgani*** *bordik.*

Ravish Qay tarzda?	Ravishdosh Qay tarzda?	Sof fe’l Nima qildi?
astoydil *sekin* *tez*	*ilhomlan**ib*** *shoshil**ib*** *qiziq**ib***	*o‘qidi* *yozdi* *keldi*

1-mashq. Berilgan fe’llarni namunadagi kabi guruhlarga ajrating. Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalarning tagiga chizib ko‘rsating.

Namuna:	**sof fe’l**	**harakat nomi**	**ravishdosh**
	aytadi	*ketish*	*chizib*

Chizib, ketish, tasvirlash, yurguncha, tergani, kelgach, o‘tirdi, oqarib, yozildi, turgach, ilinmoq, qoralash, siqqancha, ijod qilish, zavqlanib, yugurgancha, so‘zlashdi, gaplashgach, o‘qigani, kelishdi, yura-yura, sig‘may, sanash, to‘plandi, yasaladi.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan ravishdoshlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ravishdoshlar gapda qanday so‘roqqa javob berayotganini ayting.

1. Dars ..., kitob ... kutubxonaga bordik. 2. Men roman va hikoyalarni ... o‘qiyman. 3. Shoir voqealardan ... she’rlar yozadi. 4. Bunyod devni ... yengibdi. 5. Devni ..., soqolidan bir tutamini ... cho‘ntagiga solibdi. 6. Spektakl oxirida tomoshabinlar o‘rinlaridan ... olqishladilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: *olgani, turib, ilhomlanib, tugagach, olib, kurashib, sevib, o‘ldirib.*

2-topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Kitob do‘konida

Alisher rastalardan ildam o‘tib bordi. Bozor chekkasidagi qo‘lyozma kitoblar taxlab qo‘yilgan kichik do‘konchalar uning e’tiborini tortdi. Bu sovuq va nim qorong‘i do‘konchalarda inson aqlining xazinalari o‘yma gulli charm muqovalarga o‘ralgancha taxlanib yotardi. Kitob do‘konlari yonida muqovasoz ustalarning do‘koni joylashgan. Alisher to‘xtab, mashhur muqovasoz ustaning gul solish oldidan charmni tarang qilib tortib, iylashini uzoq tomosha qildi. U eski qo‘lyozmalarning hididan huzurlanar, ketishga sira shoshilmasdi.

L.Bat

Savollar:

1. Matnda kim haqida so‘z boryapti?
2. Hattotlar va muqovasozlar nimalar bilan shug‘ullanishgan?
3. Ilgari kitob muqovalari qanday bo‘lar edi?

Uyga vazifa. „Kitob do‘konida“ matni mazmunidan kelib chiqib, hozirgi kitob do‘konlari, kitoblarning tayyorlanish jarayonlari haqida o‘zaro suhbatlashing.

2-DARS

3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



– Men sarguzasht asarlarni o‘qishni yaxshi ko‘raman, ayniqsa, „Kapitan Grant bolalari“, „O‘n to‘rt yoshli kapitan“ asarlarini qayta-qayta qiziqib o‘qiyman.

– Men esa badiiy asarlarni, ayniqsa, taniqli o‘zbek adibi Abdulla Qodiriyning romanlarini juda sevib o‘qiyman. Men roman qahramonlari Otabek va Kumushdek aqlli, farosatli, vafoli inson bo‘lishga intilaman.
– To‘g‘risini aytsam, men ko‘p kitob o‘qimaganman. Biroq yaqinda yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyevning „Sariq devni minib“ qissasini o‘qib chiqdim. Asar qahramoni Hoshimjonning hech qayerda o‘qimay, sehrli qalpoq yordamida birdan katta bo‘lib qolgani, turli kasblarda ishlab, barcha joylardan bilimi yo‘qligi tufayli ketib qolishga majbur bo‘lgani menga qattiq ta’sir qildi. Bilim olish, buning uchun esa ko‘p kitob o‘qish kerakligini tushundim. ...

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Kitoblar dunyosi

Men do‘stim Anvar bilan kitob o‘qishni yaxshi ko‘ramiz. Yakshanba kuni yangi kitoblar sotib olish uchun „Kitoblar dunyosi“ do‘koniga bordik. Do‘konda turli bo‘limlar bor. Men sarguzasht asarlar bo‘limidan o‘zimga yoqqan kitoblarni tanladim, Anvar arxeologik topilmalar haqidagi kitoblarni xarid qildi. Bu kitoblarni o‘qib chiqqach, bir-birimizga so‘zlab beramiz. Ko‘p kitob o‘qib, yosh kitobxon ko‘rik-tanlovida qatnashmoqchimiz.

Siz ham kitob do‘konlariga tez-tez borib turasizmi?

Bilib oling!

Unli va jarangli tovushlar bilan tugashiga ko‘ra ***g*** tovushi bilan tugagan fe’l asoslariga ***-gach, -guncha, -gancha, -gani*** qo‘shimchalari, ***k*** tovushi bilan tugagan fe’l asoslariga ***-kach, -kuncha, -kancha, -kani*** qo‘shimchalari, ***q*** tovushi bilan tugagan fe’l asoslariga ***-qach, -quncha, -qancha, -qani*** qo‘shimchalari qo‘shiladi.

3-mashq. Berilgan fe’l asoslariga imlo qoidalari asosida ***-gach(-kach, -qach), -guncha(-kuncha, -quncha), -gani(-kani, -qani)*** qo‘shimchalaridan mosini qo‘shib yozing.

yoz | ko‘r | boq | buk | o‘tir | chiq | eg | ek
sig‘ | ayt | tek | tug | sot | pish | sev

5-topshiriq. Guruhlarga bo‘lining va **„KIM KO‘P BILADI?“** o‘yinini tashkil eting. Har bir guruh a’zolari doskaga o‘zlari o‘qigan asar va asar qahramonlari nomlarini yozib chiqishlari kerak.

Uyga vazifa. „Men sevgan asar“ mavzusida matn tuzing.

3-DARS

6-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Kitobni qanday o‘qish kerak?

Har kim har xil asarlarni yaxshi ko‘radi. Kimdir she’riy asarlarni yod olish va o‘qishni, kimdir esa hikoyalar va qissalarni o‘qishni yaxshi ko‘radi. Kimlardir ertaklarni tinglashni sevadi. Nasriy asarlar, odatda, kattaroq hajmda bo‘ladi. Unda tabiat ko‘rinishi, qahramonning ruhiy holati tasviriga keng o‘rin beriladi. Asar g‘oyasi ushbu tasvirlar va qahramonlar o‘rtasidagi dialoglar orqali ochib beriladi. Kitobni to‘liq o‘qimay, faqat dialoglarni o‘qiydigan insonlar asar g‘oyasini to‘liq anglab yetmaydilar.

Kitob o‘qish insonni o‘ylashga, fikrlashga o‘rgatadi, so‘z boyligingizni oshiradi. O‘qiyotganda biz o‘zimizni asar qahramonlaridek sezamiz, ular qilayotgan ishlarni xuddi o‘zimiz qilayotgandek bo‘lamiz.

Bilib oling!

Ravishdoshlarning ***-b(-ib), -a(-y)*** qo‘shimchali shakllari ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari tarkibida yetakchi fe’l vazifasini bajarib keladi. ***Masalan:*** *o‘qiy boshlamoq, o‘qib chiqmoq, o‘qib bo‘lmoq, o‘qib bermoq* kabi. Ushbu qo‘shimchali ravishdoshlarga bo‘lishsizlik qo‘shimchasi ***-may*** shaklida, qolgan shakllariga esa ***-ma*** shaklida qo‘shiladi. ***Masalan:*** *o‘qib – o‘qi**may**, tura – tur**may**.*

4- mashq. Berilgan fe'llardan ***-b(-ib), -a(-y)*** qo'shimchali ravishdosh shakllarini yasang va ko'chiring.

Namuna: ko'rsatmoq - ko'rsatib bermoq, ...

Qo'ymoq, gapirmoq, topmoq, burmoq, kelmoq, tashlamoq.

5- mashq. Avval bo'lishli, so'ngra bo'lishsiz shakldagi ravishdoshlar mavjud gaplarni ko'chiring va ularning ifodalanishini tushuntiring.

1. U kitobni shunchalik berilib o'qidiki, hatto biz kelganimizni sezmay qoldi. 2. Har narsaga aralashmay jimgina yur. 3. U radiodan berilayotgan qo'shiqni ta'sirlanib tinglab borardi. 4. Gapni oxirigacha eshitmay biror xulosa qilma. 5. Ko'rmayin bosdim tikanni, tortadurman zahrini. 6. Tog'am va xolamni ko'rib keldik. 7. Kitoblar orqali hamma yangiliklarni bilib olamiz.



Adabiy o'qish

Qayerdasan, maktabim?

Meni aldab-suldab ko'chaga haydab chiqarishdi, ha, shunday qilishdi. Bo'lmasa, teatrda ish to'lib yotgan edi. Hech bo'lmasa ko'cha eshik oldida turib chipta yirtay desam: „O'shanga ham ma'lumot kerak", deyishdi. Gapni qarang-a! O'qing, o'rganing emish! Nega endi o'qir ekanman? Nega?

To'xtang, nega endi ishim doim orqaga ketaveradi? Agronom bo'ldim – quvildim. Shoir bo'ldim – nomim chiqmadi. Muhandis bo'ldim – arang qochib qutuldim. Nega?

Safarga chiqqanimdan buyon ko'p ajoyibotlarni ko'rdim, ko'p g'aroyibotlarning guvohi bo'ldim. Xursand bo'lgan kunlarim bo'ldi, xafa bo'lgan kunlarim bo'ldi. Ammo hech qachon bugungidek ko'nglim o'ksimagan, bugungidek xo'rligim kelmagan. To'g'ri, oyijonimni sog'inganman, singillarim ko'z o'ngimdan nari ketmay qolishdi, birga o'qigan o'rtoqlarim: malla sochli Ortiqvoy, darsda uxlab o'tiradigan Shokirjon – hamma-hammalarini sog'indim, ko'rgim keladi. Ammo nachora. Men o'qimasdan agronom bo'lmoqchi edim, shuning uchun ham barcha azoblarga, barcha mashaqqatlarga tishimni tishimga qo'yib chidagan edim, maqsadimga erisha olmadim, sharmanda bo'ldim! Nega?

Ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Turtinib-surtinib o‘z uyimga bordimda, boshimni ko‘rpaga burkab, ko‘zlarimda yosh tamom bo‘lguncha yig‘ladim.

– Qalpoqcham, ey, safarlarda hamisha yo‘ldoshim, maslahatgo‘yim, qani, o‘zing ayt-chi, nega men maqsadga erisha olmadim?

– Chunki ilming yo‘q edi, – dedi sehrli qalpoqcham.

– Ilm olish uchun nima qilish kerak edi?

– O‘qishing kerak edi.

– Nima?!

– Ha, ha, o‘qituvching Qobilov, sevimli direktoring Otajon Azizovichlarning gapiga quloq solishing kerak edi.

– Demak, sen meni chalg‘itgan ekansan-da, aldabsan-da!

– Yo‘q, aldamadim, chalg‘itmadim. Fikrlaring xato ekanligini tushunib olgin, deb qo‘limdan kelgancha ko‘maklashdim.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Mavzu bo‘yicha berilgan matnlardan va Hoshimjonning qilgan ishlaridan olgan xulosangizni ayting.
2. Ayting-chi, o‘qimay yoki hunar egallamay biror kasb egasi bo‘lish mumkinmi?
3. Sizning kelajakdagi rejalaringiz qanday? Orzu qilgan kasbingizni egallash uchun nimalar qilishni o‘ylab qo‘ydingizmi?
4. T texnologiyasi asosida quyidagi tahlillarni bajaring:
   1) sof fe’llar va ravishdoshlar o‘rtasidagi farqlarni yozing;
   2) ravish va ravishdoshning o‘xshash va farqli xususiyatlarini yozing.
5. O‘qigan va o‘qimoqchi bo‘lgan kitoblaringiz nomini yozib, berilgan jadvalni to‘ldiring.

O‘qiganman	Endi o‘qimoqchiman
…	…

Uyga vazifa. Kutubxonadan Xudoyberdi To‘xtaboyevning „Sehrli qalpoqcha“ qissasini olib o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

VIII MAVZU: MILLIY HUNARMANDCHILIK

(Sifatdosh, uning yasalishi va imlosi)

1-DARS





1-topshiriq. Guruhlarga bo‘linib, rasmlar asosida kichik matnlar tuzing.

1- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday hunarni anglatishi haqida ma’lumot bering.

Milliy hunarmandchilik

Sharqda milliy hunarmandchilikning **naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, zargarlik, gilamdo‘zlik, chinnisozlik, kulolchilik** kabi turlari keng rivojlangan. Ushbu qadimiy hunarlar bugungi kungacha saqlanib kelyapti. Jahonda Sharq me’morchiligi nihoyatda hashamdorligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ham Sharq me’morchiligi o‘zida qadimiy an’analarni saqlab kelmoqda, lekin ularda zamonaviy unsurlar ham uyg‘unlikda ishlatilmoqda. Mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bilib oling!

Fe’lning sifatga xoslangan shakli **sifatdosh** deyiladi. Sifatdosh fe’l asoslariga ***-gan(-kan, -qan), -yotgan(-ayotgan), -adigan(-ydigan), -r(-ar)*** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi va otga bog‘lanib ***qanday?, qaysi?*** so‘roqlariga javob bo‘ladi. ***Masalan:*** *kelgan mehmon, qurilayotgan bino, chiziladigan rasm, oqar suv.*

Qanday?	Qanday? Qaysi?	Kim (nima)?
yaxshi	*o‘qiydigan*	*bola*
hashamatli	*qurilgan*	*bino*
tiniq	*oqar*	*suv*

2- mashq. Berilgan fe’llardan sifatdoshlar yasang, so‘ngra ular ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuzing.

Masalan: *Nima qiladi?* *Binokor uy* ***quradi.*** | *Qanday?* ***qurilayotgan*** *uy*

Qurmoq, tikmoq, yasamoq, chizmoq, oqmoq, o‘rganmoq, ta’mirlamoq.

3- mashq. Nuqtalar o‘rniga ***-gan(-kan, -qan)*** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. G‘ir-g‘ir es... shabada kishiga xush yoqadi. 2. Osmonda to‘lishib chiq... oy nurlari kumushdek jilvalanadi. 3. Barvaqt yo‘lga chiq... sayohatchilar manzilga yetib keldilar. 4. O‘qi... inson kam bo‘lmaydi, hunar egalla... inson xor bo‘lmaydi. 5. Daraxt shoxlarini buk... yoki sindir... bolalar qattiq jazolanadi. 6. Daraxt ek..., uni parvarishla... inson ko‘pchilikning duosini oladi.

4- mashq. Matnni o‘qing. Sifatdoshlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Zargarlik san’ati



O‘zbekistonda zargarlik san’ati qadimiy an’analarga ega. Zargar ustalar asrlar mobaynida noyob taqinchoqlarni yasab, barchaning e’tiborini qozonganlar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zargarlik buyumlarini ishlab chiqaradigan fabrikalar yuzaga kela boshladi. Bu esa zargarlik buyumlarini bir xil qolipga solib qo‘yishga olib keldi. Keyingi yillarda zargarlik buyumlarining yo‘qolib borayotgan eski shakllari, milliy madaniy an’analar tiklana boshlandi. Adras, atlas, beqasam kabi matolarimizdan tikilayotgan milliy liboslarga mos

tillaqosh, bilaguzuk, zebigardon kabi qadimiy sharqona taqinchoqlar zamonaviy dizaynlar bilan uyg‘unlashtirilib qo‘llana boshlandi. Bugungi kunda zargarlik kasb-hunar kollejlarida tahsil olgan va zargarlik hunarini o‘rgangan yosh ustalarning safi kengayib bormoqda.

(„Ensiklopedik ma’lumotnoma“dan)

2-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing. Zargarlik buyumlarining nomlarini yozib oling va ular haqida ma’lumot bering.

ZARGARLAR GUZARI

Biz yasagan tillaqosh
Taqsa biror qalamqosh,
Husniga qo‘shib chiroy,
Nur taratar go‘yo oy.
Raqqosalar o‘yinda
Zebigardon bo‘ynida,
Kuy ohangi sirg‘alar,
Yalt-yult qilar sirg‘alar.

Kelinchaklar uzugi
Ko‘zsizi-yu ko‘zligi,
Turli-tuman taqinchoq,
Bilaguzuk, zarmunchoq
Bilan to‘lar rastamiz,
Kelib tanlang asta siz.
Sizdangina yoqtirish,
Bizdangina taqtirish.

Kavsar Turdiyeva

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

2-DARS



3-topshiriq. Rasmlarni qiyoslang, qadimiy va zamonaviy me'morchilik obidalarida qo'llangan usullar haqida suhbatlashing.

5-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan sifatdoshlarni o'zi bog'lanib kelayotgan so'z bilan ko'chiring.

Me'morchilik

O'zbekistonda 40 asrdan ko'proq vaqt davomida **yaratilgan** me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi YUNESKO ro'yxatiga **kiritilgan** ushbu me'moriy obidalarni ko'rgani har yili minglab sayyohlar keladilar. Mazkur binolarni qurishda mahobatli gumbazlar, naqshlar va o'ymakorlik san'ati betakror me'morchilik usullaridan foydalanilgan. Asrlar mobaynida rangini **yo'qotmay kelayotgan** bo'yoqlarning sirlari haligacha to'liq kashf etilmagan.

Bilib oling!

Sifatdoshlar fe'llar kabi 3 zamon shakliga ega: ***-gan (-kan, -qan)*** qo'shimchasi o'tgan zamonni, ***-yotgan(-ayotgan)*** qo'shimchasi hozirgi zamonni, ***-adigan(-ydigan), -r(-ar)*** qo'shimchali shakllari kelasi zamonni bildirib keladi. ***Masalan:*** *borgan joy, kelayotgan mehmon, oqar suv, o'qiydigan bola.*

O'tgan zamon sifatdoshlari	Hozirgi zamon sifatdoshlari	Kelasi zamon sifatdoshlari
…	…	…

6-mashq. Berilgan fe'l asoslaridan o'tgan, hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlarini yasang, qo'shimchalarning qo'shilishiga e'tibor qiling.

Ayt ek chiq ket eg o't qo'rq buk
yig' eshit kechik uq ko'nik yoq

7-mashq. Sifatdoshlarni toping va zamonini aniqlang.

Insonni inson qilgan narsa uning tilidir, ko'klarga chiqaradigan narsa esa bilimi va hunaridir. Ilm va hunar insonni izzat va sharafga

yetkazadigan vositadir. Ilm va hunarni chuqur egallagan inson bitmas-tuganmas boylikka ega. Ilm va hunar qorong‘i uyni yoritadigan nurdek insonning kelajagini ham yoritib turadi.

4-topshiriq. Matnni o‘qing va mavzu yuzasidan suhbatlashing.

Yog‘och o‘ymakorligi

Xalq amaliy san’ati turlaridan biri yog‘och o‘ymakorligidir. Qadimiy binolardagi ustunlar, eshiklar, ko‘p qirrali xontaxtalar, kitob o‘qish uchun maxsus moslamalar yog‘och o‘ymakorligining nodir namunalaridir. Hozirgi kunda san’atning bu turida 3 ta yo‘nalish mavjud bo‘lib, bular Toshkent, Xiva va Qo‘qon maktablaridir. Toshkent o‘ymakorligi nozik, nafisligi, mayda naqshlardan iborat bo‘lishi bilan farqlansa, Qo‘qon maktabi yirik-yirik, mahobatliligi bilan, Xiva maktabi esa o‘ynoqi, sho‘xchanligi bilan bir-biridan farq qiladi.

O‘zbek milliy hunarmandchiligining bu turi hozirgi kunda mohir ustalar tomonidan yoshlarga o‘rgatilmoqda. Bolalar ijodiyoti uylaridagi to‘garaklarda yog‘och o‘ymakorligining nozik sirlari o‘rgatilmoqda. Muzey, teatr, sharqona uslubda qurilayotgan choyxonalar yog‘och o‘ymakorligining nodir namunalari asosida bezatilmoqda.

Uyga vazifa. Maqollarni o‘qing, mazmunini yozing.

1. Aql ko‘pga yetkazar, hunar ko‘kka yetkazar.
2. Yoshlikda hunar olgin, qarigach, ishga solgin.

3-DARS





8- mashq. Matnni o‘qing. Milliy hunarmandchilikka oid so‘zlarni aniqlang va ko‘chiring.

Hunarmandlar rastalari

Toshkentning „Chorsu“ bozorida hunarmandlar rastasi bor. U beshikchilar rastasidan boshlangan. Beshikchilik qadimdan juda rivojlangan. Beshikchilar rastasidan so‘ng zargarlar rastasi boshlanadi. Bu yerdan turli-tuman zeb-u ziynatlarni: zirak, uzuk, tillaqosh va bilaguzuklarni xarid qilish mumkin. Zargarlik do‘konlaridan so‘ng miskarlik va temirchilik rastalari boshlanadi. Bu yerda ketmon, belkurak, tesha, o‘roq, pichoq, chovli, hokandoz kabi turli uy-ro‘zg‘or anjomlari yasaladi va sotiladi. Bozorning markaziy qismida esa o‘zbek milliy choponlari, zardo‘zlik buyumlari sotiladi. Bu san’at durdonalarini chet ellik mehmonlar zo‘r qiziqish bilan tomosha qilishib, yoqtirib qolgan taqinchoqlarini xarid qilishadi.

5- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va do‘stingiz bilan suhbatlashing.



– Sen hunarmandchilik rastalarini ko‘rganmisan?
– Ha, beshik do‘koniga oyim bilan birga borgan edim.
– Bilasanmi, ushbu do‘konlarda juda kamyob narsalar sotiladi.
– Meni esa boshqa narsa hayron qoldirdi. Sotuvchilar aslida ustalar ekan. Ular yonida o‘g‘illari ham birga ishlar ekan.
– Ha, mening sinfdoshim ham maktabdan bo‘sh vaqtlarida dadasi, akasining yonida ustachilik qiladi. Katta bo‘lsam, hunarmand usta bo‘laman, deydi.
– Do‘sting, vaqtini bo‘sh o‘tkazmas ekan.

6- topshiriq. **„BLIS-SO‘ROVNOMA“**ni to‘ldiring. Berilgan so‘zlar qaysi buyumlar turiga kirishini **„+“** ishorasi bilan belgilang.

	pichoq	tillaqosh	ketmon	uzuk	zirak	belkurak
Uy-ro‘zg‘or anjomlari	+					
Zargarlik buyumlari		+				

Bilib oling!

-r(-ar) qo‘shimchali sifatdoshlarga bo‘lishsizlik qo‘shimchasi ***-mas*** shaklida, qolgan barcha sifatdosh shakllariga ***-ma*** shaklida qo‘shilib keladi. *Masalan: boq**ar** – boq**mas**, ayt**gan** – aytma**gan**, o‘rgana**yotgan** – o‘rgan**ma**yotgan, bila**digan** – bil**may**digan.*

9- mashq. Qavs ichida berilgan fe’llardan avval bo‘lishli, so‘ng bo‘lishsiz shakldagi sifatdoshlar hosil qiling. So‘ng ushbu so‘z birikmalarini qatnashtirib 6 ta gap tuzing.

(O‘qi) kitob, (oq) suv, (kel) odamlar, (ayt) so‘z, (bajar) topshiriq, (kel) mehmon.

Adabiy o‘qish

BILIM OL, HUNAR TANLA!

Vataning kutar seni,
O‘g‘lim, yaxshi bilib qo‘y!
Baxt yo‘liga boshlovchi
Kitobingga mehr qo‘y.
Chiq bilim cho‘qqisiga,
Sinchiklab atrofga boq.
Kel, der daryo, tik tog‘lar,
Xazinam ol, ey o‘rtoq!

Muntazirlar yo‘lingga,
Ko‘z tikib, erta-yu kech.
Quyosh chiqar, oy chiqar,
Go‘yo der: nurimiz ich.
Kel, ey, bilimdon, mard
Bizni tezroq egalla!
Deb turgandek hamma yoq,
Bilim ol, hunar tanla!

Quddus Muhammadiy

Topshiriq: She’rning mazmunini gapirib bering.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviylik va milliylik uyg‘unlashgan qaysi binolarni bilasiz?
2. O‘zingizga yoqqan milliy hunarmandchilik turi haqida so‘zlang.
3. Tengdoshlaringizning milliy hunarmandchilik sohasidagi yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?

Uyga vazifa. „Men yoqtirgan hunar“ mavzusida ijodiy matn tuzing.

IX MAVZU: HUNARMAND MAKTABI

(Sifatdoshlarning ot o‘rnida qo‘llanishi)

1-DARS





1-topshiriq. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.

– Siz „Bolalar ijodiyoti“ uyida bo‘lganmisiz?
– Maktabingizda qanday to‘garaklar bor?
– Do‘stlaringiz qaysi to‘garaklarga qatnashadilar?

2-topshiriq. Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering.

Amaliy san’at maktablari

Antik davrda rangtasvir va amaliy san’atning barcha turlari rivojlangan. O‘zbekistonning janubidan **topilgan haykallarda** Gandhara haykaltaroshlik maktabining ta’siri sezilib turadi. Jumladan, Ayritom piramonida **tasvirlangan sozandalar, sovg‘a-salom ko‘tarib ketayotgan ayollar,** kushoniylar kiyimini kiygan va shohga sovg‘a **taqdim qilayotgan mehmonlar** tasvirlangan. XIV–XVI asrlar tasviriy san’atda Uyg‘onish davri bo‘lib, manzara tasvirlari Samarqanddagi ayrim maqbaralarda saqlanib qolgan. Amir Temurning rangli rasmlar bilan **bezatilgan saroylarida** hukmdor, temuriy malikalar va sohibqiron safdoshlarining ramziy suratlari tasvirlangan. XVI–XVII asrlarda O‘rta Osiyo miniatyura maktablari yuqori darajada rivojlangan. Xususan, Hirot, Samarqand va ayniqsa, Buxoroda kitobat va muqovasozlik

san'atida katta yutuqlarga erishilgan. Uslubiy jihatdan Hirot maktabiga yaqin turgan Samarqand rangtasvir maktabiga mansub asarlar orasida 1437-yilda yaratilgan Sufiy risolasi qo'lyozmasiga **ishlangan rasmlar,** Ulug'bek siymosi **tasvirlangan miniatyura,** Nizomiyning „Xamsa" asariga **ishlangan miniatyuralar** bor. Ushbu nodir qo'lyozma asarlar Parij, Vashington, Istanbul kutubxonalarida saqlanadi.

(*„Ensiklopedik ma'lumotnoma"dan)*

Savollar:

1. O'zbekistonda antik davrga xos qanday nodir yodgorliklar topilgan?
2. XIV–XVI asrlar tasviriy san'atda qanday davr hisoblanadi?
3. O'rta Osiyoda kitobat va muqovasozlik san'atida qanday maktablar mavjud bo'lgan?
4. „Hunarmandlar maktabi" deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. 2-topshiriqda ajratib ko'rsatilgan sifatdoshlarning ifodalanishi va gapdagi vazifasini ko'rsatib yozing.

Bilib oling!

Sifatdoshlar sifatlar kabi ot o'rnida qo'llanish xususiyatiga ham ega. Gapda sifatdosh bog'langan ot tushib qolganda, sifatdosh uning so'roqlariga javob berib, gapdagi vazifasini bajarib keladi. ***Masalan:*** *Ko'p o'qigan (kim?, ega) ko'p narsani biladi.*

2-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatdoshlarni aniqlang, qanday so'roqqa javob berayotganini ayting.

1. Biz yashayotgan o'lka ikki daryo oralig'ida joylashgan 2. Bu go'zallikni ko'rmaganlar armonda qoladi. 3. Musobaqada ishtirok etayotgan o'quvchilar sport zaliga to'planishdi. 4. Aytganing kumush, aytmaganing oltin deydilar. 5. Har kim o'zi tug'ilgan yurtni jonidan ortiq ko'radi. 6. Otini ayagan yo'lda qolmas, elini siylagan – cho'lda. 7. Barvaqt qilingan harakat – hosilga berar barakat. 8. Qidirgan – topadi, intilgan – erishadi. 9. Erta ekkan – erta o'rar.

3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



– Naqqoshlik san’ati va ustachilik haqida gapirib bersangiz.

– Naqqoshlik avloddan avlodga o‘tib kelayotgan hunarlardan biridir. Naqqoshlar saroy, uylarni bezab bo‘lgach, tugatgan ishining bir chetiga o‘z ismlarini yozib qoldirganlar. Ana shundan bu kimning ishi ekanini bilib olishgan va ustaning ishiga baho berishgan.

– Mashhur ustalar hamisha hunarlarini o‘z shogirdlariga o‘rgatishgan. Ayting-chi, ustoz, yoshlarning bu san’atga bo‘lgan e’tibori qanday?

– Keyingi vaqtda yoshlar orasida naqqoshlik san’atiga qiziquvchilar ko‘payib boryapti. Ko‘p maktablarda naqqoshlik to‘garaklari tashkil etilgan. ...

4-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Naqqoshlik va tasviriy san’at

Qadimiy Sharqda binolarni turli naqshlar bilan bezash juda keng tarqalgan. O‘sha davrlarda ustunlar, eshiklar va boshqa yog‘och buyumlarga o‘yib naqsh solish rasm bo‘lgan. Bunday naqshlar devorlarga, idish-tovoqlarga ham tushira boshlangan. Naqqoshlik, o‘ymakorlik va tasviriy san’at Sharqda binokorlik bilan baravar rivojlandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda saqlanib qolgan barcha me’morchilik obidalari bundan dalolat beradi. Naqsh san’ati zardo‘zlik kasbiga ham kirib bordi. Sharq me’morchiligining durdonalari bo‘lgan Ulug‘bek madrasasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Sherdor, Tillakori madrasalari, Bibixonim masjidi, Ko‘kaldosh madrasasi, Xiva shahridagi betakror obidalar naqsh va o‘ymakorlik san’ati bilan hozirgi kungacha butun jahon ahlini hayratga solib kelmoqda. Buxoro zardo‘zlarining do‘ppilari, turli kiyim-kechaklar, palaklarida, Xiva gilamlarida qadimiy naqsh san’ati hozirgacha saqlanib qolgan.

(„Ensiklopedik ma’lumotnoma“dan)

Uyga vazifa. Maktabingizdagi to‘garaklarning faoliyati haqida ma’lumot bering.

2-DARS



3- mashq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Sifatdoshlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing.

Ustoz va shogird maktabi

Sharqda ustoz-shogirdlik an’anasi keng tarqalgan. Biror amaliy san’at turini yoki hunarni yaxshi o‘zlashtirib olgan inson „usta“ deb ataladi. Ustozlar o‘z bilimlari va hunarlarini shogirdlariga o‘rgatadilar. Iqtidorli shogirdlar ushbu san’atning barcha sirlarini to‘liq o‘rganib, o‘z ustalari bilan birga yurib, ustalariga har tomonlama to‘liq o‘xshashga harakat qiladilar. Bu an’ana necha asrlardan beri davom etib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Ana shunday shogirdlardan biri usta Xirojiddin Muhiddinov edi. Yoshligidan cholg‘u asboblar yasashga qiziqqan Xirojiddin usta Usmon Zufarovga shogirdlikka tushib, ulardan milliy cholg‘u asboblarini yasash sirlarini o‘rgandi va mashhur usta bo‘lib yetishdi. Hozirgi kunda usta Xirojiddin yasagan dutor, tanbur, tor kabi cholg‘u asboblari respublikamizning barcha viloyatlariga tarqalgan. San’atkorlar usta Xirojiddinni „Benazir usta edi“, deb yodga oladilar. Bunday insonlar o‘zlari yaratgan o‘lmas asarlari bilan mangu barhayotdirlar.

Bilib oling!

Sifatdoshlar otlashib qo‘llanganda egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalarini olib keladi va otga xos barcha vazifalarni bajaradi. ***Masalan:*** *U do‘stiga bilganlarini so‘zlab berdi.* Sifatdoshlarning otlashgan shakli, ayniqsa, maqollarda ko‘p qo‘llanadi.

4-mashq. Maqollar va hikmatlarni o‘qing. Namuna asosida otlashgan sifatdoshlarni otlashmagan shaklda yozing va gapdagi vazifalarini ayting.

Namuna: 1. Qo‘rqqanga (to‘ldiruvchi) qo‘sha ko‘rinar. – Qo‘rqqan (aniqlovchi) odamga qo‘shaloq ko‘rinar.

1. Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar. 2. Ikki kemaning boshini ushlagan suvga g‘arq bo‘lar. 3. O‘qigan o‘zar, o‘qimagan to‘zar 4. Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim. 5. Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga. 6. Aytganing – kumush, aytmaganing – oltin. 7. Ko‘rganni eshitgan yengibdi.

5-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.



– Dugonajon, qayerdan kelyapsan?
– „Mashhura“ maktabidan. Tikish-bichishni o‘rganmoqchiman.
– Bu qanday maktab ekan?
– Hozir „Mashhura“ o‘quv maktablari hamma yerda bor. Qisqa vaqt ichida ko‘ylaklarni bichish, tikish, kashta tikishga o‘rgatishyapti. Buvijonim: „Qizlar, albatta, tikish-bichishni bilishlari kerak“, – deb shu maktabga yubordilar. Darslar kechki payt bo‘ladi, o‘qishimga xalal bermas ekan.
– Eshitmagan ekanman. Men ham borsam olisharmikin? Liboslarga bezak berishga juda qiziqaman.
– Albatta, olishadi. Avval tikishni o‘rganib olay, keyin men ham dizaynerlikni o‘rganmoqchiman.

6-topshiriq. Publitsistik maqolani o‘qing va berilgan savollar asosida suhbatlashing.

Xalq ustalariga e’tibor

O‘zbekistonda qadimiy hunarmandchilik an’analari asrlar davomida taraqqiy etib kelmoqda. Xalq ustalari tomonidan ishlangan me’moriy obidalar, hunarmandchilik buyumlari shakli va naqshlarining mukammalligi bilan hamon dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda.

Istiqlol yillarida xalq ustalariga katta e’tibor berila boshlandi. Moddiy meroslar va qadimiy an’analarni asrab-avaylash, hunarmandlarga yordam ko‘rsatish yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Qator xalq ustalari O‘zbekiston Badiiy akademiyasi a’zolari etib saylandi, „O‘zbekiston xalq ustasi“ unvoni ta’sis etildi. „Hunarmand“ xalq ustalari uyushmasi tashkil etildi. Zargar Fasihiddin Dadamuhamedov, ganchkor usta Mahmud Usmonovlar birinchilardan bo‘lib mazkur unvonga sazovor bo‘lgan hunarmandlardandir.

Siz shunday ustalardan yana kimlarni bilasiz? Xalq ustalarining nomlari bilan ataladigan ko‘chalarning nomlarini ayting.

7-topshiriq. Maqollarning davomini ikkinchi ustundan topib yozing. Otlashgan sifatdoshlarni aniqlang.

Ustoz ko‘rmagan shogird	ishlamagan qaqshatar.
To‘dadan ajralgan	ilmsiz bir yashar.
Bilgan bilganin ishlar,	to‘rga tushar.
Ishlagan yerni yashnatar,	har maqomga yo‘rg‘alar.
Ilmli ming yashar,	bilmagan barmog‘in tishlar.



Adabiy o‘qish

Keksa kulol va shogird

(Rivoyat)

Bir kuni keksa bir kishi o‘z o‘g‘lini kulolning uyiga boshlab kelib:

– Shu o‘g‘limga hunaringizni o‘rgatsangiz, – deb iltimos qilibdi. Kulol rozi bo‘libdi. Shogird kulolnikida tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o‘choqqa o‘t qalabdi, xullas, ustozning barcha aytganlarini to‘liq bajaribdi. Ular yasagan idish-tovoqlar xaridorlarga manzur bo‘lib,

tez sotila boshlabdi. Oradan bir-ikki yil o‘tgach, shogird „Kulolchilikni miridan sirigacha o‘rganib oldim, endi yugurdak bo‘lib yuramanmi“, deb o‘ylabdi-da, ustozidan ketishga ruxsat so‘rabdi. Kulol unga:

– O‘g‘lim, sabr-toqat qilib, puxta o‘rganib olganing yaxshi edi, – debdi. Biroq shogird o‘z aytganida turib olibdi va ustozidan rozilik olib, o‘zi alohida ish boshlabdi. Katta bozorga borib do‘kon ochibdi va yasagan idishlarini sota boshlabdi. Xaridorlar u yasagan choynak, piyola, ko‘zachalarni tezda talashib sotib olishibdi. Buni eshitgan keksa kulol:

– Oxiri baxayr bo‘lsin! – deb, o‘z ishini davom ettiraveribdi. Biroq sal o‘tmay, shogirdining ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini hech kim xarid qilmay qo‘yibdi. Chunki u yasagan lagan-tovoqlarning sirlari xiralashib, ko‘chib ketayotgan ekan. Ustozining do‘konida esa xaridorlar avvalgidan ham ko‘payib, savdo yanada yaxshilanib ketaveribdi. Oxiri shogird ming pushaymonlik bilan ustozi oldiga qaytib kelib, uni kechirishini va yana yonida ishlashga ruxsat berishini so‘rabdi. Shogird endi kulolchilikni mukammal egallashga astoydil bel bog‘labdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ayting-chi, nima uchun shogirdning ishi yurishmadi?
2. Nima uchun hunar o‘rganayotganda sabr-toqatli bo‘lish kerak?
3. Matndan fe’lning vazifaviy shakllarini toping va quyidagi jadvalga joylashtiring, bajaradigan vazifalarini tushuntiring.

Sof fe’llar	Harakat nomi	Ravishdosh	Sifatdosh

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O‘rta Osiyodagi hunarmandchilik maktablari va ularning uslublari haqida ma’lumot bering.
2. „Ustoz-shogird“ yo‘nalishida hunar egallash haqida nimalarni bilasiz?
3. Sifatdoshlarning gapda bajaradigan vazifalari haqida aytib bering.
4. **„KLASTER“** usulidan foydalanib, Samarqand, Buxoro va Xivadagi me’morchilik yodgorliklarining nomlarini yozing.

Uyga vazifa. „Keksa kulol va shogird“ rivoyatining mazmunini so‘zlab bering.

X MAVZU: DO‘STLIK QUDRATI

(Bog‘lovchilar, ularning turlari va qo‘llanishi)

1- DARS



1-topshiriq. Rasm va berilgan savollar asosida suhbatlashing.

1. Rasmda qaysi millat vakillari tasvirlangan?
2. Haqiqiy do‘stlik qanday bo‘ladi?
3. „Kiyimning yangisi, do‘stning eskisi yaxshi“ maqolining ma’nosini tushuntiring.
4. Insonning hayotida do‘stlarning, do‘stlikning o‘rni qanday?

2-topshiriq. Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering.

Do‘stlik haqida

Hech bir inson do‘st **va** o‘rtoqlarsiz yashay olmaydi. Qiziqishi, intilishi, didi sizniki bilan bir xil bo‘lgan insonlar do‘st hisoblanadi. Do‘st **va** o‘rtoqlaringiz ko‘p bo‘lgani yaxshi. Do‘stlar bilan birga bo‘lganingizda o‘zingizni dadil tutasiz, **chunki** birgalikda barcha qiyin ishlarni amalga oshirasiz. Inson do‘sti uchun hech narsani ayamaydi, do‘stdan hech qanday sir tutilmaydi. Agar sizning shunday do‘stingiz bo‘lsa, uni qadrlang. Unga yordam kerak bo‘lsa, har doim tayyor turing. Sodiqlik – do‘stlikning oliy qonuni.

(„Bolalar ensiklopediyasi“dan)

Bilib oling!

So‘z, so‘z birikmalari va gaplarni teng va tobe munosabatda bog‘lashga xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlar **bog‘lovchilar** deyiladi. Shunga ko‘ra ular teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi. ***Masalan:*** *Roziya* ***va*** *Zebo – qalin do‘st. Ular bir sinfda o‘qishadi,* ***shuning uchun*** *maktabga birga borishadi.*

1-mashq. Gaplarni o‘qing va bog‘lovchilarni ko‘rsating.

1. Bu topshiriqni Gulnora yoki Azizga yuklash mumkin. 2. Bu kitoblardan faqat bittasini olishingiz mumkin: yo bunisini, yoki unisini. 3. Bahor havosiga ishonib bo‘lmaydi: goh yomg‘ir yog‘adi, goh charaqlab quyosh chiqadi. 4. Bahodir va Sardor maktabga birga kelib, birga ketishadi. 5. Og‘alarim – Vatan posboni, shuning uchun tinchdir osmonim. 6. Hayotda nimalarnidir yo‘qotdim, ammo topganlarim undan ko‘p bo‘ldi.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga **va, biroq, yo, yoki, na, shuning uchun** bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib yozing. Qo‘llanilishini tushuntiring.

1. Imtihonlar vaqti yaqinlashdi, ... biz tayyorgarlikni kuchaytirdik. 2. Qor yog‘di, ... unchalik sovuq bo‘lmadi. 3. Darsdan keyin ... to‘garakka boradi, ... kutubxonaga boradi. 4. Bu gaplardan ... mening, ... do‘stlarimning xabarlari yo‘q. 5. Inson do‘st ... o‘rtoqlarsiz yashay olmaydi. 6. Shoir el-ulus ishlaridan qutulgan damlarida bekor o‘tirmas edi: ... o‘qir, ... yozar, ... hattotlikka mashq qilar, ... musiqada yangi kuylar yaratishga urinar edi. 7. Musobaqada sakkizinchi ... yettinchi sinf o‘quvchilari qatnashishdi.

3-topshiriq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

– Qanday insonlarni do‘st deb hisoblash mumkin?

– ... .

– Haqiqiy, chin do‘st deganda kimlarni tushunasiz?

– ... .

– Do‘stlar bir-biriga qanday munosabatda bo‘lishlari kerak?

– … .

– Do‘stingizga nimalarda yordam berasiz?

– … .

– Do‘stingiz sizning kamchiligingizni aytsa, undan xafa bo‘lasizmi?

– … .

4-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

DO‘ST BILAN OBOD UYING

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham.
Do‘st qadam qo‘ymas esa,
Vayronadir koshona ham.

Yaxshi do‘stlar davrasida,
Ochilursan har zamon.
Ko‘rkni shoda ichra topgay,
Marvarid durdona ham.

Do‘st qidir, do‘st top jahonda,
Do‘st yuz ming bo‘lsa oz.
Ko‘p erur bisyor dushman,
Bo‘lsa u bir dona ham.

Do‘sti sodiq yo‘q ekan deb,
O‘rtanib kuyma va lek,
Mehr uyin keng ochsang Erkin,
Do‘st bo‘lur begona ham.

Erkin Vohidov

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

2-DARS

5-topshiriq. Do‘stlik haqida donolarning aytgan fikrlarini o‘qing va ularga munosabatingizni bildiring.

1. Yaxshi do‘st dengiz qoyasiga o‘xshaydi, u har qanday zarbalar yetganda ham mustahkam turaveradi.
2. Sodiq do‘st yetti xazinadan qimmat, uni avaylash kerak.
3. Haqiqiy do‘st dardingga hamdam bo‘lgan kishidir.
4. Sadoqatli do‘stlar ko‘zga o‘xshaydi: ikkalasi baravar kulib, baravar yig‘lashadi.

5. Kibr-havosi baland, faqat o‘zini sevadigan xudbin insonlar yaxshi do‘st bo‘la olmaydi.

Bilib oling!

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar gaplarni bir-biriga tobe munosabatda bog‘laydi va sabab, shart, aniqlov ma’nolarini bildirib keladi. Ulardan oldin doim vergul qo‘yiladi. ***Masalan:*** *Ko‘chada yurish qiyinlashdi,* ***chunki*** *qorong‘i tushib qolgan edi.*

Sabab ma’nosini ifodalaydi	*chunki, shuning uchun, zero*
Shart ma’nosini ifodalaydi	*agar, agarda, garchi*
Aniqlov ma’nosini ifodalaydi	*ya’ni, -ki(-kim)*

3-mashq. Juftlab berilgan sodda gaplarni mos bog‘lovchilar bilan bog‘lab, qo‘shma gaplar tuzing.

1. Qushlar pastlab uchdi. Yomg‘ir yog‘adi.
2. Yo‘llar loy bo‘lib ketdi. Yomg‘ir yog‘di.
3. Qo‘shning tinch. Sen tinch.
4. Qor yog‘di. Havo sovib ketdi.

6-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos bog‘lovchilarni qo‘yib, savollarga mos javoblarni toping. ***Namuna:*** **1–D**

1.	Kimlarni yaxshi do‘st deb hisoblash mumkin?	A.	Har bir gapingizni tasdiqlab turadigan insonlar laganbardor insonlardir, ... ular haqiqiy do‘st bo‘la olmaydilar.
2.	Har kuni yoningizda yuradigan insonni do‘st deyish mumkinmi?	B.	Kamchiligimizni ko‘rsatgan ... to‘g‘ri yo‘lga boshlagan insonlar haqiqiy do‘stlar hisoblanadi.
3.	Qanday insonlar do‘stlikning qadriga yetadilar?	C.	Ko‘pchilikning o‘rtasida izza qilmaydigan ... kamchiligini o‘ziga aytgan insonlar chinakam do‘st bo‘ladi.
4.	Sizni tanqid qilgan odam bilan do‘st tutina olasizmi?	D.	Qiynalganingizda yoningizda turgan inson chinakam do‘st hisoblanadi, ... ular xolis ko‘maklashadigan samimiy insonlardir.

5.	Har bir gapingizni tasdiqlab, sizning yoningizni olib turgan insonlar haqiqiy do‘st bo‘la oladimi?	E.	Kamtar, samimiy, rostgo‘y odamlar haqiqiy do‘st bo‘la oladilar, ... maqtanchoq, yolg‘onchi, takabbur, laganbardor insonlar do‘stlikning qadriga yetmaydilar.

7-topshiriq. Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

Do‘stlik qudrati

Do‘stlik insonlar o‘rtasida, oilalar o‘rtasida, xalqlar o‘rtasida bo‘lishi mumkin.

Har bir insonning o‘z do‘sti bo‘ladi. Yaqin munosabatdagi oilalar ham do‘stlik rishtalari bilan bog‘langan bo‘ladilar. Respublikamizda turli millatlar va xalqlar ahil-inoq, hamjihatlikda yashab, birgalikda mehnat qilishyapti. Mana siz ham bir sinfda turli millat vakillari birga o‘qiyapsiz. Bunday do‘stlik qudratli bo‘ladi va mamlakatlar o‘rtasidagi tinchlikni ta’minlaydi.

Topshiriqlar:

1. **„KLASTER“** usulida do‘stlikning turlarini ko‘rsating.
2. Berilgan jadvalni o‘z hayotingizdan misollar keltirib to‘ldiring.

Mening do‘stim	
Oilamizning do‘stlari	

3. O‘zbekistonning do‘stona aloqalari haqida so‘zlab bering.



Adabiy o‘qish

Noahillik oqibati

(Sharq ertagi)

Bir ovchi to‘r qo‘yib, qarg‘a, chug‘urchuq, kaptar va boshqa har xil qushlarni tutib oldi. To‘rga tushgan qushlar hadeb bir-birlariga:

– Sochilgan donga aldanib, qo‘lga tushdik. Endi qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylaylik, – der edilar. So‘ng ular o‘zaro tillashib:

– Kelinglar, hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik.

Ehtimol, to‘rni ko‘tarib, qutulib ketarmiz, – deyishdi. Darhaqiqat, qushlar baravariga qanot qoqib, to‘rdan qutulib, uchib ketishdi.

Ovchi qarasa, qushlar to‘rdan xalos bo‘lib uchib ketishyapti. U qushlarning ortidan quvib ketibdi. Ovchi chopib ketayotib: „To‘rga tushgan qushlar har xil-ku! Ular, albatta, janjallashib qolishadi. Janjallashdimi – tez ucha olishmaydi, to‘r ularni pastga tortadi“, deb o‘ylabdi. Xuddi shunday bo‘libdi ham.

Qarg‘alar qag‘illashib: – Hech kim bizdek harakat qilmayapti. Sizlar sekin harakat qilyapsizlar, – deyishibdi. Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqib: – Bas endi, qarg‘alar! Maqtanchoqlikni qo‘yinglar! Biz sizdan kam harakat qilmayapmiz! – deyishibdi. Janjalga boshqa qushlar ham aralashibdilar.

Do‘stlik buzilgach, ish yaxshi yurishmabdi. Qushlar janjallashganlari uchun arang qanot qoqishardi. Shunday qilib ular pastlay boshlashibdi va oxir-oqibat to‘rga o‘ralib yerga qaytib tushishibdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qushlar qanday qilib ovchining to‘ridan qutulmoqchi bo‘lishdi?
2. Ularga nima xalal berdi?
3. Bu voqea boshqacha tugashi ham mumkin edimi?
4. O‘z fikringizni yozing, bunda *agar, chunki, shuning uchun* bog‘lovchilaridan foydalaning.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Insonlar hayotida ham ahillik va do‘stlikning qudratini nimalarda ko‘rish mumkin?
2. „Bir kun janjal bo‘lgan uydan, qirq kun baraka ketadi“ maqolining ma’nosini misollar bilan tushuntirib bering.
3. Bog‘lovchilarning turlari va qo‘llanishi haqida ma’lumot bering.
4. Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Sabab va shart ma’nolarini bildirgan ergashtiruvchi bog‘lovchilarga misollar keltirib yozing.

Sabab ma’nosini ifodalaydigan bo‘g‘lovchilar	...
Shart ma’nosini ifodalaydigan bo‘g‘lovchilar	...

Uyga vazifa. „Do‘stlik – qudratli kuch“ mavzusida matn tuzing.

XI MAVZU: SOG‘LIK – TUMAN BOYLIK

(Biriktiruv va zidlov bog‘lovchilari, ularning qo‘llanishi va imlosi)

1-DARS





1-topshiriq. Berilgan rasmlarga qarab, gaplar tuzing va quyidagi savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

– Shifokorlik qanday kasb?
– Oilangizda shifokorlar bormi?
– Sog‘lig‘imizni faqat shifokorlar asrashi kerakmi?
– Siz o‘z sog‘lig‘ingizni asrash uchun nimalar qilasiz?

2-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Sog‘ tanda sog‘lom aql

Har bir inson, albatta, sog‘ bo‘lishni va uzoq yashashni orzu qiladi. Buning uchun, avvalo, kishi o‘zini chiniqtirib borishi hamda to‘g‘ri hayot tarzini kechirishi darkor. To‘g‘ri hayot kechirish tartib-qoidalari juda sodda bo‘lib, uni har bir inson bajara oladi. Bular uyqu va ovqatlanishni to‘g‘ri tashkil etish, suv, havo va quyosh nuridan foydalanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishdan iborat. Sog‘lom bo‘lish uchun, avvalo, jismoniy tarbiya mashqlari bilan muntazam shug‘ullanish darkor. Sport esa ovqat hazm qilish, nafas olish, qon aylanish tizimi faoliyatini yaxshilaydi. Sport va jismoniy

tarbiya bilan muntazam shug‘ullanadigan insonlar sog‘lom bo‘ladilar. Sog‘lom insonlar to‘g‘ri fikrlaydilar, shuning uchun „Sog‘ tanda – sog‘lom aql“, deydilar.



Bilib oling!

Teng bog‘lovchilar so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni o‘zaro teng munosabatda bog‘laydigan yordamchi so‘zlardir. Ular **biriktiruv, zidlov, ayiruv** va **inkor bog‘lovchilariga** bo‘linadi.

Biriktiruv bog‘lovchilari	Zidlov bog‘lovchilari	Ayiruv bog‘lovchilari	Inkor bog‘lovchisi
va *ham* *hamda*	*ammo* *lekin* *biroq*	*goh, goho* *ba’zan* *yo, yoki*	*na*

1- mashq. Gaplarni yozing. So‘z va gaplarni bog‘lovchi vositalarni ko‘rsating.

A’zamjon va Azizjon aka-uka. Ular har kuni ertalab badantarbiya mashqlari bilan shug‘ullanadilar. Darsdan keyin to‘garak mashg‘ulotlariga boradilar. Kechki payt yo A’zamjon, yoki Azizjon ukasini bog‘chadan olib keladi. Uyga vazifani tayyorlab bo‘lishgach, ikkovi ham onasiga uy-ro‘zg‘or ishlariga yordamlashadilar, ham buvisi va bobosiga qarashadilar. Televizorni faqat kechki payt, qiziqarli ko‘rsatuv yoki badiiy film bo‘lsagina ko‘rishadi, shuning uchun hammasiga ulgurishadi.

2- mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur bog‘lovchilarni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Abu Ali ibn Sino mashhur tabib, faylasuf ... shoirdir. U bolaligidanoq turli giyohlardan dori-darmonlar tayyorlagan ... atrofdagilarni davolashni boshlagan. Ko‘p yillar og‘ir darddan azob chekkan, ... hech kim tuzata olmagan Buxoro amirini davolagan. Abu Ali ibn Sino tabobat ilmining eng yetuk namoyandasi bo‘lib yetishdi. Uning „Tib qonunlari“ asari o‘sha davrda ... bugungi kunda ham jahon tibbiyot ilmining asosi hisoblanadi.

3-topshiriq. O‘qing, berilgan savol asosida o‘zaro suhbatlashing.

Sog‘lom turmush tarzi sirlari

Men sog‘lom bo‘lishni oldimga maqsad qilib qo‘ydim. Buning uchun:

- har kuni jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni;
- me’yorida ovqatlanishni;
- vaqtida o‘qish va vaqtida dam olishni;
- kechqurun yuz-qo‘llar va tishlarimni yuvib yotishni;
- o‘rin-joy va kiyimlarimni orasta saqlashni;
- yorug‘lik yaxshi tushadigan joyda va to‘g‘ri o‘tirgan holda o‘qishni;
- kompyuter, televizor, telefon kabi vositalardan kamroq foydalanishni odat qildim.

Siz bu odatlarning qaysilariga rioya qilasiz?

Uyga vazifa. Sog‘lom va go‘zal bo‘lish haqida o‘z fikrlaringizni yozing.

2-DARS

4-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing. Bog‘lovchilarning qo‘llanishini tushuntiring.



– Marhamat, keling. Qayeringiz og‘riyapti?

– Qornim tez-tez og‘rib turadi. Goho boshim og‘riydi, goh-gohida ko‘nglim ham aynib turadi.

– Ovqatlanish me’yorlariga rioya qilasizmi? Ertalabki nonushta, tushlikni o‘z vaqtida qilasizmi?

– To‘g‘risini aytsam, ovqatlanish me’yorlariga to‘liq rioya qila olmayman. Ertalab o‘qishga kech qolmaslik uchun ba’zan nonushta qilmay ham ketaman. Tushlikni har xil vaqtda qilaman. Faqat haftada ikki kungina darsdan ertaroq kelaman. Qolgan kunlari o‘qishdan to‘g‘ri to‘garak mashg‘ulotlariga ketaman, shuning uchun yonimda shirinliklar yoki pishloqli non olib yuraman.

– Sog‘liqni asrash uchun, avvalo, to‘g‘ri ovqatlanishga rioya

qilish kerak. O‘z vaqtida issiq ovqat va darmondoriga boy mevalarni iste’mol qilmaslik, qon tarkibining buzilishiga, quvvatning kamayishiga olib keladi.

– Rahmat, doktor. Bundan buyon to‘g‘ri ovqatlanishga odatlanaman.



Bilib oling!

Va, ham, hamda **biriktiruv bog‘lovchilari** hisoblanadi. Ular ketma-ket yoki birgalikda bajariladigan harakatlarni bildirib keladi. ***Masalan:*** *Sevara* ***va*** *Aziza maktabga kelishdi. Qo‘ng‘iroq chalindi* ***va*** *dars boshlandi.*

3- mashq. Gaplarni yozing. Biriktiruv bog‘lovchilarini aniqlang va vazifasini tushuntiring.

Sog‘lom, tetik va ishchan bo‘lishni istaysizmi? Unda shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga rioya qiling. Kiyimlaringizni va choy-shablaringizni toza saqlang. Xonangiz tartibli hamda ozoda bo‘lsin. Biror ishni bajargandan so‘ng hamda ovqatlanishdan oldin qo‘llarni sovunlab yuvish kerak. Tirnoqlaringiz olingan va sochlaringiz taralgan bo‘lishi ham ozodalik belgisi hisoblanadi.

4- mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur bog‘lovchilarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Yig‘ilishga barcha vaqtida keldi, ... sen kechikib kelding. 2. Sen o‘rtoqlaringni ... , meni ... , ustozlaringni ... hurmat qilmay qo‘yding. 3. Bolaginam juda odobli, ... biroz sho‘xroq, – deb erkaladi onasi. 4. Yugurish musobaqasiga Ahmad qatnashdi, ... Sardor qatnashmadi. 5. Usta ancha keksayib qolgan, ... hali ancha baquvvat. 6. Madrasalar juda qadimiy, ... hali ham o‘z tarovatini yo‘qotmagan.


5- mashq. Birinchi ustunda berilgan kasalliklarning sabablarini ikkinchi ustundan topib, gaplarni to‘ldirib yozing.

Namuna: Ko‘z xiralashmasligi uchun kitobni yotgan holatda o‘qimaslik kerak.

Ko‘z xiralashishi
Bosh og‘rig‘i
Yuqumli kasalliklar
Oshqozon og‘rishi
Oshqozon-ichak kasalliklari

bemor bilan yaqin muloqotda bo‘lish
tozalikka rioya qilmaslik
kitobni yotgan holatda o‘qish
televizorni ko‘p ko‘rish
vaqtida ovqatlanmaslik

5-topshiriq. ***„BALIQ SKELETI“*** texnologiyasini qo‘llab, shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga nimalar kirishini ko‘rsating.



Uyga vazifa: 5- topshiriq asosida yozgan fikrlaringizdan birini misollar yordamida izohlab, o‘z munosabatingizni bildiring.

3-DARS

6-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring. Bog‘lovchilarning vazifalarini ko‘rsating.



– Sen qanday sport turini yoqtirasan va qaysi sport to‘garagiga qatnashasan?
– Men og‘ir atletika bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘raman. O‘zing-chi?
– Men futbol o‘ynashni yaxshi ko‘raman, shuning uchun har kuni yugurish bilan shug‘ullanaman va chiniqaman.
– Men va singlim tennis to‘garagiga boramiz. Oyim va dadam sog‘lom bo‘lishimizni xohlashgan, shuning uchun yoshligimizda sport to‘garaklariga olib borishgan. ...

7-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing. Bog‘lovchilarni aniqlang va vazifalarini tushuntiring.

Salomatlik – eng katta boylik

Sog‘liq har bir inson uchun eng katta boylik, chunki inson sog‘-salomat bo‘lsagina uzoq umr ko‘radi. Insonning sog‘lig‘i faqat o‘zi,

oilasi uchungina emas, balki Vatani uchun ham kerak. Chunki sog‘lom avlod Vatanimizning kelajagidir. Salomatlikni saqlashda badantarbiya mashqlari va piyoda yurishning foydasi katta. Ibn Sino bobomiz: „Badantarbiyani tark etgan, xarob bo‘ladi“, deb yozgan edilar. Shifokorlar harakatsiz qolgan tana a’zolarining quvvati zaiflashishi, buning oqibatida xotira ham susayib borishini ta’kidlaydilar. Salomatlikni saqlashda badantarbiya mashqlari ham, to‘g‘ri ovqatlanish ham muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasini bir me’yor asosida muntazam bajarib turishgina salomatligimizni asraydi.



Bilib oling!

Zidlov bog‘lovchilari bir-biriga qarama-qarshi voqea-hodisalarni ifodalovchi so‘z va gaplarni bog‘laydi. Bunday bog‘lovchilardan oldin doimo vergul qo‘yiladi. ***Masalan:*** *Aytilgan vaqtga hamma keldi,* ***biroq*** *Sardor kelmadi.*

6- mashq. Berilgan juft so‘zlarni zidlov bog‘lovchilari bilan bog‘lab, so‘z birikmalari tuzing.

Yosh, bilimdon shifokor; baland bo‘yli, ozg‘in kishi; yosh, bilimdon shogird; qadimiy, yaxshi saqlangan obida; eski, nihoyatda naqshinkor eshik.

7- mashq. Sog‘liq haqidagi maqollarni ona tilingizga tarjima qiling va mazmunini tushuntiring.

1. Sog‘lig‘ing boyliging.
2. Sog‘ tanda – sog‘lom aql.
3. Sihat tilasang ko‘p yema, izzat tilasang ko‘p dema.
4. Salomatlikni yoshlikdan asra.
5. Sog‘lom turmush tarzi – salomatlik garovi.



Adabiy o‘qish

O‘ttiz ikki qo‘riqchimiz omon bo‘lsin

Tishlarimizga „O‘ttiz ikki qo‘riqchi“ deya ta’rif berilishi sababini bilasizmi? Agar ular bo‘lmasa, ovqat chaynashni tasavvur qilib ko‘ring-a?! Ularning birortasi shikastlanib qolsa-chi? Ba’zilar darhol



tish shifokori huzuriga borishni istashmaydi. Sababi esa o‘zingizga ham ma’lum. Ana shunday ahvolga tushib qolmaslik uchun eng muhim a’zolaringizdan biri bo‘lgan tishlaringizni asrab-avaylang. Ularning butunligini ta’minlang, chunki oshqozondagi ovqatning hazm bo‘lishida tishlarning o‘rni beqiyos. Chala chaynalgan ovqat oshqozon faoliyatini buzilishiga olib keladi.

Tishlaringizning sog‘lom va mustahkam bo‘lishi uchun kalsiyga boy mahsulotlarni ko‘proq iste’mol qiling. Bundan tishlaringiz ham, suyaklaringiz ham mustahkam bo‘ladi. Tishlaringizni kuniga ikki marta: ertalab nonushtadan so‘ng va kechqurun uxlashdan oldin yuving. Chunki tishlaringiz orasida qolgan ovqat qoldiqlari ta’sirida kariyesga chalinishi mumkin. Tishlarimizning ashaddiy dushmani kariyes bo‘lib, u tishning erta yemirilishiga olib keladi. Yana bir maslahat: bir yilda ikki marta tish shifokori ko‘rigidan o‘tib turing va albatta, ularning maslahatlariga quloq tuting.

Mahmuda Toirova

8-topshiriq: Savollarga javob bering.

1. Nima uchun tishlar 32 qo‘riqchi deb ataladi?
2. Tishlarni asramaslik salomatlikka qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Tish yemirilishi qanday kasallik deb ataladi?
4. Tishlarni asrash uchun nimalar qilish kerak?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Inson hayotida salomatlikning o‘rni qanday?
2. Sog‘liqni asrash uchun aynan nimalarga e’tibor qaratish kerak?
3. Sog‘lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
4. Texnologiyasi asosida:
   1. Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarning;
   2. Biriktiruvchi va zidlov bog‘lovchilarning farqli xususiyatlarini tushuntiring.

Uyga vazifa. „Mening hayot tarzim“ mavzusida matn tuzing. Unda sog‘lig‘ingizni asrash uchun nimalar qilishingizni yozing.

XII MAVZU: DUNYO MO‘JIZALARI

(Ayiruv va inkor bog‘lovchilari, ularning imlosi va talaffuzi)

1-DARS



1-topshiriq. Rasmlarni kuzating va berilgan tayanch so‘zlar asosida gaplar tuzing.

Namuna: Osmonda yulduzlar chaqnab turibdi...

Tayanch so‘z va birikmalar: *yulduz, chaqnamoq, samolyot, uchmoq, osmono‘par binolar, tezyurar poyezdlar, bugungi taraqqiyot, kompyuter imkoniyatlari, bilimlarni egallash.*

O‘QITUVCHI

1-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning vazifasiga e’tibor bering.

Olam sirlari

Atrofimizda sirli **va** g‘aroyib hodisalar bo‘lib turadi. Masalan, Navro‘zda kun **va** tun tenglashadi. Tundrada oyning o‘n besh kuni yorug‘, o‘n besh kuni esa qorong‘i bo‘ladi. Sankt-Peterburgda bir oy davomida oydin tunlar, **biroq** Shimolda, aksincha, bir oy davomida uzluksiz faqat tun kuzatiladi. Xullas, biz tabiatning **goh** unday, **goho** bunday sirlariga tez-tez duch kelamiz. Bu sirlarning kaliti **esa** bilimdadir. Shuning uchun yoshlikda o‘qib o‘rganish **hamda** fan asoslarini egallash kerak.

2-topshiriq. Berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

1. Siz sirli hodisalar haqida eshitganmisiz? O‘zingiz biror g‘aroyib hodisaga duch kelganmisiz?
2. Siz sirli hodisalar haqida kitobdan o‘qiganmisiz yoki filmlarda ko‘rganmisiz?
3. Fantastik asarlarni yaxshi ko‘rasizmi? Bunday asarlar asosida haqiqat yotadimi yoki ularning barchasi to‘qimami?
4. Sizningcha, olam sirlarining tagiga yetish mumkinmi?



Bilib oling!

O‘zbek tilida ***ba’zan, yo, yoki, dam, goh, goho*** bog‘lovchilari o‘zaro bog‘lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ular takrorlanib qo‘llaniladi va vergul bilan yoziladi. ***Masalan:*** *Maktabga* ***ba’zan*** *ukam bilan,* ***ba’zan*** *esa dugonam bilan boraman.*

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos bog‘lovchilarni qo‘yib yozing va imlosini tushuntiring.

1. Maktabimizda yosh texniklar ... tabiatshunoslar to‘garagi bor. 2. Zumrad ... akasiga, ... ukasiga yordam berishga harakat qilardi. 3. Oromgohda dam olish juda maroqli: do‘stlarim bilan ... futbol o‘ynaymiz, ... qiziq kitoblar o‘qiymiz, ... sayohatga chiqamiz. 4. Dadam ... oyim shifokor, ... men o‘qituvchi bo‘lmoqchiman. 5. Ta’til kunlarida ... xolamnikiga, ... tog‘amnikiga mehmonga borib turamiz.

3-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.



– Assalomu alaykum!
– Va alaykum assalom! Keling.
– Dunyo mo‘jizalari haqidagi kitobni olib tursam bo‘ladimi?
– Kitobni shu yerda o‘qimoqchimisiz yoki o‘zingiz bilan birga olib ketasizmi?
– Mumkin bo‘lsa, uyda o‘qib kelish uchun bersangiz.
– Unda, siz mana bu qayd varaqasini to‘ldirib turing, men esa kitobni olib chiqaman.

– Xo‘p bo‘ladi.
– Mana, siz aytgan kitob.
– Rahmat, xayr.

4-topshiriq. She’rni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

MO‘JIZA

Mo‘jizani yo‘q degan
Bolaga gapim lo‘nda:
– Nega qizarib qoldi,
Olchamiz unda?
Kechqurun bog‘ga chiqsak,
Qop-qorong‘i bog‘imiz.
– Nimaga o‘chib qoldi,
Shamchirog‘imiz?

Ko‘kka boqdi ko‘zimiz,
Charaqladi yulduz, oy.
Ko‘nikib qorong‘ida
Ko‘rindi har joy.
Nimaga degan savol
O‘rab har yonni.
O‘rtoq qilib oldik so‘ng
Mo‘jiza jonni.

Mo‘jizaga ishonar,
Bahorni kutib yashar.
Odamlar omon bo‘lsin,
Gullab yashnasin bashar!

Umida Abduazimova

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

2-DARS





5-topshiriq. Rasmlarni kuzating. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.



– Behzod, sen dunyo mo‘jizalari, masalan, Misr ehromlari haqida eshitganmisan?

– Eshitganman, lekin ular haqida to‘liq ma’lumotga ega emasman.

– Misr ehromlarining eng kattasi fir’avn Xeops tomonidan 40 yil davomida qurilgan ekan.

– Nahotki, qurilish shuncha yil davom etgan bo‘lsa?

– Ha, 20 yil toshlarni tashishga va ularni tayyorlashga, 20 yil esa ehromni qurishga ketgan ekan. Bu ehromga 2300000 ta tosh ishlatilgan ekan. Eng kichik toshning og‘irligi 2,5 tonna ekan.

– Qoyil. Mana buni haqiqiy mo‘jiza desa bo‘ladi.

Bilib oling!

Ayiruv bog‘lovchilari uyushgan bo‘laklarni yoki qo‘shma gap qismlarini bog‘laydi. ***Misollarni qiyoslang:*** *Maktabga* ***goh*** *ukam,* ***goh*** *dugonam bilan boraman.* ***Goh*** *ko‘kni bulutlar qoplaydi,* ***goh*** *quyosh charaqlab chiqadi.*

3-mashq. Berilgan javoblarga mos savollar tuzing va yozing.

– … ?

– Toshkentdagi eng katta sport majmuasi „Milliy“ deb nomlanadi.

– … ?

– „Milliy“ stadioni 34 ming o‘ringa mo‘ljallangan.

– … ?

– Bu sport majmuasida bolalar va o‘smirlar futbol maktabi ham ochilgan.

– … ?

– „Milliy“ sport majmuasida O‘zbekiston futboli tarixiga oid muzey ham mavjud.

4-mashq. **„KIM KO‘P BILADI?“** o‘yinini tashkil qiling. Guruhlarga bo‘linib, dunyo mo‘jizalari haqida bog‘lovchilarni qo‘llab, ma’lumotlar yozing.

6-topshiriq. Matnni o‘qing. Nyutonning kashfiyoti kelajakda nimalarga yordam berganini ayting.

Dunyoni lol qoldirgan bola



Kichkina Nyuton turli jismlardan har xil shakllar yasash bilan shug‘ullanib turardi. Bir kuni yasagan prizmasini quyosh nuriga tutganda ko‘ringan kamalak ranglariga qarab, „Qanday ajoyib nurlar“, deya quvondi. Tushga yaqin bog‘dagi olma daraxti soyasida yotib, „Juda ko‘p o‘yinchoqlar yasadim. O‘zi yuradigan qurilmalar, suv tegirmoni, parraklar... Hammasi zo‘r!“ deb o‘yladi. Shu payt yerga tap etib olma tushib, uning xayoli bo‘lindi. Har narsaga qiziquvchan bola emasmi, „Nega olma hech qayoqqa og‘may, to‘g‘ri tushdi“, deb yana o‘ylay ketdi.

Ushbu savolga javob topish uchun Nyuton 21 yil izlandi. Olamning tortishish qonuni shu tarzda kashf etilgan.

(„Tong yulduzi“ gazetasidan)

7-topshiriq. Matnlarni o‘qing. Har bir matn mazmunini so‘zlab bering va unga mos sarlavha qo‘ying.

Bilasizmi?

Dog‘istonda tog‘ qo‘zg‘alib, vodiyga qarab yo‘l oldi. Tog‘ yonbag‘riga ekilgan ekinlar, daraxtlar, so‘qmoq yo‘llar va hatto cho‘ponning uyi ham tog‘ bilan birga „ketaverishdi“. „Sayohatchi tog‘“ 8 kun ichida 20 km yo‘l bosdi. Ulkan tog‘ning bunday yurishi g‘oyat qo‘rqinchli bo‘lsa ham, hech kimga zarari tegmadi. Olimlarning aytishicha, tabiatda kam uchraydigan bu noyob hodisaning sababi yer osti suvlari ekan. Yog‘ingarchilik serob bo‘lgani uchun yomg‘ir suvlari yer osti suvlarining yo‘nalishini o‘zgartirib yuborgan.

Turkiyada yashovchi 60 yoshli Yanis Dumas 1964-yilning mart oyida o‘z uyida, odatdagidek, uyquga ketib kuzgacha uyg‘onmadi. Uni sun’iy ravishda ovqatlantirib turishdi. 6 oy o‘tgandan so‘ng u ko‘zini ochdi va bahor emas, kuzni ko‘rib nihoyatda hayratlandi.

O‘zbek milliy taomlari, ayniqsa, palov to‘yimliligi, xushta’mligi bilan butun jahonga mashhur. O‘zbekistonda bir necha yuzlab kishilar uchun katta doshqozonlarda palov damlanishi ham dunyo xalqlarini ajablantiradi. 2017- yil 8- sentabrda Toshkent shahrida oshpazlar 6 tonna osh damlab, Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi.

Uyga vazifa. Olam sirlarini ochishning kaliti nimada? O‘z fikringizni yozing.

3-DARS

8- topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



– Bolalar, ayting-chi, olamdagi sirlar, g‘aroyibotlar haqida qayerdan eshitgansiz?
– Men sirli voqealar haqida ertaklarda o‘qiganman.
– Men esa buvim aytib bergan ertaklaridan eshitganman.
– Men sarguzasht va fantastik asarlardan o‘qiganman.
– Men esa filmlarda ko‘rganman.
– Olamdagi sirlar, g‘aroyibotlarning yechimi bormi?
– Mening o‘ylashimcha, inson hamma narsaning yechimini topdi. Ertaklarda inson orzu-umidlari sari intilsa, albatta, maqsadga yetishishi ifodalangan.
– „Ertaklar – kelajakka yetaklar“, deb bejiz aytishmaydi. Ertaklarda tasvirlangan tilsimlar bugun ro‘yobga chiqyapti-ku! Masalan, uchar gilamlar – samolyotlar, g‘orlardagi boyliklar – yer osti boyliklari.
– Men olamdagi sirlar butunlay yechilmagan, hali kashf etilmagan haqiqatlar bor, deb o‘ylayman. Masalan, qadimiy me’moriy obidalarimizdagi hashamlar asrlar osha saqlanayotgani, albatta, hayratlanarli. Bu tilsimlarni yechish uchun esa ilm olish, o‘qish, o‘rganish kerak. ...

Bilib oling!

Nutqda ***na*** bog‘lovchisi doim takrorlanib qo‘llanadi va ta’kid, inkor ma’nolarini bildiradi. Shuningdek, ***ham*** yuklamasi

uyushiq bo‘laklar oldidan kelganda bog‘lovchi vazifasini bajaradi. ***Masalan:*** *Bulutli ko‘kda* ***na*** *oy,* ***na*** *yulduzlar ko‘rinadi. Shahrimizda* ***ham*** *muhtasham saroylar,* ***ham*** *sport majmualari,* ***ham*** *zamonaviy turar joy binolari bunyod etilmoqda.*

5- mashq. Nuqtalar o‘rniga biriktiruv, zidlov va ayiruv bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib yozing.

1. Zargar yosh, ... iste’dodli yigit edi. 2. Ibn Sino juda ko‘p kasalliklarning davosini topgan, ... uni „Tabiblarning tabibi“ deb ataganlar. 3. Atlasdan ... milliy, ... zamonaviy liboslar tikish mumkin. 4. O‘tkazilgan musobaqalarda ... bizning maktabimiz, ... qo‘shni maktab o‘quvchilari g‘olib bo‘lishardi.

6- mashq. Matnni o‘qing. Bog‘lovchilarni topib yozing.

Oy olami

Oy qandayligini bilasizmi? Oy juda ajoyib, biroq kimsasiz olam. U behisob chuqurlar va toshlardan iborat. Oy zamini xuddi darz ketganga o‘xshaydi. Oyda hamma narsa – gavdamiz ham, ustimizdagi skafandr ham Yerdagiga qaraganda 6 marta yengil bo‘ladi. Chunki Oy Yerdan bir necha marta kichik. Uning tortishish kuchi ham kam. Oyda havo yo‘qligi sababli osmon kunduzi ham, tunda ham qop-qora ko‘rinadi. Qop-qora osmonda kunduzi Quyosh ham, yulduzlar ham porlab turadi. Ular orasida Yer ham bor. Yerning diametri Oyga nisbatan 4 marta katta bo‘lib, Oy osmonda goh yarim oy shaklida, goh doira shaklida ko‘rinadi. Oyda havo yo‘qligi sabab Quyosh juda qattiq qizdiradi, tunda esa sovuq juda qattiq bo‘ladi. Yana shunisi qiziqki, havo yo‘qligi tufayli Oyda Yerdagidek gaplashib bo‘lmaydi. Axir, ovoz havo orqali uzatiladi-da?!

9- topshiriq. Berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.



– Oy, Quyosh va Yer haqida nimalarni bilasiz?
– Nima uchun Oyda gaplashib bo‘lmaydi?
– Oydan turib qaraganda Yer qanday ko‘rinadi?
– Nima uchun Oyda kunduzlari juda issiq, tunda esa juda qattiq sovuq bo‘ladi?

Adabiy o‘qish

Dunyoning yetti mo‘jizasi

Dunyo mo‘jizalarga kon. Biroq dunyoning yetti mo‘jizasi borki, ular bugungi kungacha yagona bo‘lib turibdi.

Yetti mo‘jizaning eng birinchisi Misrdagi Xeops ehromidir. Bundan qariyb 5000 yil avval qurilgan bu ulkan inshootda fir’avn va uning oilasi yotibdi. Bobil osma bog‘lari dunyoning ikkinchi mo‘jizasi sifatida e’tirof etilgan. Balandligi 100 metr bo‘lgan, g‘ishtdan terilgan ushbu devorlar milodiy yildan 600 yil avval Iroqda bunyod etilgan. Qadimgi Yunonistondagi Zevs haykali uchinchi mo‘jiza sanaladi. 12 metr balandlikda fil suyagidan yasalgan bu haykal hozir yer ostida yotibdi.

Turkiyada miloddan avvalgi 262-yilda qoyatoshlardan 18 metr balandlikda ishlangan Artemida ibodatxonasi to‘rtinchi, miloddan avvalgi 353-yilda bunyod etilgan podshoh Mavsolning xilxonasi mo‘jizalarning beshinchisidir. O‘rta Yer dengizidagi Rodos orolida quyosh ilohi Gelios sharafiga miloddan avvalgi 224-yilda qurilgan, bo‘yi 32 metrli bronzadan yasalgan haykal va Foros orolida miloddan avvalgi 283-yilda 180 metr balandlikda qurilgan mayoq dunyoning oltinchi va yettinchi mo‘jizalari, deb tan olingan.

Topshiriq: Dunyo mo‘jizalarini tartib bilan yozib oling.

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Dunyo mo‘jizalari haqida qanday kitoblar o‘qigansiz?
2. Bog‘lovchilar, ularning turlari va vazifalari haqida so‘zlab bering.
3. Ayiruv va inkor bog‘lovchilari, ularning nutqda qo‘llanilishi va imlosi haqida ma’lumot bering.
4. **„BBB“** jadvalini chizib, mavzu orqali nimalarni bilib olganingiz, yana nimalarni bilib olmoqchiligingizni yozing.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilib olmoqchiman

Uyga vazifa. Ginnesning rekordlar kitobidan yoki internet ma’lumotlaridan foydalanib, dunyo mo‘jizalari haqida qiziqarli ma’lumotlar yozib keling.

XIII MAVZU: O‘ZBEK TILSHUNOSLARI

(Modal so‘zlar. Ishonch va tasdiqni bildiruvchi modal so‘zlar)

1-DARS



1-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va suhbatlashing.



– Ayting-chi, bu qanday bino?

– Bu Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

– Siz shu universitetda o‘qiysizmi?

– Ha, men shu universitetning o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima yo‘nalishida o‘qiyman.

– Universitetingiz juda chiroyli va ulug‘vor ekan. Bu yerda qanday fakultetlar bor va qaysi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim beriladi?

– Bizda tilshunoslar, adabiyotshunoslar, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari, tarjimonlar tayyorlanadi. Biz universitetimiz o‘zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy nomi bilan atalishidan faxrlanamiz.

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

O‘zbek tili

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Davlat tili haqidagi qonun 1989- yil 21- oktabrda qabul qilingan. Ushbu qonun tufayli respublikamizning barcha ta’lim bosqichlarida o‘zbek tilining o‘qitilishi, ilmiy va rasmiy-ma’muriy ishlarning o‘zbek tilida olib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbek tili Markaziy Osiyodagi qadimiy va boy tillardan biridir. Yevropada roman tillarining rivojlanishida lotin tili qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi turkiy tillarning rivojlanishida ham o‘zbek tili shunday o‘rin tutadi. O‘zbek tilining imkoniyatlari shu qadar ko‘pki, unda badiiy adabiyot uchun kerakli bo‘lgan so‘z boyligi, go‘zal va nafis uslublarni ko‘plab topish mumkin. XV asrda buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o‘zining „Muhokamat-ul lug‘atayn“ („Ikki til muhokamasi“) kitobida o‘zbek tili hech qaysi tildan qolishmasligini asoslab berganlar. Shuning uchun Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi.

Savollarga javob bering:

1. „Davlat tili haqida“gi qonun qachon qabul qilingan?
2. O‘zbek tilining respublikamizdagi va Markaziy Osiyodagi nufuzi qanday?
3. Alisher Navoiyning til haqidagi asari qanday nomlanadi?
4. Nima uchun Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi?

Bilib oling!

Aytilayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini bildiruvchi so‘zlar **modal so‘zlar**dir. Modal so‘zlar gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi ham mumkin. Agar modal so‘z gapning boshida kelsa, undan keyin, oxirida kelsa, undan oldin, o‘rtasida kelsa, ikki tomonidan vergul bilan ajratib yoziladi. ***Masalan:*** *Yaxshi kasb egasi bo‘lish uchun,* ***albatta****, bilim olish kerak. Sen yig‘ilishga kelmading,* ***shekilli****.*

Modal so‘zlarning ma’no turlari

1. Ishonch va tasdiqni bildiradi	albatta, shubhasiz, haqiqatan, haqiqatdan ham, darhaqiqat, ha, ho‘p, mayli, bo‘pti
2. Gumonni bildiradi	ehtimol, balki, shekilli, chamasi, hoynahoy
3. Shodlik va achinishni bildiradi	baxtimga, shukur, baxtga qarshi, afsuski, esizgina
4. Bayon qilingan fikrning tartibini bildiradi	birinchidan, ikkinchidan, avvalo, oxiri, nihoyat
5. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini bildiradi	menimcha, fikrimcha, aytishicha, aytishlaricha, sizningcha
6. Bayon qilingan fikrni xulosalashni bildiradi	demak, shunday qilib, xullas, aksincha, umuman, aks holda, ayniqsa, asosan, shuningdek, binobarin, xususan

1-mashq. Foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘llab, gaplarni to‘ldiring.

1. ..., ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. 2. ..., aytilgan gaplar to‘g‘rimi? 3. ..., buyuk bobolarimizning bu kabi dono fikrlari juda ko‘p. 4. ..., biz ajdodlarimizdan qolgan boy merosimizni hali yaxshi bilmaymiz. 5. ...., ilmni kishi havas, ishtiyoq, qunt va chidam bilan o‘qib qo‘lga kiritishi mumkin.

Foydalanish uchun so‘zlar: *afsuski, baxtimizga, sizningcha, Boburning qayd etishicha, shubhasiz.*

2-mashq. Matnda qo‘llangan modal so‘zlarni yozing va ma’nosini tushuntiring.

Buyuk alloma Ibn Sino qayd etishicha, agar o‘quvchilar hamkorlikda o‘qishsa, ularda fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi. Aksincha, o‘quvchilar bir-birlaridan qolmaslik uchun harakat qiladilar, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Xususan, o‘zaro suhbatlashganda o‘quvchilar bir-biriga kitobdan o‘qib bilib olganlarini, kattalardan eshitganlarini hikoya qilib beradilar. Allomaning fikricha, bularning hammasi o‘qishni yaxshilashga yordam beradi.

3- mashq. Gaplarni qiyoslab o‘qing. Modal so‘zlarning ma’nolari va qo‘llanishini tushuntirib, yozing.

1. Hasharga vaqtliroq kelishingiz kerak. – Hasharga, albatta, vaqtliroq kelishingiz kerak. 2. Qing‘ir ish qirq yilda ham bilinadi. – Shubhasiz, qing‘ir ish qirq yilda ham bilinadi. 3. Kechasi yomg‘ir yog‘ib o‘tibdi. – Rostdan ham, kechasi yomg‘ir yog‘ib o‘tibdi. 4. Ertadan havo sovib ketadi. – Ertadan havo sovib ketadi, shekilli. 5. Qilingan mehnat samarasiz bo‘lmaydi. – Haqiqatdan ham, qilingan mehnat samarasiz bo‘lmaydi.

3- topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Ayub G‘ulomov

Filologiya fanlari doktori, professor Ayub G‘ulomov 1914- yilda Toshkentda tug‘ilgan. 1936- yilda Pedagogika instituti til va adabiyot fakultetining kechki bo‘limini tugatgan. 1940- yilda professor A. K. Borovkov rahbarligida „O‘zbek tilida aniqlovchilar“ mavzusida nomzodlik, 1957- yilda esa „O‘zbek tilida tarixiy so‘z yasalishi masalalari“ mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ayub G‘ulomov mukammal bilimga egaligi, til hodisalarini chuqur tahlil qila olishi va asosli xulosalar chiqara olishi o‘tkir zehn sohibi ekanidan dalolatdir. U o‘tkir turkiyshunos olim va yetuk notiq bo‘lib, ma’ruzalari nihoyatda qiziqarli o‘tardi. Ayub G‘ulomov ko‘p yillar Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) „O‘zbek tilshunosligi“ kafedrasini boshqardi, juda ko‘p shogirdlar yetishtirdi. Uning lisoniy qarashlari „Sodda gap sintaksisi“, „O‘zbek tilida so‘z yasash usullari“, „Fe’l“, „Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis“, „O‘zbek tili grammatikasi“ (1-tom. Morfologiya), „O‘zbek tili morfem lug‘ati“ kabi monografik asarlar va darsliklarda o‘z ifodasini topgan. Ayub G‘ulomovni barcha o‘zbek tilshunoslari ustoz deb biladilar.

Savollarga javob bering:

1. Ayub G‘ulomov qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. U qanday mavzularda tadqiqot ishlarini olib borgan?
3. Olimning tilshunoslikka oid qanday asarlari bor?

Uyga vazifa. „Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi“ mavzusida matn tuzing.

2-DARS

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Savol va topshiriqlarni bajaring.

Tilni qanday o‘rganish kerak?

Har qanday tilni o‘rganish avval shu tildagi so‘zlarni bilib olishdan boshlanadi. Buning uchun o‘zlashayotgan so‘zlarning ma’nosi o‘rganilib, so‘ngra ular yod olinadi keyin ularni ishtirok ettirib, so‘z birikmalari va gaplar tuzish kerak bo‘ladi. So‘zlarni bog‘lash uchun esa shu tildagi gap tuzish qonun qoidalarini bilish lozim. Shuning uchun ham siz grammatik ma’lumotlar bilan tanishib boryapsiz. Shuningdek, tildagi tovushlar talaffuzini yaxshi o‘zlashtirib, so‘zlarni to‘g‘ri aytish ham til o‘rganishda juda muhimdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Siz qaysi tilni bilasiz? Til o‘rganishni nimadan boshlagansiz? Boshqa tilni o‘rganishda ona tilingizda olgan bilimingiz yordam beradimi?
2. O‘zbek tilining boshqa tillardan farqli jihatlari nimada?
3. O‘zbek tilini o‘rganishingizda yordam beradigan va xalal beradigan omillarni ayting.

Bilib oling!

Ishonch va tasdiqni bildiruvchi *albatta, shubhasiz, haqiqatan ham, to‘g‘risi, ho‘p, mayli, bo‘pti* so‘zlari so‘z-gaplar sifatida qo‘llanilishi ham mumkin. ***Masalan:*** *Hasharga borasanmi?* – ***Albatta.***

4-mashq. Matnni yozing. Modal so‘zlar qatnashgan gaplarni yozing. Modal so‘zlarning qo‘llanishini tushuntiring.

Bobur sabog‘i

Zahiriddin Muhammad Bobur ham shoh, ham shoir, ham sarkarda bo‘lgan. U hayotining ko‘p qismini harbiy yurishlarda o‘tkazgan. Shun-

day bo‘lsa-da, ilm-ma’rifatni hamisha ulug‘lagan, yoshlarni ilm olishga undagan. Uning qayd etishicha, ilm o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Bilimni ishtiyoq, qunt va chidam bilan o‘qib qo‘lga kiritish mumkin. Manbalarda berilishicha, u hatto Afg‘onistonni boshqarib turgan o‘g‘li Humoyunga ham imlosidagi kamchiliklarini ko‘rsatib, husnixati ustida muntazam mashq qilishi zarurligini eslatib turgan.

5-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.



– Bobur shoh va sarkarda bo‘lsa ham, hatto hukmdor o‘g‘lining husnixati, yozuviga alohida e’tibor qaratib turar ekan. Buni o‘qib husnixatimdan uyalib ketdim.

– To‘g‘risi, mening yozuvim ham chiroyli emas. Oyim har doim shuni aytib koyiydilar.

– Men ko‘proq elektron yozuvdan foydalanganim uchun bosma harflar bilan yozaman, biroq savodli yozaman deb aytolmayman.

5-mashq. Bir-biringizga **„SMS“** xatlar yozing. Imloda yo‘l qo‘ygan xatolaringizni quyidagi jadvalda aks ettiring.

SMS muallifi	Bosh harflar imlosi	Tinish belgilaridagi xatolar	Gap tuzilishidagi xatolar	So‘z ishlatishdagi xatolar	Qo‘shimchalarni qo‘llashdagi xatolar



Uyga vazifa. O‘zbek tilshunos olimlari haqida referat tayyorlang.

3-DARS

6-topshiriq. Hikmatlarga modal so‘zlarni qo‘shib yozing.

Namuna: Fransuz olimi Laroshfukoning fikricha, kitob – insonning eng beg‘araz do‘sti, maslahatchisi va sirdoshi.

1. Kitob insonning beg‘araz do‘sti, maslahatchisi va sirdoshidir.

(Laroshfuko, fransuz olimi)

2. Ayyor odamlar ilmga nopisandlik bilan, soddadil odamlar hayrat bilan qaraydilar. Dono odamlar esa ilmdan foydalanadilar.

(Frensis Bekon, ingliz faylasufi)

3. Inson dunyoni qancha bilsa, o‘zligini ham shunchalik anglaydi.
(Iogan Gyote, nemis shoiri)
4. Har qanday donolikning zamini sabr-qanoatdir.
(Platon, yunon faylasufi)
5. Bilimga eltuvchi yagona yo‘l bu harakatdir.
(Bernard Shou, ingliz yozuvchisi)

Bilib oling!

Shubhasiz, shak-shubhasiz so‘zlari gapning boshida yoki oxirida kelib, ishonch va tasdiqni bildiradi. ***Masalan: Shubhasiz****, O‘zbekistonning kelajagi buyuk bo‘ladi.*

6- mashq. Maqollarga **ha, albatta, darhaqiqat, haqiqatdan ham, shubhasiz** modal so‘zlarini qo‘shib yozing va ma’nolarini izohlang.

Namuna: Ha, olim bo‘lsang, olam seniki bo‘ladi.

1. Olim bo‘lsang, olam seniki.
2. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur.
3. O‘qish boshqa, uqish boshqa.
4. Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

7- topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Birinchi akademik olima



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Rossiya Federatsiyasi Ta’lim akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarovna Asqarova 1924- yilda Toshkentda tug‘ilgan. U 1944- yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini imtiyozli bitirgan. Olima o‘z faoliyati davomida shu institutdagi „O‘zbek tilshunosligi“ kafedrasida avval o‘qituvchi, so‘ng dotsent, professor lavozimlarida ishlagan va umrining oxirigacha shu kafedrani boshqargan. 1951- yilda Mazluma Asqarova O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan

arbobi, Xalq maorifi a'lochisi, „Hurmat belgisi“ ordeni, „Fidokorona mehnati uchun“, „Shuhrat“ medallari sovrindori bo'lgan. O'zbekiston Xalq ta'limining Faxriy yorliqlari bilan hamda „Mustaqillik“ ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Mazluma Asqarova 2010-yilda Toshkent shahrida vafot etgan.

Savollarga javob bering:

1. Mazluma Asqarovadek olima bo'lishni orzu qilasizmi?
2. Uning tilshunoslikka oid qanday asarlari bor?
3. Unga qanday mukofotlar va unvonlar berilgan?

8-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.



– Iroda, sen qaysi tillarni bilasan?

– Men rus, o'zbek, ingliz tillarini bilaman. Kelajakda o'zbek va ingliz tillarini yanada mukammal o'rganmoqchiman, chunki o'zbek tili respublikamizning davlat tili, ingliz tili esa jahonda eng keng tarqalgan xalqaro til.

– Sen-chi, Jasur?

– Men qoraqalpoq, rus va ingliz tillarini bilaman. Qoraqalpoq tili mening ona tilim. Maktabda rus va o'zbek tillarini o'rganyapman. Ingliz tilini endi o'rganishni boshladim. ...

O'QITUVCHI

7-mashq. Akademik Azim Hojiyev haqida berilgan ma'lumotlar bilan tanishing. Ushbu ma'lumotlar asosida „Taniqli o'zbek tilshunosi“ mavzusida matn tuzing.



- 1933-yilda Toshkentda tug'ilgan;
- 1951 – 1956-yillarda hozirgi O'zMU (sobiq ToshDU) filologiya fakultetida tahsil olgan;
- filologiya fanlari doktori (1968), professor, O'zFA akademigi (2001);
- fe'lshunos olim;
- 15 ga yaqin monografik asarlar, darsliklar, lug'atlar muallifi.

9-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

ONA TILIM

Do'stga do'st-u dugona tilim,
Begonaga begona tilim.
Beshigimda yagona tilim
Ona tilim.

Qizlaridek iffatli tilim,
Qardoshiga izzatli tilim.
Tilim, tilim va yana tilim
Ona tilim.

Ota bo'lib otlangan tilim,
Ona bo'lib shodlangan tilim,
Bola bo'lib yodlangan tilim
Ona tilim.

„... lug'otit turk", „Qutadg'u bilik",
O'zbegimni o'stirgan ilik.
Odamiyga odamgarchilik
Ona tilim.

Ulus tilim, elat, xalq tilim,
Ulug' tilim, abad haq tilim.
Navoiyga zor, ilhaq tilim
Ona tilim.

Boshimda bosh bor ekan – borsan,
Ko'zimda yosh bor ekan – borsan,
Toki quyosh bor ekan – borsan
Ona tilim!

Sa'dulla Hakim

O'QITUVCHI

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. O'zbek tilshunoslari haqida ma'lumot bering.
2. Til haqida maqollardan misollar keltiring va ularga o'z munosabatingizni bildiring.
3. Modal so'zlarning vazifalari va qo'llanishi haqida ma'lumot bering.
4. **„BBB"** jadvalini to'ldiring. Mavzu bo'yicha nimalarni bilib olganingiz va nimalarni bilmoqchiligingiz haqida fikrlaringizni yozing.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilib olmoqchiman

Uyga vazifa. Berilgan maqollarning ma'nolarini izohlang va ularni bir-biriga bog'lab matn tuzing.

1. Til – dilning kaliti.
2. Tiling bilan ko'nglingni bir tut. *(Alisher Navoiy)*
3. Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – jon qozig'i.

XIV MAVZU: HASHAR

(Fikrning tartibi va kimga qarashliligini bildiruvchi modal so‘zlar)

1-DARS



1-topshiriq. Rasmda nimalar tasvirlangan? Tartib bilan so‘zlab bering.

2-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan savollarga javob bering.

O‘QITUVCHI

Qadimiy udum

Hashar sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biridir. Hashar ko‘pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birlashib harakat qilishidir. Qadim zamonlarda ota-bobolarimiz xo‘jalik ishlarini, ko‘pincha hashar yo‘li bilan bitirishgan.

Hasharlar oilaviy, mahalla hashari va umumxalq hashari kabi shakllarga ega. XIX asrning 30 – 40-yillarida xalq kuchi bilan bunyod etilgan Katta Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona, Toshkent kanallari, Bekobod GRES, Kattaqo‘rg‘on suv ombori umumxalq hashari bilan qurilgan. Umumxalq hashari, odatda, erta tongda karnay-surnaylar bilan boshlanadi, hasharchilarga katta qozonlarda osh pishiriladi, hasharchilarning ruhini ko‘tarish maqsadida san’atkorlar kelib, kuy-qo‘shiqlar ijro etishadi.

Savollar:

1. Hashar qanday tadbir?
2. Hasharda nima ishlar bajariladi?
3. Hashar yo‘li bilan qanday qurilishlar barpo etilgan?
4. Siz qaysi hasharlarda ishtirok etgansiz?

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan modal so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Navro‘z bayramidan oldin maktablar, tashkilotlar – barcha yerlarda, ..., umumxalq hashari o‘tkaziladi. 2. ..., hashardan so‘ng mahallalar, ko‘chalar, uylarning orastaligi barchani quvontiradi. 3. ..., singlim xonalarni yig‘ishtira qolsin, men hovlini tozalayman. 4. ..., hovlimizga gul va rayhonlardan ko‘proq ekamiz.

Foydalanish uchun so‘zlar: *shubhasiz, haqiqatan ham, mayli, albatta.*

Bilib oling!

Fikrning tartibi va izchilligini ifodalash uchun ***dastlab, avvalo, nihoyat, oxiri, birinchidan, ikkinchidan*** kabi tartibni bildiruvchi so‘zlar qo‘llanadi. Ular gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelib, to‘xtam bilan aytiladi va vergul bilan ajratib yoziladi. ***Masalan:*** *Uzoq yashash uchun,* ***avvalo****, sog‘lom bo‘lish kerak.*

2- mashq. Nuqtalar o‘rniga fikrning tartibi va izchilligini bildiruvchi modal so‘zlarni qo‘yib yozing.

Yakshanba kuni mahallamizda hashar o‘tkazildi. Hashar vaqtida, ... mahallamizdagi daraxtlarni oqladik, ... ko‘chadagi ariqlarni tozaladik. Bu ishlarni o‘g‘il bolalar bajarishdi. Qizlar esa maktab hovlisini va binoning ichini tozalashdi. Ular, ... sinf derazalari oynalarini, javonlar va partalarni artishdi, ... gullarga suv quyib, ..., maktab hovlisini ham supurib tozalashdi.

3- mashq. Berilgan jumlalarni izchillikda joylashtiring, bunda tartibni bildiruvchi so‘zlardan foydalaning.

Qurilish ishlarini bajarishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish kerak:

Uyning tomi yopiladi, poydevor quriladi, deraza va eshiklar o‘rnatiladi, pol qoqiladi, devorlari g‘isht bilan terib chiqiladi, shiftlari va devorlari oqlanadi.

Yangi korxona ochishda quyidagi ishlar ketma-ketlikda bajariladi:

Biznes-reja taqdim qilinadi, sarf-xarajat smetasi tuziladi, loyiha taqdim qilinadi, ish o‘rinlari aniqlanadi, loyiha tuziladi.

3-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

HASHARGA BORGANDA

Chorlab bizni hasharga
Ketgan edi xolamiz.
Maslahat qildik shunda:
– Boramizmi?
– Boramiz!

Yo‘q,
Yanglishgan ekanman,
Bog‘ga yetib kelgan kez,
Dovuchcha teramiz deb,
O‘rikka tirmashdik biz.

Ketmon oldim qo‘lga men,
Nodir esa belkurak.
Endi bog‘da kechgacha
Rosa ishlasak kerak.

Keyin ishkom oralab
Quvlashmachoq o‘ynadik.
Esdan chiqdi yumush ham,
Irg‘ishladik, quvondik.

– Oshga! –
Deya bir mahal
Ovoz berdi xolamiz.
Uyat! Ovqat yeyishga
Endi qanday boramiz?

S. Inoyatov

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

2-DARS

4-mashq. Matnni o‘qing. Qaysi gaplarga modal so‘zlarni qo‘shish mumkin? Modal so‘zlarni qo‘llab, gaplarni yozing.

Hashar va oshar

Xalqimizda hashar o‘tkazish udumi keng tarqalgan. Katta bayramlar, to‘ylar, tadbirlar oldidan hovli-ko‘chalarni tozalash, bog‘ barpo qilish, sumalak, halim kabi taomlar pishirish, yurtga osh berish hashar yo‘li

bilan bajariladi. Yangi qurilayotgan uylarning tomini yopish kabi qurilish bilan bog‘liq hasharlarga, odatda, erkaklar taklif qilinadi. Qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlar esa hashar bo‘layotgan xonadonga hasharchilar uchun biror taom pishirib chiqarganlar. Shuning uchun hashar bilan birga oshar ham urfga kirgan. Demak, birgalikda qilingan mehnatdan keyin osh yoki biror tansiq taomni birgalikda baham ko‘rish „Oshar“ deyiladi.

4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.



– O‘rtoq, yo‘l bo‘lsin? Qayoqqa ketyapsan?
– Hasharga. Tog‘am yangi uy qurdiryaptilar. Ukam ikkimiz yordamlashgani ketyapmiz.
– Hasharda yana kimlar bo‘lishadi?
– Bugun hasharchilar ko‘p bo‘ladi, chunki uyning tomi yopiladi.
– Sen u yerda nima ish qilasan?
– Kattalarga yordam beraman.
– Men ham birga borsam bo‘ladimi?
– Bo‘ladi. Faqat dadang bilan oyingdan ruxsat so‘rab chiq.



Bilib oling!

Fikrning kimga qarashliligini bildirish uchun ***menimcha, sizningcha, ularning fikricha, uning aytishiga qaraganda, ularning aytishicha*** kabi so‘zlar ishlatiladi. Ular gapda vergul bilan ajratib yoziladi. ***Masalan: Olimlarning fikricha****, tabiiy boyliklar behisob emas, ularni tejab sarflashimiz kerak.*

5-mashq. Matnni o‘qing. Ona tilingizga tarjima qiling. Nuqtalar o‘rniga modal so‘zlarni qo‘yib yozing.

Har yili bahorda maktabimizda tez-tez hashar o‘tkazib turiladi. Hashar vaqtida maktabimiz bog‘iga turli mevali daraxt ko‘chatlari ekiladi, daraxt tanalari oqlanadi, ariqlar tozalattiriladi. Bobomning ..., mevali daraxtlarni ekish savobli ish ekan. O‘qituvchimizning ..., bunday daraxtlar uzoq yillargacha hosil beradi. ... ..., mevali daraxtlarning foydali jihatlari ko‘p.

6- mashq. Maqollarning 2-qismini toping va modal so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1.	Mahallam –	qul bo‘lasan.
2.	Qo‘shning tinch,	mahalladoshlar sha’ni.
3.	Elga qo‘shilsang,	so‘ngra oshar.
4.	Eldan ayrilsang,	mehnat bilan obro‘ topiladi.
5.	Orasta mahalla,	gul bo‘lasan.
6.	Avval hashar,	Vatan ichra vatanim.
7.	El ichida dasturxon bilan emas,	sen tinch.

5- topshiriq. **„IKKI QISMLI KUNDALIK“** texnologiyasi asosida bajarishingiz kerak bo‘lgan ishlar va bajarib bo‘lgan ishlaringizni yozing. Tuzgan gaplaringizda modal so‘zlardan foydalaning.

Uyga vazifa. Yakshanba kuni uyda qanday yumushlarni bajarishingizni tartib bilan yozing.

3-DARS

7-mashq. Matnni foydalanish uchun berilgan so‘zlar bilan to‘ldiring.

O‘zbek mahallalari, ..., bir-biriga tutashib ketgan, eshigining oldiga gullar, daraxtlar ekilgan, bir yoki ikki qavatli uylardan iborat bo‘ladi. ... ushbu serfayz hovlilarning yana bir o‘ziga xosligi har kuni ertalab va kechqurun uyning atrofini yosh kelinlar-u qizlar suv sepib supurishidadir. Mahalla ko‘chalaridagi obodlik, orastalikni ko‘rib dilingiz quvnaydi. ..., uy a’zolarining qandayligi ostonasidan bilinadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *odatda, haqiqatdan ham, xalqimizning e’tiroficha.*

6- topshiriq. Berilgan savollarga modal so‘zlardan foydalanib javob yozing.

– Siz shu mahalla (ko‘cha)da yashaysizmi?

– ... .

– Qo‘shnilaringiz orasida boquvchisi yo‘q keksalar bormi?

– … .

– Siz ularga yordamlashib turasizmi?

– … .

– Mahallangiz (ko‘changiz)dagi eng namunali oila qaysi?

– … .



Adabiy o‘qish

UMUMXALQ HASHARI

Ko‘cha-ko‘y, xiyobon, bog‘-rog‘lar gavjum,
Barcha harakatda tinmaydi bir zum.
Yettidan yetmish yosh – yuzda tabassum,
Shanba va yakshanba hayriya hashar.
Kelinchakdek pardoz topar dov-daraxt,
Bayramona nafas hukmron albat.
Ko‘rolmaslar holi tangdir va karaxt,
Yomon boshin yer, yaxshilar oshar.
Bog‘dek sarishtadir hatto mozorlar,
Ko‘rkam go‘zal, fayzli barcha bozorlar.
Barcha ahil, inoq topmas ozorlar,
Har kim har kun savob ishlarga shoshar,
Umumxalq hashari sevinch ulashar!

Ne’mat Orif



Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Mamlakatimizda qaysi katta qurilishlar hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan?
2. Respublikamizda qaysi bayramlardan oldin umumxalq hashari o‘tkaziladi?
3. Uyingiz, ko‘changizni orasta saqlash uchun nimalar qilasiz?




Uyga vazifa. Savollarga javob bergan holda „Hasharda“ mavzusida ijodiy matn tuzing.

XV MAVZU: TEJAMKOR BO‘LAYLIK

(Gumon va taxmin bildiruvchi modal so‘zlar)

1-DARS





1-topshiriq. Berilgan tayanch birikmalar va rasmlardan foydalanib, ushbu ne’matlarning foydasi va hayotimizdagi o‘rni haqida suhbatlashing.

Tayanch birikmalar: *obi hayot, ichimlik suvi, suvga ehtiyoj, elektr chiroqlari, elektr asboblari, beminnat yordamchi, tabiiy qazilma boyliklar, iqtisod va isrof.*

1-mashq. Matnni o‘qing, ona tilingizga tarjima qiling.

Iqtisod va isrof

Iqtisod pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilishdir. „Zar qadrini zargar biladi“, deganlar. Mol-dunyo qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarflamaydilar, ammo o‘rni kelganda pul va mol-dunyoni ayamaydilar. „Tejamlining ishi bejamli“, deydi dono xalqimiz. Iqtisodga rioya qilgan kishilargina hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar. O‘rinsiz sarflash isrofni keltirib chiqaradi. Jumladan, ozgina suv sarflash mumkin bo‘lganda suvni juda ko‘p oqizib qo‘yish ham isrofgarchilik hisoblanadi. Jamg‘armani kerakli joylarga sarf eta bilish, yaxshi idora qila olish uchun isrofdan saqlanish lozim.

Siz isrofgarchilikning guvohi bo‘lganmisiz?



Bilib oling!

Balki, ehtimol, shekilli, chamasi, hoynahoy modal so‘zlari nutqda gumon va taxmin ma’nosini bildirish uchun ishlatiladi. Ular gap boshida, o‘rtasida va oxirida kelib, doimo vergul bilan ajratib yoziladi. Bunday gaplar ko‘pincha ***-dir*** qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi. ***Masalan:*** *U,* ***ehtimol****, bizni kutib o‘tirgan****dir****.*

2- mashq. Matnda berilgan modal so‘zlarni tushirib qoldirib, gaplarni qaytadan tuzing, ma’nolardagi farqni ko‘rsating.

Ehtimol, bu yil shaxmat musobaqalarida qatnashmasmiz. Keyingi yilgacha o‘quvchilarimiz yaxshiroq va puxtaroq tayyorlanar. Balki, o‘shanda sovrinli o‘rinlar olarmiz. Balki, birinchi o‘rin bizniki bo‘lar. Buning uchun har kuni shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi, shekilli. Hoynahoy, shunda biz g‘alaba qilarmiz.

3- mashq. Matnni yozing. Modal so‘zlarni aniqlab, qanday ma’no bildirayotganini ayting.

Tejamkorlik va isrofgarlik oqibatlari

Isrof faqat pul va molgagina emas, barcha ishlarga ham taalluqli. Donishmandlarning fikricha, hech bir ishda isrofgarlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Isrofgarlik ko‘p narsalarga ziyon yetkazadi. Birinchidan, mehnat qilib topilgan boylik va ne’matlar tejamkorlik bilan ishlatilsa, barakali bo‘ladi. Ikkinchidan, tejab-tergab jamlangan barcha moddiy ne’matlar kelajak avlodlarga ham yetib boradi. Jumladan, isrofgarlik oqibatida yer yuzida ichimlik suvi kamayib boryapti, ayrim noyob o‘simliklar va hayvonlar yo‘qolib boryapti.



Uyga vazifa. Atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalarga loqaydlik bilan qarash oqibatida yuz berayotgan isrofgarchiliklarga misollar keltiring va ularga o‘z munosabatingizni bildiring.

2-DARS

2-topshiriq. Matnni o‘qing va o‘z fikringizni bildiring.

Afsuski, gaz, elektr, suvning isrof qilinishi, zarur bo‘lmagan hollarda ham ishlatilishiga ayrim kishilar loqaydlik bilan qaraydilar. Ana shu loqaydlik oqibatida qancha-qancha bebaho boyliklar isrof bo‘ladi. Bir kunlik hayotingizni suvsiz, gazsiz, elektr chirog‘isiz tasavvur qilib ko‘ring-a? Xalqimizda „Yotib yeganga, tog‘ ham chidamaydi“, degan maqol bor. Har qancha boylik agar tejab ishlatilsagina uzoq vaqtga yetadi. Shuning uchun bu bebaho boyliklarimizni tejab sarflashimiz, atrofimizdagi hodisalarga loqayd munosabatda bo‘lmasligimiz kerak. Loqaydlik isrofgarlikka olib keladi.



3-topshiriq. **„VENN“** diagrammasi asosida gaz, suv, elektr toki qayerlarda ishlatilishini, ularni isrof qilish qanday oqibatlarga olib kelishini yozing.



Bilib oling!

Baxtimizga, hayriyat modal so‘zlari quvonishni, **afsus, afsuski, esiz** modal so‘zlari esa achinishni bildirib keladi. ***Masalan: Baxtimizga****, Vatanimiz istiqlolga erishdi.* ***Afsuski****, buni ayrim vatandoshlarimiz ko‘rmadilar.* ***Esiz****, ertaroq kelsam bo‘lar ekan.*

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan modal so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.

1. ..., hamma uyda ekan. 2. Biz tanish emas edik, ... 3. Bola, ..., 6–7 yoshlarda edi. 4. ... biznikiga borarmiz. 5. ..., hamma yig‘ilib bo‘lgan edi. 6. ..., barcha isrofgarlikka qarshi kurashmaydi. 7. Loqayd insonlar ham bor, ... 8. ..., avtobus hozirgina ketdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *shekilli, afsuski, taxminan, baxtimizga, balki, albatta, hayriyat, esizgina.*

4-topshiriq. Quyidagi vaziyatli topshiriqlarni bajaring va to‘g‘ri javoblarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Siz koridordan o‘tib ketyapsiz, bir sinfxona chirog‘i yonib turibdi. Siz qanday yo‘l tutasiz?

A. E’tibor bermaysiz.

B. Chiroqni o‘chirasiz.

D. Shu sinf o‘quvchilarini ogohlantirasiz.

2. Issiqlik manbalari, ayniqsa, gazni o‘rinsiz ishlatish, ya’ni isrof qilish oqibati nimalarga olib keladi?

A. Ushbu zaxira tez tugaydi.

B. Kelajak avlodlar oldida uyatga qolamiz.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.



Uyga vazifa. Fikrga munosabat bildiruvchi so‘zlardan foydalanib, „Suv – hayot manbai“ mavzusida matn tuzing.

3-DARS

5- mashq. Matnni o‘qing. Modal so‘zlar ishtirok etgan gaplarni yozing.

Uch buyuk ne’mat

Uch buyuk ne’mat: havo, suv va nonsiz hayot yo‘q. Ota-bobolarimiz suvni juda muqaddas bilib, uni tejashga katta e’tibor berganlar. Shuning uchun bir tomchi suvni ham tejab ishlatishimiz kerak. Afsuski, ba’zan ko‘chalarda rezina quvur orqali suv oqizib qo‘yilganiga ko‘zimiz tushadi. Yoki vodoprovod suvidan o‘simliklarni sug‘orish, mashina yuvish holatlariga ko‘p duch kelamiz. Ichimlik suvini behuda isrof qilish og‘ir oqibatlarga olib keladi. Baxtga qarshi, respublikamizning ayrim hududlarida ichimlik suvi kamayib boryapti. Jumladan, Orol dengizining qurishi ushbu mintaqada suvga bog‘liq muammolarni yuzaga keltirdi. Demak, ushbu bebaho ne’matlarni tejab, asrab ishlatishimiz kerak.

5- topshiriq. Matnni o‘qing va davom ettiring.

Mutaxassislarning guvohlik berishlaricha, hozir yer kurrasidagi suvning bor-yo‘g‘i 2 foizigina iste’molga yaroqli hisoblanar ekan. Vaholanki, bundan 4–5 yil oldin bu ko‘rsatkich 2,5 foizni tashkil etar edi. Agar suvga nisbatan loyqaydlik shu tarzda davom etaversa, ...

Siz nima deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing va matnni davom ettiring.



Adabiy o‘qish

6-topshiriq. Matnni o‘qing, berilgan savollarga javob bering.

Suvning xizmati

Ertalab uyqudan uyg‘onishimiz bilan suv bizga xizmat qilishni boshlaydi. Avval tishlarimizni, yuz-qo‘limizni tozalaydi. Nonushta qilishimiz uchun issiqqina choy ichib olishsin, deb „kuyib-pishadi“. Nonushtada ishlatilgan choynak, piyola, tarelka, qoshiqlarni ozoda bo‘lsin, deb tozalaydi.

Maktabda tanaffusga chiqqanimizda chanqab qoldingmi, deb yana xizmatga yuguradi. Maktabdan qorni ochib keladi, deb bizdan oldin uyga chopadi.

Biz dam olayotganimizda hovlidagi ekinlarga xizmat qiladi va uydagi boshqa yumushlarni bajarish uchun ishga kirishadi. Kechki ovqat bilan birga qozonda qaynaydi. Ovqatlanishdan oldin qo‘llaringizni yuvib oling, deb bizga yuguradi. Ovqatlanib bo‘lganimizdan keyin yana biz ishlatgan idishlarni, qozon-tovoqni tozalaydi. Shu bilan suvning xizmati tugadi, deb o‘ylaysizmi? Yo‘q. Uyquga yotishimizdan oldin yana hammamizga xizmat qiladi. Bu suvning oiladagi bir kunlik xizmati. Uning yana boshqa vazifalari ham juda ko‘p. Qani, o‘ylab ko‘ring-chi, suv yana qanday vazifalarni bajaradi?



Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Tabiatni muhofaza qilish bilan kimlar shug‘ullanadi?
2. Maktabingiz, ko‘changiz, mahallangizda tabiiy boyliklarimizni asrash va tejashga oid qanday tadbirlar o‘tkaziladi?
3. Oilangizda nimalarni tejashga e’tibor beriladi? Buni kim nazorat qiladi?
4. Biz suv, elektr va gazsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Ularni tejab ishlatmaslik qanday oqibatlarga olib keladi? O‘z fikringizni yozing.



Uyga vazifa. „Suvning xizmati“ matni asosida uyda, maktabda suvdan qanday maqsadlarda foydalanishingizni yozing.

XVI MAVZU: O‘ZBEKISTONNING TABIIY BOYLIKLARI

(Fikrni xulosalashda qo‘llanadigan modal so‘zlar)

1-DARS



1-topshiriq. Rasmda nimalar tasvirlanganini ayting. Berilgan tayanch birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Tayanch birikmalar: *tabiiy boyliklar, yer osti boyliklari, qazilma boyliklar, sanoat uchun xomashyo, noyob topilmalar, qo‘shma korxona.*

2-topshiriq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

– Bolalar, ayting-chi, tabiiy boyliklar necha xil bo‘ladi?

– …

– Yer osti boyliklariga nimalar kiradi?

– …

– Yer usti boyliklariga-chi?

– …

– Tabiiy boyliklarga qanday munosabatda bo‘lish kerak?

– …

– Respublikamizda qanday sanoat korxonalari mavjud?

– …

1-mashq. Matnni o‘qing. **„KLASTER“** usulini qo‘llab, yer osti va yer usti boyliklarini yozib chiqing.

Tabiiy boyliklar 2 xil bo‘ladi: yer osti va yer usti boyliklari. Yer osti boyliklariga gaz, neft, oltin, ko‘mir va turli metallar kiradi. Ularni olimlar va konchilar tadqiq qiladilar, izlab topadilar, qazib oladilar,

so‘ngra ishlab chiqaradilar. Yer usti boyliklariga esa daryo, ko‘l va dengizlar; o‘rmonlar va ekinzorlar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. Biz ushbu boyliklarni asrab-avaylasak, ulardan samarali foydalansak, ular yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qiladi.



Bilib oling!

Fikrni xulosalashda ***demak, xullas, umuman, nihoyat, qisqasi*** kabi so‘zlar qo‘llanadi. Ular, asosan, gapning boshida keladi va vergul bilan ajratib yoziladi. ***Masalan:*** *Yer osti boyliklari sanoatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.* ***Demak****, yer osti boyliklarini qidirib topish va qazib olish dolzarb vazifa.*

2- mashq. Nuqtalar o‘rniga fikrni xulosalashda qo‘llanadigan so‘z va birikmalarni qo‘yib ko‘chiring. Zarur tinish belgilarini qo‘ying.

..., tabiiy boyliklarning mamlakat rivojida ahamiyati katta. Ularni asrab-avaylashga bee’tibor bo‘lish esa yomon oqibatlarga olib keladi. Jumladan, Amudaryo va Sirdaryo suvlarini me’yoridan ortiq sarflash oqibatida Orol dengiziga suv yetib bormadi. ... Orol quriy boshladi. ..., tabiiy boyliklardan to‘g‘ri foydalanish kerak. Baxtimizga, olimlar Orolni tiklash yo‘lini topdilar. ..., tabiiy boyliklarni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.

Foydalanish uchun so‘zlar: *umuman, demak, qisqasi, xullas.*

3- mashq. Matnni o‘qing va berilgan savollarga javob yozing.

O‘zbekistonning tabiiy boyliklari

O‘zbekiston – qazilmalarga boy o‘lka. O‘zbekiston hududida 3 ta yirik ko‘mir koni – Angren, Sharg‘un, Boysun konlari mavjud. O‘zbekistonda mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, gaz va boshqa foydali qazilmalar zaxirasi yetakchi o‘rinda turadi. Tuz, alyuminiy va qimmatbaho toshlar, ayrim nodir elementlar zaxirasi ham ko‘p. Ayniqsa, Zarafshon vodiysidagi oltin konlari O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda nihoyatda katta o‘rin tutadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ushbu boylikni qazib olish keng yo‘lga qo‘yildi va sanoat rivojlandi.

Savollar:

1. O‘zbekistonda qazilma boyliklarining qanday turlari bor?
2. Eng yirik konlar qaysi viloyatlarda joylashgan?
4. Yer osti boyliklari O‘zbekiston sanoatining rivojlanishida qanday o‘rin tutadi?

Uyga vazifa. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklarning ro‘yxatini tuzing.

2-DARS



3-topshiriq. Guruhlarga bo‘lining va yer osti boyliklarining imkoniyatlari haqida taqdimot tayyorlang.

4-mashq. Qavs ichidagi savollarning o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlar va birikmalardan mosini qo‘yib yozing. Matnni davom ettiring.

Zangori olov

Gaz yer osti qazilma boyliklaridan biri bo‘lib, uni *(qanday?)* deb ataydilar. Hozirgi kunda gaz deyarli har bir xonadonga kirib borgan. Undan uylarni isitishda, ovqat tayyorlashda va hatto transport vositalarida *(nima sifatida?)* foydalaniladi. U *(qanday?)* yoqilg‘i hisoblanadi. Respublikamiz gaz zaxiralariga boy. Hozirgi kunda respublikamizning barcha shahar va qishloqlarini, hatto eng chekka qishloqlarini ham *(nima bilan?)* ta’minlash ishlari olib borilmoqda. Jumladan, bizning shahrimizda (qishlog‘imizda) ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: *zangori olov, yoqilg‘i sifatida, tutunsiz, hidsiz va eng qulay, gaz bilan.*

4-topshiriq. Berilgan javoblarga mos savollar qo‘ying va o‘zaro suhbatlashing.

– … ?

– Respublikamizda gaz zaxiralari ko‘p.

– … ?

– Gaz yer ostidan parmalab qazib olinadi.

– … ?

– Qazib olingan gaz quvurlar orqali tortib olib kelinadi.

– … ?

– Gaz arzon va qulay yoqilg‘i hisoblanadi.

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Berilgan savollar asosida suhbatlashing.

Toshkent viloyati sanoati rivojlanishi jihatidan respublikada birinchi o‘rinda turadi. Toshkent shahrining sharqiy tomonidagi Olmaliq, Angren, Ohangaron shaharlari hududida mamlakatning barcha qora metallurgiyasi, rangli metallurgiyaning esa bir qismi joylashgan. Olmaliq rangli metallurgiya va kimyo sanoatining yirik markazlaridan biridir. Bu yerda kon-metallurgiya zavodi va kimyo zavodi ishlab turibdi. Angren shahri O‘rta Osiyoda yirik ko‘mir koni negizida barpo etilgan. Ohangaron qurilish materiallari, ayniqsa, sementi bilan mashhur. Bekobod O‘rta Osiyoda yagona qora metallurgiya markazi hisoblanadi.

(*„Ensiklopedik ma’lumotnoma“dan)*

Savollar:

1. Toshkent viloyati hududida qanday sanoat shaharlari joylashgan?
2. Olmaliq shahrida qanday konlar mavjud? Bekobodda-chi?
3. Angren shahri qaysi kon negizida barpo etilgan?
4. Ohangaronda nimalar ishlab chiqariladi?
5. Siz yashaydigan viloyat hududida qanday tabiiy boyliklar mavjud?

5-mashq. Mavzu bo‘yicha olgan ma’lumotlaringiz asosida matnni davom ettirib yozing.

Atrofimizni qurshab olgan tabiatdagi barcha narsalar va jonzotlar tabiiy boyliklar hisoblanadi. Ularga daryolar, ko‘llar, dengizlar, o‘rmonlar, hayvonot dunyosi kiradi. Biz ushbu boyliklarni asrab-avaylasak, ulardan samarali foydalansak, ular yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Olimlarning fikriga qaraganda, ...

Uyga vazifa. „Geografiya“ fanidan olgan bilimlaringiz asosida O‘zbekiston yer osti boyliklari haqida ma’lumot tayyorlang.

3-DARS

6-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar asosida suhbatlashing.

Navoiy viloyati respublikamizning yetakchi sanoat markazlaridan biridir. Viloyat hududida tabiiy boyliklardan volfram, fosfor, kvars, qum, sement, ohak bor. Oltin konlari mavjudligi tufayli bu yerda oltin sanoati yuzaga keldi. Navoiyda respublikada eng yirik sanoat korxonalari, Navoiy GRES, „Navoiyazot“, „Elektrokimyo“, „Nurotamarmar“ ishlab chiqarish majmualari ishlab turibdi. Shular qatorida kon-metallurgiya chiqindilaridan oltin olish uchun O‘zbekiston – Amerika „Zarafshon-Nyumont“ qo‘shma korxonasi tashkil etilgan.

(*„Ensiklopedik ma’lumotnoma“dan)*

Savollar:

1. Navoiy viloyati nima uchun respublikamizning yetakchi sanoat markazlaridan biri hisoblanadi?
2. Navoiyda qanday yirik sanoat korxonalari barpo etilgan?
3. Respublikamizda yana qanday yirik sanoat korxonalari bor?

7-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.



– Sen qaysi shahardansan?
– Men Chirchiq shahridanman.
– U qayerda joylashgan?
– Chirchiq Toshkent viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan.
– Shahringda qanday sanoat korxonalari bor?

– Chirchiq – kimyo sanoati shahri hisoblanadi. Shahrimizda Markaziy Osiyoda eng yirik kimyo kombinati mavjud. U yerda dori-darmonlar, qishloq xo‘jaligi uchun kerakli o‘g‘itlar ishlab chiqariladi. Shahrimizda juda chiroyli, ko‘rkam binolar, xiyobonlar bor. Tog‘li hududda joylashgani uchun dam olish maskanlari ham ko‘p. Shuningdek, Chirchiqda harbiy bilim yurti ham mavjud. O‘zing qaysi shahardansan? Shahringda nimalar bor?

– Men...

6- mashq. Foydalanish uchun berilgan so‘zlarni qo‘llab, gaplarni to‘ldirib yozing.

Vatan bu, ..., tug‘ilib o‘sgan yurtimiz, qadim tariximiz va boy madaniyatimizdir. ..., har birimiz Vatanimiz oldidagi o‘z burchimizni bajarishimiz, uni sevib, ardoqlab asrashimiz kerak. ..., unga xizmat qilish hammamizning burchimizdir.

Foydalanish uchun so‘zlar: *demak, shubhasiz, xulosa qilib aytganda.*



Adabiy o‘qish

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo!
Nechun Vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho?!
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab,
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman.
Nechun ardoqlayman tuprog‘ini men,
O‘paman tuprog‘ing, bebaho Vatan!
Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng,

Nechun u tuproq, deb yig‘ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?
Xo‘sh, ne uchun sevaman O‘zbekistonni?
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go‘zal so‘zlardan oldin
Men ta’zim qilaman ona Vatanga!

Abdulla Oripov

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Keyingi yillarda respublikamizda qanday yirik korxonalar faoliyat olib bormoqda?
2. Respublikamizda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassislarning fikri qanday?
3. Tabiiy boyliklarni tejash uchun nimalar qilish kerak?
4. Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklar haqida to‘plagan ma’lumotlaringiz asosida jadvalni to‘ldiring.

Yer usti boyliklari	Yer osti boyliklari
…	…

Uyga vazifa. “Georgafiya”, “Ximiya”, “Zoologiya” fanlaridan olgan bilimlaringiz asosida tabiiy boyliklar, ularning foydali tomonlari haqida kichik matn tuzing.

Matn namunasi:

Mening orzum

Bizning mamlakatimiz yer osti va yer usti tabiiy boyliklariga boy o‘lka. Daryolar, ko‘llar, suv havzalari, o‘rmonlar, hayvonot dunyosi yer usti boyliklari hisoblanadi. Ushbu boyliklarni asrab-avaylash, ekologik toza saqlash ulardan oziqlanayotgan o‘simliklar, qushlar, baliqlarning ham asrab qolinishiga yordam beradi. Keyingi yillarda respublikamizda baliqchilik rivojlanmoqda. Baliq nihoyatda foydali bo‘lib, unda insonning sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan fosfor ko‘p. Fosfor miyamizning ishlash faoliyatini, ko‘rish a’zolarimizni yaxshilanishiga yordam beradi. Mening otam baliqchilik bilan shug‘ullanadilar. Men ham kelajakda baliqchilik sanoati sohasida tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqchiman.

XVII MAVZU. MARDLIK – MANGULIK

(Ko‘makchilar va yuklamalar, ularning imlosi va qo‘llanishi)

1-DARS



GUL KELTIRIB QO‘YAMAN

Bog‘da katta haykal bor,
Miltiq tutgan qahramon.
Uni ko‘rsam mard bobom
Yodga kelur har qachon.
Jangda o‘tgan bobomni
Men xotirlab yuraman.
Doim haykal poyiga
Gul keltirib qo‘yaman.

Nazarmat

1-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va rasm asosida o‘zaro suhbatlashing.

1-mashq. Matnni o‘qing. Matnga sarlavha toping va berilgan savol asosida davom ettiring.

Har bir inson o‘z Vatanini sevishi, uning uchun qayg‘urishi, zarur bo‘lganda uni himoya qilishi kerak. O‘z xalqi bilan faxrlanadigan, xalqining farovonlikda yashashi uchun harakat qiladigan insonlar chinakam mard va vatanparvar insonlardir. Qiyinchilik kunlarida o‘z yurtini tashlab ketadiganlarni, faqat o‘zi haqida o‘ylaydiganlarni xalq nomard insonlar, deb biladi. Tariximizda Vatani uchun jonini fido qilgan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi insonlar yashab o‘tishgan. Bunday mard insonlar mangu, barhayot bo‘lib qoladilar.

Yana qanday mard va jasur insonlarni bilasiz?

Bilib oling!

Mustaqil so‘zlardan keyin kelib, ularning boshqa so‘zlarga tobelanishini bildiradigan yordamchi so‘zlar **ko‘makchilardir.**

Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘ladi va shu so‘z bilan birga gapning bo‘lagi bo‘lib keladi. ***Masalan:*** *Men do‘stim bilan kutubxonaga bordim. – (kim bilan? – do‘stim bilan – to‘ldiruvchi). Darsdan keyin (qachon? – hol) maktab hovlisiga to‘plandik.*

Sof ko‘makchilar	Vazifadosh ko‘makchilar
bilan, uchun, kabi, singari, sayin, orqali, qadar	*yon, ost, ust, ich, tepa, o‘rta, orqa, tag, tomon, qaraganda, qarab, bo‘ylab, ko‘ra, tortib, so‘ng, keyin, avval*

2- mashq. Berilgan ko‘makchilarni sof ko‘makchi va vazifadosh ko‘makchilarga ajratib, yuqorida berilgan jadval asosida to‘ldiring.

Qarab, sari, sayin, bo‘ylab, uchun, yonida, tashqari, bilan, singari, kabi, tomon, so‘ng, tortib, oldin, keyin, qaraganda, qadar, haqida, yon, ust, ost, ko‘ra, ich, tepa, o‘rta, orqa, tag, avval.

3- mashq. Gaplarni o‘qing. Ko‘makchilarni topib, bog‘langan so‘zi bilan ko‘chirib yozing.

1. Biz sinf rahbarimiz bilan birga muzeyga bordik. 2. Bu sovg‘ani ukam uchun oldim. 3. Uzoqdan samolyotning qanotlari kumushday yaltirab ko‘rinardi. 4. Bola kun sayin, soat sayin o‘sib borardi. 5. Bog‘dagi har bir ko‘kat – nozik maysalardan katta daraxtlarga qadar – barchasi uning uchun juda aziz. 6. Inson uchun fazl-u kamol lozim. 7. Men akam bilan faxrlanaman.

4- mashq. Qavs ichidagi so‘roqlarga javob bergan holda gaplarni yozing.

Yeri, eli, Vatani uchun qayg‘urmaslik, loqayd munosabatda bo‘lish (qanday oqibatlarga olib keladi?)

Biz Orolning kelajagiga loqaydlik bilan qaradik, (natijada nima yuz berdi?)

Yer osti boyliklarimizni asrab-avaylash haqida o‘ylamasak, (oqibati qanday bo‘ladi?)

Agar chegaralarimizni ziyraklik bilan qo‘riqlamasak, (oqibati qanday bo‘ladi?)

Ichimlik suvini uvol qilmaslik haqida jiddiy kurashmasak, (oqibatda nima bo‘lishi mumkin?)

2-topshiriq. She’rni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

VATAN MADHI

Posbonimiz, farzandimiz
Ona diyorning,
Mardlarimiz, payvandimiz
El ahdi borning.
Tinchlik madhi yuraklarda
Yangraydi, do‘stlar.
Quyosh bo‘lib qit’alarni
Qamraydi, do‘stlar.

Unutilmas jang yillari
Mardlar to‘kkan qon.
Unutmasin g‘animlar ham
Uni hech qachon.
Sergak, ogoh, fidoyimiz,
Vatan jonajon.
Posbonimiz, mardlarimiz
Tinch bo‘lsin jahon!

Nazarmat



Uyga vazifa. She’rni yod oling.

2-DARS

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Ko‘makchilarning qo‘llanishini tushuntiring.

Har bir inson o‘z Vatanini sevadi va o‘zi tug‘ilgan yurtini ona-Vatani deb biladi. Mardlik va mangulik insonning o‘z Vatanini himoya qilishi, uning shon-shuhratini oshirish yo‘lidagi fidoyiligi, Vatanga sadoqati bilan ham o‘lchanadi. Biz Vatanni beqiyos boyliklari, qulay shart-sharoitlari uchungina sevmaymiz. Bu haqida Abdulla Avloniy shunday degan edilar: „Biz turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimoslar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi tiriklik oson yerlarga o‘z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi“.

4-topshiriq. Matnni o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring.

Ayrim hollarda tengdoshlarimiz „vatanparvarlik“ so‘ziga jiddiy qaramay, aksincha, uni salbiy ma’noda qo‘llaydilar. Yaxshi o‘qishga

harakat qiluvchi, jamoat ishlarida faol ishtirok etuvchi, yangiliklarni joriy etishga harakat qiluvchi o‘quvchilarga nisbatan „vatanparvar“, deb istehzo qiladiganlar ham topiladi.



Bilib oling!

Yuklamalar so‘z yoki gaplarga qo‘shilib, so‘roq, taajjub, ta’kid, ayiruv, kuchaytiruv, inkor kabi qo‘shimcha ma’nolarni bildiradi. ***Masalan:*** *Yig‘ilishga faqat Murod kelmadi. Kek-salarga yordam berish hammamizning burchimiz-ku!*

Ajratib yoziladigan yuklamalar	Qo‘shib yoziladigan yuklamalar	Chiziqcha bilan yoziladigan yuklamalar
faqat, ham	*-gina(-kina, -qina), -mi*	*-chi, -a(ya), -ku, -da, -u(-yu), -da*

5- mashq. Ko‘chiring. Yuklamalarning tagiga chizing.

1. Yosh bo‘lsa-da, barchaga bosh bolam. 2. Axir bir tup daraxt ham xalq boyligi-ku! 3. Yomg‘ir yog‘ib turgan bo‘lsa-da, stadiondan hech kim ketmadi. 4. Biz-ku, mayli, kun bo‘yi ishlab kelganlarga qiyin. 5. Sizlar kelasizlar-ku, biz quvonmaymizmi?! 6. Aytishga aytdim-ku, lekin to‘g‘ri qildimmi, deb o‘ylab qoldim. 7. Televizorni faqat kechqurunlarigina ko‘radi.

6- mashq. Gaplarni foydalanish uchun berilgan birikmalardan mosini qo‘yib to‘ldiring.

1. Mard odam xatarga duch kelganda, ...
2. Kimki nomardlik qilsa, ...
3. Do‘sting yuzta bo‘lsa ham kam, ...
4. Yuz ming otliq qila olmagan ishni, ...
5. Kimki ilmli bo‘lsa, ...

Foydalanish uchun birikmalar: *uni jasorat bilan yengib o‘tadi; el orasida izza bo‘ladi; dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p; bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin; hayotda obro‘-e’tibor topadi.*

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Mardlik va nomardlikka oid xususiyatlarga izoh bering.

Mardlik yuksak fazilat, nomardlik esa tubanlikdir. Xalqimizda „Mard bilan yaqin bo‘lsang, yetarsan murodga, nomard bilan yaqin bo‘lsang, qolarsan uyatga“, degan naql bor. Demak, mard insonlar bilan do‘st tutinish kerak. Nomard insonlar esa do‘stlikning qadriga yetmaydi. Mardlikka nomardlik bilan javob bergan insonlar el nazaridan qoladi. Mard insonlar xalq orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lib, ular xotirasida abadiy qoladilar. Mardlik mangulikdir.

6-topshiriq. She’rni o‘qing va mazmunini tushuntiring.

DOVYURAKLAR

Bolalar doim topqir bo‘lsalar,
Chaqqon-u epchil, chopqir bo‘lsalar.
Ko‘zlari o‘tkir merganlar kerak,
Mardona ko‘krak kerganlar kerak.
O‘shanday avlod bizning o‘zimiz,
Aytib turadir so‘z-u ko‘zimiz,
Temur avlodi bizning o‘zimiz.
Sog‘lom, barkamol avlod bo‘lsalar,
Ilm-u hunarga, kuchga to‘lsalar.
Ular Vatanga tan-jon, yurakdir,
Dovyurak, odil farzand kerakdir.

Po‘lat Mo‘min

Uyga vazifa. She’rni yod oling.

3-DARS

7-mashq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Mardlik – mangulik

Mardlik – bu ezgu tuyg‘u. U insonning oliy fazilati bo‘lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat va vafo mujassamlashgan. Hayotda mard insonlar bilan birga nomard, qo‘rqoq, sotqin insonlar ham uchrab turadi.

Mard kishida haqiqat, adolat, nomardlarda esa yovuzlik, xudbinlik kabi illatlarni uchratish mumkin. Mard kishi bergan va'dasining ustidan chiqadi. Mard insonlar har qanday vaziyatda ham odamlar uchun jonini berishga tayyor turadilar, o'zlaridan yaxshi nom qoldirib, mangulikka daxldor bo'lib qoladilar. Shuning uchun mardlik – mangulik deyiladi.

Savollar:

1. Qanday odamlarni mard insonlar deyish mumkin?
2. Nima uchun mard insonlar mangulikka daxldor bo'lib qoladilar?
3. Siz nomi abadiy qolgan insonlardan kimlarni bilasiz?

8- mashq. Nuqtalar o'rniga ***-ku, -da, -u(-yu), ham*** yuklamalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Nok shirin bo'ladi... , ammo hosilga kech kiradi... . 2. Bu ishni sen... uddalarsan, biroq ukang eplarmikan? 3. Yomg'ir yog'sa nima bo'pti! Tosh yog'ayotgani yo'q... axir! 4. Jahongir yugurganicha maktabga ketdi. O'qituvchisiga endi kechikmayman, deb so'z bergan edi... 5. Bog' tinch. Faqat chumchuqlarning chirqillashi... tinmas edi.

7- topshiriq. Yuklamalarni toping va mos ohangda o'qing. Yuklamalarning yozilishiga ahamiyat bering.

1. Bizning maktabimiz yangi. Sizning maktabingiz-chi?
2. Mahallamiz juda obod. Sizning mahallangiz ham shunday-a?
3. Bizning ko'chamiz chiroyli. Sizning ko'changiz hammi?
4. Ertaga uyimizga mehmonlar kelishmoqchi. Siz ham kelasiz-a?

9- mashq. Har bir gapni namuna asosida yuklamali va yuklamasiz shaklda yozing. Ma'nolaridagi farqlarni ko'rsating.

Namuna: Ko'chaga suv sepib bo'ldim – ko'chaga suv sepib bo'ldim-ku!

1. Topshiriqni to'liq bajarmabsan. 2. Jamshid dik etib o'rnidan turib, otaxonga joy berdi. 3. Hammamiz shu xushxabarni kutib turgan edik. 4. Albatta, ulgurishadi, axir yoshlar serg'ayrat bo'ladi. 5. Mahallamizda qo'shnilarning qanday ahilligini bilasiz. 6. Sen qachon katta bo'lasan, qachon mening qo'limdan ishimni olasan.

Adabiy o‘qish

Chinakam mardlik

Hayotda kutilmagan voqealar bo‘lib turadi. Ba’zan bunga o‘zimiz sababchi bo‘lamiz. Yaqinda qo‘shnimiz Shavkatjonlarning uyida yong‘in bo‘ldi. Tush payti ularning hovlisida birdan: „Ey, odamlar, yordam bering! Voy, dod!“ degan baqiriq eshitilib qoldi. Qo‘shnilar tezda yordamga chopishdi. Lekin olov gurullab yonar, unga yaqin borishning iloji yo‘q edi.

Shavkat esa dod solib, uyda ukasi qolib ketganini aytib yig‘lardi. Ammo uyga hech kim kira olmadi. Kimdir chaqirgan, shekilli, yeldek uchib o‘t o‘chirish mashinasi yetib keldi. Azamat o‘t o‘chiruvchilar zudlik bilan ishga tushdilar. Ular chaqqon, epchil harakatlari bilan olov – tilsiz yovga qarshi kurash boshlashdi. Ulardan biri darhol alanga ichiga kirib, Shavkatning besh yashar ukasini ko‘rpaga o‘rab, yong‘indan bezarar olib chiqdi. Shavkatning ota-onasi shoshib, hovliqib yetib kelganda, o‘t o‘chirib bo‘lingan edi.

Jasorat, mardlik faqat jang maydonlarida emas, kundalik turmushda ham kerak bo‘ladi.

Savollar:

1. Nima uchun Shavkatjonning uyida yong‘in chiqdi?
2. Shavkat nima uchun dod solib yig‘ladi?
3. O‘t o‘chiruvchilarning jasorati nimada?
4. Siz shunday voqealarning guvohi bo‘lganmisiz?

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. „Mardlik – mangulik“ deganda nimani tushunasiz?
2. Najmiddin Kubroning jasorati haqida gapirib bering. Yana qaysi mard insonlar haqida eshitgansiz?
3. Texnologiyasi asosida ko‘makchilar va yuklamalarning farqli xususiyatlarini tushuntiring.

Uyga vazifa. Mardlik haqida maqollar, hikmatli so‘zlarni toping va yod oling.

XVIII MAVZU. KELGUSI REJALARIM

(Undov so‘zlar, ularning qo‘llanishi va imlosi)

1-DARS





1-topshiriq. Berilgan rasm asosida hikoya tuzing. Hikoyani tuzishda quyidagi so‘zlardan foydalaning: *dam olish, oromgoh, tabiat, tong, maza qilib.*

2-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va sinfdoshlaringiz bilan davom ettiring.



– Men dam olish oromgohida dam olaman. U yerda katta soy bor, maza qilib cho‘milaman.

– Men esa ukam bilan qishloqqa – buvamlarnikiga ketaman. U yerda tog‘am bilan yaylovda qo‘y-qo‘zilarga qaraymiz. Keng yaylovda qo‘y-qo‘zilarni „qurey-qurey“ deb haydash menga juda yoqadi.

– Men musobaqalarga tayyorlanish uchun olimpiya sport majmuasiga boraman.

– Men...

1-mashq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Yoz – eng soz fasl

Yoz! Bu fasl haqida qancha gapirsang oz! Bog‘larga bir qarang! Olma, gilos, o‘riklar pisha boshlayapti. Ishkomlarda chillaki uzumlarga rang kiryapti. Polizlarda handalaklar dum beryapti. Yozning ilk ne’mati qulupnayni aytmaysizmi?! Qulupnay, handalaklar pishganda dalaga yaqin borsang, hididan dimog‘ing yayraydi.

Ko‘m-ko‘k, zilol suvlar, uzoq-uzoqlardagi tog‘larning cho‘qqilari „Bag‘rimga kel!“ deb imlayotganday! Ha, yoz – soz fasl. Har yili yozni, dam olish oromgohlarini intiqlik bilan kutamiz. Biroq yoz faqat dam olish fasligina emas, mehnat fasli hamdir. Yozning issiq kunlarida shirin-shakar mevalar pishadi, polizlarda xilma-xil sabzavotlar yetiladi, bularning barchasi tinimsiz mehnatning natijasidir. Yoz faslida uy solish, xonalarni ta’mirlash kabi ishlarni bajarish ham rejalashtiriladi. Farzandlar dam olish bilan birga uy yumushlarida ota-onalariga ko‘maklashadilar.



Bilib oling!

Eh, oh, uh, voy, dod, hoy, voy-bo‘, balli, ofarin, tasanno kabi so‘zlar his-hayajon undovlari sanaladi. Ular undov gaplar tarkibida kelib, his-hayajon ohangi bilan aytiladi. Bunday gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi. ***Masalan: Eh,*** *tabiat qanday go‘zal!* ***Balli,*** *mard o‘g‘lonlar!*

2- mashq. Gaplarni ko‘chiring va undov so‘zlarni topib, imlosini tushuntiring.

1. Hoy, kim bor, yordam bering! 2. Oh, qanday go‘zal bu olam! 3. Ofarin, mana buni chinakamiga mardlik desa bo‘ladi! 4. Voy-bo‘, bo‘ylaring buncha o‘sib ketibdi, bolam! 5. Oh-oh, juda mazali ekan! 6. Eh-he, qachon men akamdek bo‘laman!

3- mashq. Berilgan gaplarga his-hayajon so‘zlarni qo‘shib, undov gaplarga aylantirib yozing.

Namuna: Vuy, bu manzaraning go‘zalligini ko‘ring!

1. Bu manzaraning go‘zalligini ko‘ring. 2. Suv buncha muzdek bo‘lmasa. 3. Yoz qanday soz. 4. Men buni bilmagan ekanman. 5. Harbiy kiyim juda yarashibdi. 6. Senga nima bo‘ldi? 7. Bu ishing juda yaxshi bo‘libdi. 8. Bularni nima qilasan?



Uyga vazifa. Yozgi ta’tilda bajaradigan ishlaringiz rejasini tuzing.

2-DARS

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn asosida o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadlaringiz haqida suhbatlashing.

Inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi kerak. Bu maqsad kishida irodalilikni tarbiyalashga yordam beradi. Sizning o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadingiz, menimcha, maktabni muvaffaqiyatli tugatishdir. Buning uchun birinchidan, har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishingiz, ikkinchidan, fikringizni chalg‘itadigan narsalardan voz kecha olishingiz kerak. Agar shunday qila olsangiz, irodangiz ham mustahkamlanadi, jasoratli bo‘lib yetishasiz, maqsadga ham yetasiz. Haqiqatan ham, kimki olimlar kalitini qo‘lga kiritsa, aniq bir maqsad yo‘lida tirishqoqlik bilan o‘qib o‘rgansa, kelajakda komil insonlar bo‘lib yetishadilar. Demak, intilganga tole yor bo‘ladi.

Bilib oling!

Undovlar insonlarning diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to‘xtatish uchun qo‘llaniladi. Ular yakka, juft va takrorlangan holda keladi. ***Masalan: Oh-oh-oh****, buncha shirin qovun ekan!*

4-mashq. Gaplarni o‘qing va undov so‘zlarni qo‘llanishiga ko‘ra quyidagi jadvalga joylashtiring.

1. Hoy, kapalak, kapalak, qanotlaring ipakdek, pildir, pildir uchishing, oh, yoqadi ko‘nglimga! 2. Uzoq-uzoqlarda cho‘ponlarning „qurey-qurey“ degan ovozi eshitiladi. 3. Hey, bu yoqqa qaranglar, – deb chaqirishdi bolalar. 4. Chip-chip, jo‘jalarim, chip-chip, chip-chip jo‘jalarim. 5. Pisht, pisht-e, deya mushukni haydadi. 6. Xo‘sh, qani, davom et-chi, yana nima demoqchisan? 7. Ey, qizlar, bu gullarni qarang!

Insonlarga qaratilgan buyruq-xitob undovlari	Jonivorlarga qaratilgan buyruq-xitob undovlari

5- mashq. Gaplarni mos ohangda o‘qing. Undov so‘zlarning qo‘llanishini va imlosini tushuntiring.

1. Salom, ey yangi kun, mustaqil Vatanim! 2. Eh, bolalar, ta’tilni juda sog‘ingan edik-da. 3. Bay-bay, bu mevalar buncha totli bo‘lmasa! 4. Oh-oh-oh, non issiqqina ekan. 5. Tu-tu, – deb tovuqlarni chaqiradi. 6. Tshsh, shovqin qilmay o‘tiring. 7. Rahmat, sizdan juda minnatdorman. 8. Yigitcha otini „tsss“, deb to‘xtatdi.

4- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Kelgusi rejalarim

Har yili yozda oila a’zolarimiz bilan dala hovlimizga chiqamiz. Dala hovlimiz katta: bir tomonida mevali daraxtlar, ikkinchi tomonida pomidor, bodring kabi sabzavotlar ekilgan. Hovlining etak tomonida katta hovuz bor. Dam olishga chiqqanimizda avval bog‘ va polizdagi ishlarni bajaramiz, daraxtlar, gullar, sabzavotlarni sug‘oramiz, begona o‘tlardan tozalaymiz. Oyim pishgan mevalardan sharbatlar tayyorlaydilar. Men dadamga, singlim esa oyimga yordamchi bo‘ladi. So‘ng maza qilib hovuzda cho‘milamiz. Bo‘sh qolgan vaqtimizda shaxmat, shashka, voleybol o‘ynaymiz, har xil kitoblar o‘qiymiz. Bu yil yozda men rasm chizishni, singlim esa roman va qissalar o‘qishni rejalashtirdik. Yoz fasli har yili sermazmun taassurotlarga boy bo‘ladi.

Siz yozgi ta’tilda nimalar qilishni rejalashtirdingiz?



Adabiy o‘qish

YOZDA

Hademay yozgi ta’til,
Dam olaman miriqib.
Cho‘milaman suvlarda,
Oftoblarda chiniqib.

Minib saman toyini
„Chu“, jonivor, „chu“ deyman.
Kengliklarda hayqirib,
Qushlarga „hay-hu“ deyman.

So‘ng qishloqqa boraman
Cho‘pon bobom yoniga.
Qo‘y-qo‘zini boqaman
Oro kirib joniga.

Yayrab ketar jon-tanim
Keng dalalar bag‘rida.
Hordiq olib, kuch yig‘ib
Qaytaman men shahrimga.

Fazliddin Po‘latov

O‘ZBEKCHA-RUSCHA LUG‘AT

A

adolatsizlik – несправедливость
afsona – легенда
ajib – поразительный
ajnabiy – иностранец
allaqachon – давно
alp, bahodir – богатырь
amalga oshmoq – осуществляться
arkoni davlat – государственные деятели
arazlashmoq – обижаться
ardoqlash – оберегать
armon – несбыточная мечта
asrab-avaylash – беречь
atama – термин
ayyuhannos – крик, шум
azaldan – с давних пор
an’ana – традиция
antiqa – необычный
achinmoq – сожалеть

B

bartaraf qilmoq – преодолеть
bebaho – бесценный
bebosh – непослушный
bejiz emas – незря, недаром
beqiyos – несравнимы
bexavotir bo‘lmoq – быть спокойным
bezash – украшать
beg‘araz – безвозмездный
beg‘ubor – непосредственный
betakror – неповторимый
billur – хрусталь
bisyor – много
boqiy – вечный, долговечный
bosiqlik – уравновешенность
butkul, butun – полностью

D

dabdurustdan – внезапно
dahshatli – ужасный
dam, lahza – секунда
darhol – немедленно
daraja – степень
dalolat bermoq – показывать, свидетельствовать
darmondori – витамин
do‘stlar davrasida – в кругу друзей
da’vat (etmoq) – призывать
depsinmoq – топтаться на одном месте
dilsiyohlik – огорчение
dovruq (taratmoq) – быть знаменитым
dog‘ tushirmoq – портить репутацию

E

ehtiyotkorlik – осторожность
elchixona – посольство
epchil, uddaburon – ловкий
erinchoqlik – лениться
ezgu – самый лучший, добрый
ezgulik arkasi – арка добрых и благородных стремлений
e’tibor – внимание
e’zoz – почтение
e’zozlamoq – уважать, почитать
e’tiqod – вера во что-либо
e’tirof etmoq – признавать

F

fahmlamoq – соображать, догадываться
faoliyat – действия
farmon – указ
farog‘at – спокойствие, блаженство

fazilat – положительное качество (о характере)
fojia – трагедия
fursat – момент

G

ganj – сокровище
gar (agar) – если
garov – залог
gavjum – многолюдный
gala-gala, shoda-shoda, uyum-uyum – кучами
gerdaymoq – задирать нос, важничать
gohi – иногда
gulgun – красный, алый, румяный
gunoh – грех

H

hamjihatlik – взаимопонимание
hamkorlik – сотрудничество
hamroh – спутник, попутчик
hamroz – наперсник
harb usullari – военное дело
harsillamoq – задыхаться, тяжело дышать
hatlab o‘tish – перешагнуть
hazm qilish – переваривать
homiylik qilmoq – спонсировать
himmat – щедрость
hiyla-nayrang – обман, ложь
hurlik – свобода
hushyor – бдительный, зоркий

I

ibrat – пример
idrok – разум, соображение
ivitmoq – мочить
iftixor – гордость
ilm ahli – учёные
intizorlik bilan – с нетерпением
isloh – реформа
iste’dod – талант
izzat-hurmat – уважение
izg‘irin – холодный ветер
ishonuvchan – доверчивый

J

jarayon – процесс
jalb qilmoq – привлекать
jiddiy – серьёзный
jipslashtirmoq – сплачивать
jism – предмет
johil – невежда; злобный
jonkuyar – заботливый
jonzot – существо
joriy etmoq – внедрять
jussa – тело
jumladan – в частности
jo‘shqin – бурный

K

kapgir (soat) – маятник
kamon otish – стрельба из лука
kashfiyot – изобретение
kezmoq – бродить
kenglik – простор
koshona – дворец
kulfat – беда
kuch-quvvat – сила
kungurali – зубчатый
ko‘rk – красота

L

lahza – мгновение
lapashang – разиня
lashkarboshi – полководец
likop(cha) – тарелка
loqayd – безразлично, бесстрастно

M

maftun – очарованный
mahkam – крепкий

скачано с сайта www.idum.uz

manba – источник
martaba, lavozim – должность
marvarid – жемчуг
mavqe – положение, позиция
maymunjon – малина
mash'al – факел
mazmun, ma'no – смысл
ma'sum – бескорыстный
ma'lum – известно
merosxo'r, voris – наследник
mesh – бурдюк
me'mor (me'morchilik) – архитектор (архитектура)
muhtasham – великолепный, роскошный
mukammal – всесторонний
muntazir – ожидающий
mutafakkir – мыслитель

N

naf – польза
najot – спасение
nasl, avlod – поколение
nasihat, o'git – добрый совет, наставление
navo – мелодия
nayzabozlik – метание копья
novvoy – пекарь
nihol-ko'chat – саженец
nobakor – негодяй
nodon – глупый
nogahon – неожиданно
non burdasi – кусок хлеба
noqobil – недостойный

O

obod – благоустроенный
obida – символичное выражение
odimlamoq – шагать
ohista (sekin) – тихо, спокойно
ojiz – бессильный
omil – фактор
oqibat – полученный результат, итог
orasta, saranjom, sarishta – чистый, аккуратный
or-nomus, hayo – честь
orol – остров
otashnafas – пламенный
ozodlik timsollari – символ свободы

P

panoh (topmoq) – находить убежище
parhez – диета
parvarish qilmoq – ухаживать
payvandi – привитый; сращённый
pok – чистый
poydevor – фундамент, основа
purkamoq – опрыскивать, брызгать
pushaymon – сожаление

Q

qadriyat – духовное богатство, ценность
qaqshab qolmoq – потерпеть поражение
qayg'urmoq – горевать
qashshoqlik – нищета
qidirmoq – искать
qirq og'ayni – сорт розы
qirqma – сорт дыни
qiyos etmoq – сравнивать
qora sovuq – суровый холод
qomusiy – энциклопедический
qurg'oqchilik – засуха
qurshab (olmoq) – ограждать
qo'llash – поддержка
qo'lyozma – рукопись

R

rahm-shafqat – жалость, сострадание
ranjitmoq – обижать
raqib – противник

скачано с сайта www.idum.uz

rasadxona – обсерватория
rashk qilmoq – ревновать
ramziy ifoda – символичные выражения
razm solmoq – смотреть со вниманием
riyozat ilmi – естественные науки
rioya qilmoq – соблюдать

S

sabr-bardoshli – терпеливый
saboq (bermoq) – обучать
sabot – стойкость
sadoqat – верность
sang‘ib yurmoq – бродить
sanchmoq – колоть
saxiylik – щедрость
sergak – бдительный; чёткий
sermashaqqat – трудоёмкий
sevinmoq – радоваться
sel – лавина
silsila – времена
sirlangan – засекреченный
sirli – таинственный
sinamoq – испытывать
so‘nish – погашение
suzmoq – наливать; плавать

T

taajjub – удивление
taassurot – впечатление
tabarruk – священный
tadqiq qilmoq – исследовать
takabbur – высокомерный
takomillashtirmoq – совершенствовать
tanho (yagona) – единственный
tanish-bilish – знакомые
tanqid – критика
taqiq – запрет
taraqqiyot – развитие, прогресс
tasalli bermoq – утешать
tasodif – случайность
tayoq – палка
tashnalik – жажда
tashviqot – пропаганда, агитация
ta’mirlamoq – чинить, реставрировать
ta’minlamoq – обеспечивать
tejamkorlik – бережливость
termoq – собираться, быть собранным, убранным
tengsiz – несравненный
tetik, bardam – бодрый
tiymoq – сдерживать, удерживать
tortishib qolmoq – спорить
tuzukkina – нормально
to‘yimlilik – калорийность

U

uddalamoq – справляться
udum – обычай
uvoq – крошки (хлеба)
ulfat – дружба, друг
ulug‘lamoq – возвеличивать
unutmoq – забывать
uquv-idrok – сообразительность
urug‘, qabila – род, племя
ustod (ustoz) – учитель, наставник
uyat – стыд
uzluksiz – непрерывно

V

vakil – представитель
vatandosh – соотечественник
vasiyat – завещание
vayrona – развалина
vijdon azobi – муки совести
vodiy – долина

X

xayolchan – задумчивый
xayrli – благотворительный
xijolat – смущение

скачано с сайта www.idum.uz

xipcha – тонкий, изящный
xislat – качество (о характере)
xomashyo – сырьё
xotima – конец, исход
xumor (bo‘lmoq) – ожидание, сильное желание
xushovoz – имеющий приятный голос

Y

yaganalash – прореживание
yanchmoq – затоптать
yaqqol – явно
yakun – итог
yetishtirgan – выращиваемый
yirtmoq – рвать
yo‘nalish – направление
yovuz niyat – злой замысел
yog‘ingarchilik – ненастная, дождливая погода
yumush – работа, дело

Z

zabt etmoq – завоёвывать
zahmat chekmoq – страдать
zakovat – интеллект
zamin – земля
zardo‘zlik – золотое шитьё
zarhal – золотистый
zarrin – золочёный
zax – сырость
zimiston – темнота
zinhor – ни в коем случае
ziyorat qilmoq – посещать святые места

O‘

o‘jar – буйный, упрямый
o‘ksinmoq – чувствовать обиду, огорчаться
o‘rda – дворец
o‘rtanmoq – мучиться
o‘zlashtirmoq – усваивать
o‘xshash – похожий

G‘

g‘arq pishgan – спелый, созревший
g‘ayrat-shijoat – сила духа
g‘azab – злость
g‘ashi kelmoq – действовать на нервы
g‘aroyib – фантастично
g‘ijimlamoq – мять
g‘oya – идея
g‘ujanak – свернуться клубком
g‘urur – гордость

Sh

shabnam – роса
shaffof – прозрачный
sharaf – слава
shaydo bo‘lmoq – быть очарованным
sharshara – водопад
shift – потолок
shoda – связка; колье
shubha – подозрение
shudgorlash – вспахивание
shudring – утренняя роса

Ch

chalg‘imoq – отвлекать
chapak chalmoq – аплодировать
charog‘bon – факельщик
chappar urib – насквозь
chavandozlik – конный спорт
chechan (chaqqon) – ловкий
chegara – граница
chirmashmoq – карабкаться
chora – мера
chorlamoq – звать
chidamoq – выдерживать, терпеть

скачано с сайта www.idum.uz

MUNDARIJA

I mavzu: Mustaqil o‘zbekiston *(Fe’l nisbatlari. Aniq nisbatdagi fe’llar)*.....3

II mavzu: Ona yurt manzaralari *(Fe’lning o‘zlik va majhul nisbati, ularning yasalishi va qo‘llanishi)*.....9

III mavzu: Hosil bayrami *(Fe’lning birgalik nisbati, uning yasalishi va qo‘llanishi)*.....15

IV mavzu: Bug‘doy – rizq-ro‘zimiz *(Fe’lning orttirma nisbati, uning yasalishi va imlosi)*.....21

V mavzu: Buyuk allomalar *(Nisbat qo‘shimchalarining birdan ortiq qo‘llanishi, ularning imlosi va talaffuzi)*.....28

VI mavzu: O‘zbek yozuvchilari *(Fe’lning vazifaviy shakllari. Harakat nomi, uning yasalishi va qo‘llanishi)*.....35

VII mavzu: Men sevgan asar *(Ravishdosh, uning yasalishi va imlosi)*.....41

VIII mavzu: Milliy hunarmandchilik *(Sifatdosh, uning yasalishi va imlosi)*.....48

IX mavzu: Hunarmand maktabi *(Sifatdoshlarning ot o‘rnida qo‘llanishi)*.....55

X mavzu: Do‘stlik qudrati *(Bog‘lovchilar, ularning turlari va qo‘llanishi)*.....62

XI mavzu: Sog‘lik – tuman boylik *(Biriktiruv va zidlov bog‘lovchilari, ularning qo‘llanishi va imlosi)*.....68

XII mavzu: Dunyo mo‘jizalari *(Ayiruv va inkor bog‘lovchilari, ularning imlosi va talaffuzi)*.....75

XIII mavzu: O‘zbek tilshunoslari *(Modal so‘zlar. Ishonch va tasdiqni bildiruvchi modal so‘zlar)*.....83

XIV mavzu: Hashar *(Fikrning tartibi va kimga qarashliligini bildiruvchi modal so‘zlar)*.....92

XV mavzu: Tejamkor bo‘laylik *(Gumon va taxmin bildiruvchi modal so‘zlar)*.....98

XVI mavzu: O‘zbekistonning tabiiy boyliklari *(Fikrni xulosalashda qo‘llanadigan modal so‘zlar)*.....103

XVII mavzu: Mardlik – mangulik *(Ko‘makchilar va yuklamalar, ularning imlosi va qo‘llanishi)*.....110

XVIII mavzu: Kelgusi rejalarim *(Undov so‘zlar, ularning qo‘llanishi va imlosi)*.....117

O‘zbekcha-ruscha lug‘at.....121

скачано с сайта www.idum.uz

81.2
M93

X. Muxitdinova
O‘zbek tili [Matn]: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik/X. Muxitdinova. – Qayta ishlangan 4-nashri. – T: „O‘qituvchi“ NMIU, 2019. – 128 b.

ISBN 978-9943-22-370-7

UO‘K: 811.512.133
KBK 81.2

XADICHA MUXITDINOVA

O‘ZBEK TILI

Qayta ishlangan 4- nashri

Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 8- sinfi uchun darslik

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

Muharrirlar: *M. Nishonboyeva, F. Tolipova*
Badiiy muharrir *Q. Shomurodov*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Kompyuterda sahifalovchi *D. Do‘smatova*
Musahhih *Sh. Jahonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 16.03.2019. Bichimi 70x90$^{1}/_{16}$. Kegli 12 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 9,36. Hisob-nashriyot t. 8,0. Adadi 69 086 nusxa.
Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.
Shartnoma № 241-18

скачано с сайта www.idum.uz

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchi-ning ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.